

FONUS

www.amazon.com.uzbekistan

FONUS

Bayoz

Jizzax-2025

FONUS
Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
yoshlarining ijodiy-ilmiy bayozi

Jizzax davlat pedagogika Universitetida, xususan, O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida ko‘plab iqtidorli va ijodkor talabalar talaygina. Ularning ayrimlari o‘z asarlari va ilmiy izlanishlari bilan allaqachon ustozlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Ushbu bayoz O‘zbek tili va adabiyoti fakultetining ana shunday ijodga va ilmga chanqoq talabalarining she’r va hikoyalari, ilmiy va publististik maqolalarini o‘zida jamlaydi.

Qadrli o‘quvchi! Ushbu bayoz bilan tanishib chiqqach, qalbi sof tuyg‘ularga to‘lgan umidli qalamkashlar va ilm yo‘lida dadil qadamlar bilan ildamlayotgan tadqiqodchilarga ilmiy va ijodiy barkamollik va bardavomlik tilashingizga ishonamiz.

*Ushbu kitob Jizzax davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan
“Mushoira” klubi tomonidan nashrga tavsiya etildi*

Taqrizchilar:

Usmonjon Qosimov - Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti professori, filologiya fanlari nomzodi.

Farrux Amirov – Zomin seminari ishtirokchisi.

© Fonus, 2025 y

© www.amazon.com.uzbekistan kutubxonasi, 2025 y

SO‘ZBOSHI

Jizzax davlat pedagogika universitetida iqtidorli talabalar talaygina. Birgina O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti jumlasida ham buni yaqqol ko‘rish mumkin. Ayniqsa, ularning so‘zga bo‘lgan muhabbati alohida e‘tirofga loyiq. Oliygohdagi to‘garaklar, xususan, “Mushoira” klubi faoliyati ana shunday iste‘dodlarning yetishib chiqishiga zamin yaratmada desak muolag‘a bo‘lmaydi. Yosh qalamkashlarga to‘g‘ri yo‘nalish berish, xato va kamchiliklarini anglatish, yutuqlarini rag‘batlantirishda ustozlarning o‘rni g‘oyat yuqoridir.

Ushbu bayozdagi she‘rlarni o‘qir ekansiz bir-biriga o‘xshamaydigan ovozlarni, bir-birini takrorlamaydigan tuyg‘ularni ko‘rasiz. Ular ustoz ijodkorlarning ijod namunalarini, o‘zbek va jahon adabiyotidagi nodir asarlarni o‘qib, qaysidir ma‘noda andozalar olganligiga amin bo‘lasiz. Ularning yozganlarida vulqon oldi uchqunlarni ilg‘aganday, adabiyot atalmish azim maydonga yangi va shahdam qadamlar kirib kelishga shaylanayotganini sezganday bo‘lasan kishi.

Bayozning ramziy “Fonus” deb nomlanishi alohida diqqatga sazovordir. Fonus - zulmatni yorutuvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi ne‘mat. Uni bir so‘z bilan ilmga qiyoslash mumkin. O‘z maqsadlari tomon ildamlayotgan har bir insonga ilm zarurdir. Ushbu bayoz bir qo‘liga fonus, bir qo‘liga qalam tutgan yoshlarning hissiyoti va fikrati mahsulidir. Jizzax diyorida umidli yoshlarning yetishib kelayotganligi, albatta, quvonarli hol.

Bayozda umidli yosh ijodkorlardan biri Farrux Amirovning she‘rlari ham o‘rin olgan. Uning she‘rlarida eng toza tuyg‘ular mujassamligi, qadim qadriyatlarimizga muhabbat, eng kirchil illatlarga nisbatan nafrat tuyg‘usi yaqqol ko‘rinib turadi:

Urayinma peshonamga qamchindi?

Qizim mening yuragimdan parchindi.

Nasixating yolg‘on bo‘lsa ayt chindi.

Avlodlarg‘a bul nasoqti qoldirma.

Elim bo‘lsang uzat dema Barchindi!

Mening qizim sening singling nomardlar!

Bu satrlarni u Boysaribiy tilidan baxshi bo‘lib kuylaydi va tinglaguchilarni birdamlikka va jasoratga chorlaydi. Huddi shunday isyonkor ruhni “Chevarim”, “Mening adabiy portretim” singari she‘rlarida ham his qilasz.

FONUS

Bayozda o‘lmas tuyg‘ular madhi, o‘z ona tiliga bo‘lgan so‘ngsiz muhabbat ham faxr ruhida yozilgan she‘rlar ham uchraydi. Ayniqsa, Zilola begimqulovanning she‘rlari so‘zlarimizning yaqqol isbotidir.

*Yorijon, ko‘zlarim nigoro,
Senmi, ayt yoki men bevafo.
Hijronlar jonlarni o‘rtaydi,
Urdilar bizni, voh, bexato.*

*Qoshmidi qaroshmi qayrilgan,
Bir bizmi dunyoda ayrilgan.
Sochdan to tirnoqqa evrilgan,
Etmadi hech kasbki bir ma‘no*

So‘zlarning yasama emasligi, chashmaday quyilib kelganligi uning qanchalar mahorat bilan yozilganligini ko‘rsatadi. Bu she‘rni o‘qiyotganingizda beixtiyor g‘oyibna musiqa jo‘rligini his qilasiz.

Shuningdek Nasiba Boshmonovanning “Sarosim” she‘ri ham maqtovga loyiq. Bu she‘rda ko‘proq ruhiy iqlimlar ko‘zga tashlanadi:

*Yuragim qa‘rida g‘ashlik bor,
G‘ashlikki, jonimga tig‘ qadar.
Darbadar hislarim haqqi, oh
Dardimni insonlar baxt atar,
Naqadar ayanchli naqadar...*

Ushbu bayozda nafaqat she‘r, balki hikoya, publististik hamda ilmiy maqolalar ham o‘rin olgan. Aytib o‘tish lozimki nasr yo‘nalishida ijod qiluvchi yosh ijodkorlar yanada ko‘proq mehnat qilishlarini istardim. Iste‘dod va mashaqqatli mehnat uyg‘unlashgandagini o‘quvchilarga manzur asarlar yaraladi.

Bayozdan o‘rin olgan Lochin Xakimov va Gulsora Ortiqovanning maqolalarida anchayin teran fikrlar jamlanganining guvohi bo‘lasiz. “Tarixiy haqiqatning adabiyotga ko‘chishi” maqolasi ham ilmiy ham badiiy jihatdan muvaffaqiyatli yaratilgan. Gulsora Ortiqovanning “Iste‘dodning ming bir jilosi” maqolasida esa badiiy tahlilning samarali mahsuli gavdalanadi.

Shu kabi fikrlarni ilmiy maqolalarga nisbatan ham aytishimiz mumkin. Yosh tadqiqodchilarning ko‘pligi, ularning orasida adabiyotga ilmiy yondashganlarning bisyor ekanligi adabiyotning va millatimizning yutug‘idir. Ularning orasida, ayniqsa, Eshmirzayeva Barno, Abdiyeva Barno, Asadullayeva Marjona, Keldiyarova Dinora hamda Ergasheva Azizalarning izlanishlari mening e‘tiborimni tortdi va yangi g‘oyalar bera oldi.

Xulosa qilib aytganda bir fakultetdagi barcha iste‘dodlarning yoziqlari bir kitobga jamlanishi nafaqat oliygohga, balki viloyatimizdagi barchamaktablar va boshqata‘lim muassasalari uchun ham o‘rnakdir. Qo‘liga Qalam tutgan barcha yoshlardan umidimiz katta. Ularga ilmiy va ijodiy barkamollik tilab qolaman.

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo‘limi raisi

Mehribon Abdurahmonova

KIRISH

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI TARIXI

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1974-yilda Jizzax davlat pedagogika universitetining tashkil topgan ilk kunlaridan boshlab faoliyat yuritayotgan fakultetlardan biridir. Fakultet dastlab o‘z faoliyatini faqat 9 nafar professor-o‘qituvchi bilan boshlagan bo‘lib, uning ilk dekani filologiya fanlari nomzodi, dotsent Xudoybergan Jo‘rayev bo‘lgan. Tashkil topgan dastlabki yillarda fakultetda uchta yo‘nalish bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan edi: o‘zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, boshlang‘ich ta‘lim. Shuningdek, ilk kunlarda fakultetda uchta kafedra faoliyat ko‘rsatgan: o‘zbek tilshunosligi kafedrasini, o‘zbek adabiyoti kafedrasini, rus tili va adabiyoti kafedrasini.

Fakultet dastlabki faoliyatini hozirgi Jizzax shahar band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi monomarkazning 2-qavatidagi o‘quv xonalarida boshlagan. Bu yerda o‘zbek tilshunosligi kafedrasini va fakultet dekanati faoliyat yuritgan, o‘zbek adabiyoti kafedrasini esa markazning yon tomondagi 1-qavatida joylashgan bo‘lgan.

1976-yilda fakultetning pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi hamda rus tili va adabiyoti fakultetlari ajralib chiqishi bilan fakultetning boshqaruvida o‘zgarishlar yuz bergan. Xudoybergan Jo‘rayev pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekanligiga tayinlangan. O‘rniga esa o‘zbek tilshunosligi kafedrasini boshqarayotgan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Muxtor To‘ychiyev (1976-1978 yillar) fakultet dekani etib tayinlangan.

Keyingi yillarda fakultet dekanligida filologiya fanlari nomzodi, dotsent Po‘lat Hamdamov (1978-1981 yillar), dotsent Solijon Boymatov (1981-1982 yillar), filologiya fanlari nomzodi, dotsent Olimjon Jo‘rayev (1982-1983 yillar), filologiya fanlari nomzodi, dotsent O‘rol Nosirov (1984-1986 yillar) kabi olimlar faoliyat yuritdi.

1986-yilda fakultetga kompartiyaning boshqaruv rolini kuchaytirish maqsadida Jizzax viloyat partiya qo‘mitasi instruktoriga bo‘lib ishlayotgan tarix fanlari nomzodi Rashid Xolmurodov tayinlangan. Bu davrning muhim voqealaridan biri fakultetning yangi qurilgan bosh binoga ko‘chirilishi bo‘lgan. Fakultet bosh binoning 3-qavat, o‘ng tomondagi o‘quv xonalarida joylashgan. 2020-2021 yillarda universitet bosh binosining kapital ta‘mirlanishi natijasida fakultet hozirgi joyiga, ya‘ni 2-bino o‘quv xonalariga ko‘chirilgan. Shu davrning yana bir muhim voqeasi, fakultetda Sharq tillari kafedrasining tashkil etilishi bo‘lgan. 1991-yilda tashkil etilgan ushbu kafedraga filologiya fanlari nomzodi, dotsent Javqon Lapasov rahbar etib tayinlangan. Kafedra arab va fors tillarini o‘rgatishga va eski o‘zbek yozuvini o‘rgatishga mo‘ljallangan edi. Javqon Lapasov o‘z vaqtida Afg‘onistonda tarjimon sifatida faoliyat yuritgan, fors tilini mukammal o‘zlashtirgan mutaxassis bo‘lgan Kafedraga Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini tamomlagan mutaxassislar, afg‘on urushi qatnashchilari Ahror

Pardayev, Sunatulla Soyipovlar jalb qilingan. Bundan tashqari, Abdulhayit Abduvaliyev, Narzulloh Rasulzoda, Suyunboy Abduvoitov, Abduvali Musayev, Jamoliddin Jo'rayev, Latofat Ibragimova, Muxtor Almamatov, Surayyo Do'stova, Yulduz Hayitboyeva kabi ilmiy va pedagogik kadrlar faoliyat ko'rsatgan. 2005-yilga kelib kafedra o'zbek tilshunosligi kafedrasi tarkibiga qo'shilgan.

1992-yilda filologiya fanlari nomzodi, dotsent Usmonjon Qosimov fakultet dekani etib tayinlangan. Bu davrda fakultet zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlangan, talabalar amaliyotlari mazmunli tashkil etilgan. 1-kurs talabalariga G'allaorol tumani qishloqlarida folklor o'quv amaliyoti, 2-kurs talabalariga Baxmal tumani qishloqlarida dialektologik o'quv amaliyoti o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, mashhur yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar ko'plab tashkil etilgan.

Xususan, shoir Abdulla Oripov bilan uchrashuv tashkil etilib, fakultet dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Qodir Pirmatov tomonidan Abdulla Oripovga "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berish taklif qilingan va bu taklif hukumat tomonidan ma'qullangan. 1993-yilda Usmonjon Qosimovning boshqa ishga o'tishi bilan fakultetga yangi dekan tayinlangan, bu lavozimga filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bahodir Fayzullayev kelgan. Bahodir Fayzullayev 2005-yilgacha fakultet dekanligida faoliyat yuritgan. 1995-yilda tarix bo'limi ochilgan, bu bo'limga har yili 25 nafar talaba qabul qilinadi va to'rt yil mobaynida talabalarning soni 100 nafardan oshgan. Bo'lim tarix fanlari nomzodi, dotsent Alijon Botirov tomonidan boshqarilgan va 2002-yildan Tarix fakulteti alohida fakultet bo'lib ajralgan.

Shundan so'ng fakultetda pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Abdunazar Nurmanov (2005-2007 yillar) va filologiya fanlari nomzodi, dotsent Abduvali Musayev (2007-2012 yillar) fakultet dekani sifatida faoliyat yuritgan. 2012-yilda fakultet dekanligiga Shohqadam Haydarov tayinlangan. 2014-yilda esa Qahramon Yodgorov fakultet dekani etib tayinlangan bo'lib, 2016-yilda Qahramon Yodgorov universitet o'quv ishlari prorektori lavozimiga o'tgan va fakultet dekanligiga Toshkent shahridan kelgan filologiya fanlari nomzodi, siyosatshunoslik fanlari doktori Fazliddin Ravshanov (2016-2017-yillar) tayinlangan. U davrda fakultetning yon tarafi tartibga keltirilib, ko'kalamzorlashtirilgan, gazon yotqizilgan va sug'orish tizimi yaxshilangan. 2017-yilda Fazliddin Ravshanov Toshkent shahriga boshqa ishga o'tgach, fakultet dekanligiga filologiya fanlari doktori, professor Umrzoq Jumanazarov tayinlangan. Umrzoq Jumanazarov ilmiy faoliyatining keng qamrovliligi bois 2019-yildan ilmiy sohaga o'tkazilgan. Shundan so'ng fakultet dekanligiga filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sunatulla Soyipov tayinlangan va u 2023-yilning sentabr oyigacha fakultetni boshqarib kelgan. Hozirgi kunda fakultetni filologiya fanlari nomzodi, dotsent Fazilat Ibragimova boshqarib kelmoqda.

Universitetning dastlabki qaldirg'och fakulteti sifatida faoliyat yuritgan o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1978-yildan buyon o'zining hosilini bera boshlagan. Ushbu yildan boshlab fakultet bitiruvchilari xalq ta'limi sohasiga, shuningdek, boshqa turli sohalarga ham ishga yuborila boshlagan. Bugungi

kungacha fakultetda jami 6000 nafardan ziyod mutaxassis tayyorlangan va ishga yuborilgan. Ularning qatorida Paxtakor tumanida bir necha yillar hokimlik qilgan G'ofir Qarshiboyev, ayni damda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri o'rinbosari Alisher Qodirov, ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i Mavlonova Nargiza hamda filologiya fanlari doktorlari Surayyo Eshonqulova va Shahlo Botirova (Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori) kabi olimlar, shuningdek, ijodkorlar Gulchehra Shahobiddin qizi va Latofat Ne'mat qizi kabilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Fakultet 1993-1998 yillarda alohida yangi yo'nalish, ya'ni rus maktablarida o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi yo'nalishi bilan faoliyat yuritgan. O'sha davrda jami 25 nafar talaba tahsil olgan va 1998-yilda o'qishni tugatib, mazkur yo'nalish yopilgan. O'sha yo'nalishni bitirganlar orasida hozirda Chirchiq davlat pedagogika universitetida faoliyat yuritayotgan filologiya fanlari doktori, professor Surayyo Eshonqulova ham bor edi. O'tgan 50 yil davomida fakultet iqtidorli talabalar bilan ishlash, ularning iqtidorini o'z vaqtida aniqlash va turli tanlovlarda ishtirokini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. 1985-yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan yoshlar va talabalarning XII Jahon talabalar festivalida fakultet talabasi Yulduz Karimova universitet nomidan delegat sifatida ishtirok etdi va Lenin nomidagi davlat stipendiyasini qo'lga kiritdi. Keyingi yillarda Mahbuba Toshmatova, Mahfuza Usmonova, Saodat Mamayusupova, Fazilat Ibragimova, O'ktam Alimov, Gulnoza Pochchayeva, Feruza Jumayeva, Orifjon Odilov, Shodiya Abdug'apparova, Maftuna Xidirova, Odiljon Shodiyev, Sevinch Aliyeva, O'g'iloy Abduraimova, Nafisa Abralova kabi talabalar turli yillarda Navoiy nomidagi davlat stipendiyasini, Shoxida Siddiqova Sharof Rashidov nomli stipendiyani, Eshmurzayeva Barno Usmon qizi Universitetda ta'sis etilgan Bozorboy O'rinboyev nomli stipendiyani qo'lga kiritdilar. Hozirda fakultetning iqtidorli talabalaridan tuzilgan "Ma'rifat maydoni" jamoasi, "Parvoz" talabalar teatr studiyasi, quvnoqlar va zukkolar jamoasi, "Yosh kuch" zakovat intellektual o'yini jamoasi, "Izlanish" klubi, "Navoiyshunoslik", "Marvarid", "Yosh filologlar", "Tilshunoslar" to'garaklari faoliyat yuritib, turli tanlov va tadbirlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqdalar.

Fakultet jamoasi ilmiy-tadqiqot sohasida ham katta yutuqlarga erishdi. Bir paytlar 3-4 nafar fan nomzodlari bilan ish boshlagan jamoada bugungi kunda o'ziga xos filologiya fanlari bo'yicha ilmiy maktablar yaratildi. O'tgan davrda jamoada 4 nafar fan doktori, o'nlab fan nomzodlari hamda falsafa doktori ilmiy darajasidagi xodimlar faoliyat yuritdilar hamda jarayon davom etmoqda. Ulardan fan doktorlari, professorlar Bozorboy O'rinboyev, Fayzulla Boynazarov, Shoira Doniyorova, fan nomzodlari, professorlar O'rol Nosirov, Olimjon Jo'rayev, Xudoybergan Jo'rayev, fan nomzodlari, dotsentlar Zumrad Xo'jayeva, Abdurayim Soliyev, Ikrom Suyarov, Salohiddin Tursunov, Muxtor To'ychiyev, Mustaqul Karimov, Tursunqul Almatov, Bahodir Fayzullayev, Qahramon Yodgorov shuningdek, hozirda Usmonjon Qosimov, Umrzoq Jumanazarov, Nodira Soatova

kabi fan doktorlari, Mardonqul Tursunpo‘latov, Abbas Tursunqulov, Abdujabbor Usmonov, Abduhamit Tangirov, Yulduz Karimova, Abduvali Musayev, Sunatulla Soyipov, Zuhra Mamadaliyeva, Shahnoza Almamatova, Jamoliddin Jo‘rayev, Shohqadam Xaydarov, Fazilat Ibragimova, Dilnavoz Salimova, Surayyo Do‘stova, Zubayda Jumayeva, Murodulla Jo‘rayev, Dilnoza Abduvaliyeva, Dilnoza Boymatova, To‘xtamurod Qo‘chqorov, Lutfulla Sindarov, Xayrulla Ibragimov, Otabek Xidirov, Jahongir Lutfullayev, Dilnoza Fayzullayeva, Munavvara Xidirova, Feruza Jumayeva, Hulkar Ne‘matova, Aslam Usmonov, Xurshid Maxammadiyev, Parizod Turopova, G‘ayrat Isroilov kabi fan nomzodlari filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlarini sanab o‘tish mumkin. Bugungi kunda o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida jami 49 nafar professor-o‘qituvchilar jamoasi faoliyat yuritmoqda. Ular fakultetda mavjud 2 ta kafedrada: o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida hamda o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘z bilim ham tajribalarini yosh avlodga o‘rgatishdek buyuk ishga bel bog‘laganlar.

O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida bugungi kunda ijodkor yoshlarning ko‘pligi mana shu almanaxni tashkil qilish uchun turki bo‘ldi, talabalarning ilmiy ishlarini bir kitobda jamlashni lozim bildik. Ushbu ishlarni bardavom bo‘lishini istagan holatda, sizlarga taqdim etmoqchi bo‘lgan ushbu ijodiy ishlar barchaga manzur bo‘ladi degan umiddamiz.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilot
yetakchisi Baxtiyorova Sevinch Doniyor qizi

She'rlar

*Ona tilim, sen bilan,
Buloqdek ko'z ochmisham.*



Farrux Amirov

Chevarim

Orolbo‘yi qiziga

Chevarim — orolning vijdoni,
Qalbimni qalqitgan matonat.
Kashtangga o‘rab qo‘y dunyoni,
Tizzangga bosh qo‘ymoq — ibodat.
Sahroyi shamollar kasridan
Sinmasin ko‘nglingning nuqrasi.
Men senda ko‘rgayman, aslida
Insonning insonlik firqasin.
Chevarim, qirq o‘rim kokiling
Qirq qizning ohidir tinglasam.
Unutma, haq erur botining!
Axir sen alplarning singlisan.
To sening bigizing, nashtaring—
Hilolning eng o‘tkir parchasi.
Vatanni suydim deb vaysagan,
Kaslarning ko‘ksiga sanchilsin!
Xaslarning ko‘ksiga sanchilsin!
O‘zini er degan g‘ofil-u
Pastlarning ko‘ksiga sanchilsin!
Sen esa sevgingni tikaver,
Movutning har bitta qarchiga.

FONUS

Qo‘shiqlar aytaver umidvor,
Muborak muhabbat arshida.
Sen shoir, sen mashshoq, sen sipoh,
Sen osmon qadarcha yelkanim.
Dilsizlar qariga banogoh
O‘tlig‘ bir ishq bo‘lib kelganim.
Chevarim, ilkingda sehr bor.
Qanot ber bir quloch jabduqqa.
Qaydadir Alpomish, Yerziyor,
Chin turkiy qoldimi borliqda?
Eng buyuk, eng go‘zal matonat.
Xoliqning eng nafis bunyodi.
Qon silqib turmasin toabad,
Kashtangga o‘rab qo‘y dunyoni.
Muborak muhabbat arshida,
O mening Berdaqim, Zevarim,
Kuylayver sevingni baxshiday,
Sevgi bu dengizdir chevarim!
Sevgi bu dengizdir chevarim!

Jo‘ramga

Biz edik —
bir qushning ikki qanoti.
Biz edik —
bir daryo yonma-yon qirg‘oq.
“Do‘stlik” deb atardik umrning otin,
Sadoqat, vafodan ketmasdik yiroq.

FONUS

Tor edi ijara uyimiz, ammo
Hech qursa ko'ngillar keng edi, jo'ra.
Yuraklar zil-zambil ko'targan hammol,
Borimiz, yo'g'imiz eski gitara.

Parishon qolarding uzun kechalar,
Ko'ksingda nimadir kurtak urardi.
Men esa to'lg'onib, faqir, bechora,
Ko'nglim kulbasiga hijrat qilardim.

Bilmasdik sevgidan kuyib qolish ne,
Sezmasdik ozurda balqigan baxtni.
U damlar sharobga o'ch emasdim men,
U damlar Hayyomga qilmasdim taqlit.

Ufqda barqutlar bo'lmasdi talosh,
Qamchilab turmasdi berahm taqdir.
Besh mahal sajdaga qo'yar eding bosh,
Labingdan tushmasdi bir qutlug' takbir.

Meni ham suyardi, siylardi Xudo,
Gunohim bor edi garchi yelkamda.
Hamrohim emasdi sertutun sigor,
Jahannam yonmasdi mening o'pkamda,

Tushda ham ko'rmasdik qay bir so'qmoqda,
Ayrilib ketishin bizning manzillar.
Kech kuzgi yaproqday uzoq-uzoqdan,

FONUS

Silkinib qolishin mustajob qo‘llar.

Bizlarni bu dunyo ayrolar etdi,
Va oxir ag‘yorem hun oldi so‘rab.
Shukurkim, sen Haqning yo‘lidan ketding,
Men esa Shaytonga aldandim, jo‘ra.

O‘zim haqimda adabiy portret

She‘r o‘qiyman,
to tongga qadar,
Visol, sevgi, shirin g‘ussalar.
Ko‘z oldimda nokas oyoqlar,
Ezg‘ilagan sho‘rlik maysalar.
She‘r o‘qiyman,
sayroq qushlarning
Ozod va xur parvozi haqda.
Ko‘z oldimda afg‘on qushlari,
Jon beradi so‘lgan daraxtda.
She‘r o‘qiyman,
bobom Alpomish!
Gerdayaman, biz alplar o‘g‘li!
Ko‘z oldimda na bir Kuntug‘mish,
Na bir Rustam, na bir Go‘ro‘g‘li.
She‘r o‘qiyman,
oliy tuyg‘ular:
Iymon, insof, mehr-muruvvat.
Ko‘z oldimda og‘a-inilar,
Bir-biriga qilmaydi shafqat.

FONUS

She'r o'qiyman,
olam nurafshon,
Qalblar toza, osmon musaffo.
Ko'z oldimda turibdi ravshan,
Shoqollarga qalashgan dunyo.
She'r o'qiyman,
qayta va qayta,
Chalinadi baland chapaklar.
Ko'z oldimda abad chapaklar,
Padariga lanat chapaklar.
She'r o'qiyman,
zamonni alqab,
Barchasiga yumgancha ko'zni.
Titramayman hech bir varaqda,
She'r o'qiyman shoir deb o'zni...

Boysaribiyding aytganlari

(Farrux baxshi kuylaganda..)

Yuragimda ko'pdir alamli dardlar.
Qavm-qarindosh aytding menga bir gaplar.
O'z nomusin bulg'aydima jo'maradlar?
Qizing ber deb mening ko'nglim bo'lasan,
Mening qizim sening singling nomardlar!

Har umrding bir savdosi bo'lmayma?
Xudo bersa ikkala ko'z ko'rmayma?
Egilganding qalovlari so'nmayma?

FONUS

O‘z bekiga shuytib tursa o‘z begim,
Menday ota nomus qilib o‘lmayma?

Boshg‘a tushdi Surxaylding kulfati,
Ado bo‘lmay musofirlik g‘urbati,
Ertamatan tugar alpting muxlati,
Manov elda sharmadamdi qilding-ku!
Sazong shumi o‘n ming uyli ulfatim?

Chilvir cho‘lda jiydig‘an non-tuzim jo‘q.
Narmodalar to‘lg‘on elda to‘zim jo‘q.
Bir qizim bor qolodig‘an izim jo‘q.
Ey Yartiboy, qudaliqdan so‘z aytma!
Qalmoqlarg‘a beradig‘an qizim jo‘q!

O‘z elimda boy edim ham shoy edim.
Kosam to‘la, og‘zim to‘la moy edim.
Har g‘irotdan o‘zadirg‘on toy edim.
Zakot bilib bitta tirriq uluqti,
Izza bo‘ldim, tuvri yo‘ldan toyidim.

Urayinma peshonamga qamchindi?
Qizim mening yuragimdan parchindi.
Nasixating yolg‘on bo‘lsa ayt chindi.
Avlodlarga bul nasoqti qoldirma.
Elim bo‘lsang uzat dema Barchindi!
Mening qizim sening singling nomardlar!

Kuzak

Kuzak – sen anqoning ikki qanoti,
Kuzak – sen ko‘ksimga in qurgan g‘ussa.
Kunlarni tasbehday o‘giran otin,
Tadosi yirtilgan bangi darveshsan.

Kuzak – sen dahrni kuydirgan olov,
Kuzak – sen isyonga chorlayotgan qur.
Poygakda pishqirib tepingan bedov,
Kuzak sen bir kosa obi antahur.

Kuzak – sen tug‘ilmoq yo mubham o‘lmoq?!
Kuzak – sen ro‘ylarning sarg‘arganlari.
Sen va men dunyoga begonamiz, oh!
She’rimga inmagan ma’nisan... ma’ni...

Qanotin yozadir beminnat,
Nigohlar bir yaydoq ko‘kka tashlanar.
Ayro dard, ayro baxt, ayrilgan qismat,
Bu axir...
biz emas...
axir...
boshqalar...

Oxorin unutgan lablarda sukut,
Lablarki qaqragan, ishqqa tashnalar.
Ayro hun, ayro dun, ayrilgan vujud,
Bu axir...

FONUS

biz emas...
axir...
boshqalar...

Yuraklar to'rida entikar qayg'u...
Ishqsizga har o'tgan bulut tosh qalar.
Ayro tush, ayro xush, ayrilgan orzu,
Bu axir...
biz emas...
axir...
boshqalar...

Mevalar uzilgan, g'olib Azozil,
O, nahot, kor qilmas tam'a-dashnalar.
Ayro qo'l, ayro yo'l, ayrilgan manzil,
Bu axir...
biz emas...
axir...
boshqalar...

Bir finjon qahva

Kel, bugun sevgilim, qolaylik yolg'iz,
Sog'inchga termulib, og'rib ketdi jon.
Qahva olib keldim
Endi ikkimiz,
Qahva ichamizmi , bir - ikki finjon?

Go'yo xazinani topgan sayyohdek,
Termulib turaman kiprik qoqmasdan.
Sen esa uyalib boshingni egib,
Ko'zingni olasan menga boqmasdan.

Yanoqlar, har kecha ko'z yoshlar totdi,
Ashkingdek yurakdan yot bo'lmaydi u.
Qahva sevgi kabi shirin bo'ladi ,

FONUS

Ammo sevgi kabi mast qilmaydi u.

Kel – bugun do‘stlardek suhbat quraylik,
Go‘yo sevmaganman seni hech qachon.
Qasamlar ichmasdan ,
Qahva ichaylik,
Ko‘p emas,
bor yo‘g‘i
bir-ikki finjon.

Zilola Begimqulova

Gulxayri

Gulxayri-yo, gulxayri,
Yig‘lamagin qo‘y mayli.
Hajri, ganji qiynagay,
Sen Laylimi-men Layli.
Gulxayri-yo, gulxayri,
Tebranmagin qo‘y mayli.
Qara qanday yaqinmiz,
Ishq savdosi tufayli.

Gulxayri-yo, gulxayri,
O‘rtanmagin qo‘y mayli.
Ikkimizga barobar,
Yetgay Allohning hayri.

Tug‘ilish

Oy to‘lmish, kun to‘lmish, to‘lmoqda vaqt ham,

FONUS

To'rt devor ichrakim, mudragay millar.
Esonlik so'ragan qo'llaring tolmish,
Momojon ko'zingda bo'g'ilar Nillar.

Gursillab ketgaymi samo peshtoqi,
Uzilib boshingga tushgaymi osmon.
Boradir, keladir... Oyoqlar og'ir,
Buncha hayallading, xazrati inson!

Bir paytlar senga ham bo'lishgan intiq,
Bardoshing qachondir qilgay tantana.
Dilingda ko'p gap bor, chiqmas tilingga,
Faqat, bir so'z deding: „Kechiring ona!"

Qayda qolib ketdi dunyo tizgining,
Buncha aylantirding oxir kalomni.
Ma'qul edi asli toshla ezganing,
Andisha bo'g'armi aytchi nolangni.

Borliqni buzsaying, topilsa iloj,
Qachon ko'ringaydir ko'zing qarosi.
Qayg'umi oxiring va yoki quvonch,
Bunda bir qadamki eshik orasi.

Joningga botmagay eng shirin luqma,
Kutgaysan quyoshdek shirin kalomni.
Momojon, tanangda tonggi tuz kuchi,
Quvvat deb ataysan botmas taomni.

FONUS

Yana aytilgaydir ko‘hna ul alyor,
Dunyoning dardlar asli o‘tkinchi.
Nihoyat nasibdur muborak diydor,
Suyunchi beringlar, endi suyunchi!...

Yorijon

Yorijon, ko‘zlarim nigoro,
Senmi, ayt yoki men bevafo.
Hijronlar jonlarni o‘rtaydi,
Urdilar bizni, voh, bexato.

Qoshmidi qaroshmi qayrilgan,
Bir bizmi dunyoda ayrilgan.
Sochdan to tirnoqqa evrilgan,
Etmadi hech kasbki bir ma'no.

Iqrorda bu tilim, tilimdir,
Va yoki bu dilim tilimdir.
Bir jonga bir bora o‘limdir,
Bir sango, bir mango jon fido.

Gulmiki qo‘lingda gullagan,
Kulmiki qo‘lingga to‘lmagan,
Ming qasdkı, bir bora o‘lmagan
Oxlar-a oshiyon, bu fano.

Hayolim, xayoling erkalay,
Kim borki, bu ishni eplagay.

FONUS

Qo‘yki, bu kishanni nimalay,
O‘zingsan har nega rahnamo.

Nastarin

Nastarin, navnihol navligim,
Nomingga noma yo‘q, holbukim.
Boshiga bolishsan borsa kim,
Sening guling siyoh,
Mening dilim.

Dunyoying shu qadar tormidi?
Savdosi bo‘ynima dormidi?
Talashib, tortganim ormidi?

Sening guling siyoh,
Mening dilim.

Bo‘yginam bo‘yingga yetmasmi?
Sen tegsang dil dog‘im ketmasmi?
Ikkimiz tirnog‘u, etmasmi?

Sening guling siyoh,
Mening dilim.

Osmoning oxiri po‘rtana,
Ko‘nglima ko‘nmasdan o‘rtana.
Tor ko‘ngil sig‘magan tor tana,

Sening guling siyoh,
Mening dilim.

Ketgayman tashvishga qorilib,
Azobim guling-da sovrilib.
Ne topdim yoningda yorilib,

Sening guling siyoh,

FONUS

Mening dilim.

Sarhisob

Yillarim, oq-qora yillarim...
Eslasam olovga otguday.
Qirq tutam belidan bog‘labon,
Bir qilib bozorga sotguday.

Kunlarim oh, o‘sha kunlarim
Armonni opichgan ohuday.
Liq kosa. Tun yarim, dil yarim
Diydirab diyda ob sochguday.

Mashaqqat--ustozim azaldan
Mehnatda tolibin topguday.
Tangridan bir tongni so‘rovdim
Barini bir qilib yopguday.

G‘aming ul g‘animday g‘ashladi,
Quvonch ham quvnadi qovchinday.
O‘ynoqlab o‘yinin boshlovdi,
Ko‘rindi ko‘zimga yov chinday.

Yo pirim. Pirlaring madadkor,
Bariga bas kelsam Barchinday.
Zanglatma zamimni, ey zunnor,

FONUS

Bo‘ynimni boylama zanjirday.

Bir quyosh ko‘tardi boshini
Sharq chiqib bag‘ringa botguday.
Unumdor edingmi o‘o‘v ko‘ksim,
Ko‘kaying ko‘karib ketguday.

Ne derdim, har kunim har xil ob,
Loyqami yo zilol to‘lqinday.
Zaminga ziyo ber, ma'rifat,
Toabad hukmron yolqinday.
Zaminga ziyo ber, ma'rifat,
Toabad hukmron yolqinday.

Ona tilim

Ona tilim, sen bilan,
Buloqdek ko‘z ochmisham
Bitmisham nominggaki,
Yangi noma bitmisham.

„Avesto" ning qatlarida,
Mol terig‘a jo bo‘lib.
Alhol bugun kitoblardan,
Zarhal siyoh oqmisham.

Toshlarning tosh bag‘rida,
To‘n kiyib „To‘nyuquq"ing.
Bilga Xoqon bilgani,

FONUS

Barchaga ma'lummisham.

Har soʻzi devon erur,
Sen oqsang gar qonida.
Koʻshk bichar Qoshgʻariylar,
Lugʻatlari turkmisham.

Haqqa xos Hojiblari,
Taʼbir tush vojiblari.
Ilm ilib iliklari,
„Qutadgʻu bilig“ misham.

Asli turkiy ravzasi,
Navoiyning „Xamsa“si.
Ul ham Alloh bandasi,
„Hayrat-ul abror“misham.

Asri yarim koʻzgusi,
Butun ochun bilgusi.
Hindistondan oʻtgusi,
Nomaki Boburmisham.

Sehring tuydim anvoyi,
Bul ham tangri fatvoyi.
Ravnaqing topsa joyin,
Qoʻlingga tushmas kishan.
Ona tilim, sen bilan
Buloqdek koʻz ochmisham.

FONUS

Da'vo qilsam birgina davo.
Meni menga hadya et, tangrim
O'zgasini ko'rmagin ravo.

Barmog'imga bolishlar ochun,
Nigohimda ishqning olovi.
Meni sendek suymoqlik uchun
Qodirmikan boshqa birovi?

Turtkilaydi yelkamni yakun,
Iztirobning izni izvoshda.
Haqdan haqli yangrasa hukum,
Umr ketmas devor suvashga.

Charx uradi chapani hislar,
Jindek jonda jinlarning bazmi.

Hazil she'r

Bilmam, bekor qoldimmi,
Yoki bo'lganman bedor?
Kecha bir yangilikdan
Bo'lib qoldim xabardor.
Telefonni titgan shu
Vaqtimga sal kuysamda.
Ko'ngilda hech tuymagan
Ajib isyon tuydimda.
Aytishicha, bizning bu
Jamiyat adolatsiz.

Erkak uchsa supermen,
Ayol uchsa yalmog'iz!
Supurgida umrini
O'tkazib ham yalmog'iz
Bunday aqlli gapni

Kulgan kuygu (hazil she'r)

Ko'ngil qurg'ur mo'rt edi,
Mo'rt chiqdida tishlarim.
Oldda bir tishim sinib,
Ortga ketdi ishlarim.
Kulsam, joyi ko'rinar,
Ko'zlarim nam tortadi.
Birov tishdan gapirsa,
Dardim battar ortadi.
Bo'lmay qoldim begoyim.
Hasrat qildim begimga.
„--Ozroq chida onasi
Pul yo'qdir cho'ntagimda".
E voh, endi ne bo'lar?
Ming o'lib, ming tirildim.
Nahot, go'zal xonimlar
Ro'yxatidan urildim?!
Or qilardim o'zimni
Ko'zguda ham ko'rgani,
Birov chaqirsa chiqmay
Hattoki hol so'rgani.
Mendek miskin yo'q edi

FONUS

Noshukurcha xayolda
Onam eshitsalar gar,
Qulogʻiga malolda.
Tish doktori sogʻ boʻlsin.
Oxir topdik ilojin.
Sun'iy tishla boʻlsa-da,
Ogʻzim yoydi qulochin.
Tishsiz qolsam ne boʻpti?
Sababmasdir oʻlgani.
Tishsiz boʻlsa ham ogʻiz,
Til aylansa boʻlgani!

Nasiba Boshmanova

Manga...

*(Boburning "Keltursa yuz baloni oʻshal bevafo
manga" gʻazaliga nazira)*

Keltursa yuz baloni oʻshal bevafo manga,
Ul dardim erur netay, aslo yoʻq davo manga.
Jonimgʻa oʻt yoqadur, rahm qilmagʻay ohkim,
Koʻnglumgʻa umid, najot bergin ey, samo manga.
Hajrida yongan dilim shikasta, forigʻ emas,
Vale, safodin gʻami oro, dilkusho manga.
Bir boqishi xujasta etgʻay, rifʻatdir qalbim,
Vujudim qiynaladur, boʻlmagʻay saxo manga.
Mardud oshigʻini diydoridin etur mahrum,
Bilmas ul birla havo boʻlgʻay sumanboʻ manga.
Sarosarmen, telbamen ishqida pariroyning,
Jovidon husnin madhi har nedan avlo manga.

FONUS

Bobur, dilxohingdin mudom kechma o‘tur bari,
Dardni ko‘targ‘uvchiman, ul yor dard paymo manga!

Sarosim

Yuragim qa‘rida g‘ashlik bor,
G‘ashlikki, jonimga tig‘ qadar.
Darbadar hislarim haqqi, oh
Dardimni insonlar baxt atar,
Naqadar ayanchli naqadar...

Kulaman sochilar kulgumdan
Qadrimdek sarosar armonlar.
Ey, qalbim, sinov bu - arosat,
Iymonlan, iymon-la iymonlan.

Bo‘g‘zimga tiqilar kalima,
Zum o‘tmay yiqilar o‘zligim.
Ovozim chiqmaydi, yo Xudo!

Diyora Hatamova

Maktub

Maktabning erkatoy farzandi edik,
Shirin orzularning ajib hamrohi.
Dars qilmay sho‘xliklar qilgan chog‘larda,
Ustozlar dakkisin eshitdik gohi.
Bilaman sening ham hamon yodingda,
“Munshaot”laringga bitib qo‘ygansan.
Kimyodan tosh tuzin aytganing uchun,
“Toshli tuzlar”ingga shu kun to‘ygansan.
Xayolning mavjlangan ummoni ichra,
To‘lqinlar bag‘rida suzib borarman.

FONUS

Bugun birinchi bor senga xatimda,
Uyalmay, bemalol ko'ngil yorarman.
Yoniq xotiralar ko'kda charx urar,
Esimda hammasi aniq esimda.
O'tkinchi naysonday taloshlar bo'ldim,
Vodariq', shuncha g'am bitta jismda.
Sog'inchim sabrimdan ustunlik qildi,
Nimadir matonat?
Nimadir toqat?
Bu kecha o'tmishning yoniga keldim,
Yaqinim, sen uchun yozmoqdaman xat...

Dadajonim

“Ona qizim” deya men erkalaysiz
Dunyolarga alishmagan bir jahonim.
Sizsiz menga bu umrnig tarhi kemptik,
Salobatli azim tog'im - dadajonim.

Oilamiz ustun- toqi o'zingizsiz,
Siz borsizki, yashayapman yo'q armonim.
Ollohingga shukronalar aytadirman,
Mehrga kon, so'lim bog'im - dadajonim.

Oltin-zarlar qadsizdir, siz borsizku
O'zingizsiz boyliklarim, sharaf-shonim.
Baxtlar ichra topgan ulkan baxtimdirliz
Yo'llarimga shamchirog'im - dadajonim.

Hushtak

(A.Qahhor fikri asosida)

Doimgidek ko'chada,
Avtolar yelar g'ir-g'ir.
Sariq chiroq yonganda,
Yo'l kesib o'tdi kimdir.

Darrov hushtak chalindi,
Jarima yozdi hodim.
Men esa o'ylab ketdim,
O'zligimning ahvolin.

Yo'l qoidasin buzganga,

FONUS

Chora ko‘rib tolmaysiz.
Til qoidasin buzganga
Nega chora ko‘rmaysiz?

Dilnura Egamberdiyeva

Kuz ta‘rifida

Mudragan bog‘larni uyg‘otmoq lozim,
Osmonga aytganim-fig‘onim yetdi.
Yomg‘ir kunda bir o‘ktam ovozim,
Charx urdi.
U endi kech kuzgi epkin.
Bahorga intizor, charxi dunda u
To‘zg‘idi.
To‘zg‘idi sarafroz ko‘nglim.
Kuz esa sabrimga soladir qutqu,
Sarg‘aygan umidlar kosasi lim-lim.
Abrlar mahf etgan osmonning toqi,
Kiftimga zalvorlar tashladi, hayhot.
Bir lahza xazonning aksiga boqib.
Bu ulkan hislarga izlayman najot.

Vazira Temirova

Ona yurtim

Ozod yurtim,ostonangni o‘pay sening,
Tuprog‘ingni tillolarga alishmasman .
Bag‘rim to‘lib bahoringni topay sening,
Go‘zalliging hech kim bilan bo‘lishmasman.
Ozod yurtim ostonangdan o‘pay sening,

FONUS

Qiyoslashga ojiz qalam kuyar dilim.
Butun umr madhing aytib o‘tay sening,
“Sen” deganda buyuklikni tuyar dilim.

Ozod yurtim ostonangdan o‘pay sening,
Dardlarimga darmonim sen iftixorim .
Ishqing bilan orom olib, yonay sening,
Xiyol ketsam sog‘inganim dil xumorim.

Ozod yurtim ostonangdan o‘pay sening,
Ko‘z tegmasin yosh avlodning g‘ayratiga.
Baxtim kulib poyingga tiz cho‘kay sening,
Joinim fido shu Vatanning shiddatiga .

Hilola Abdug‘afforova

Baxt

Keldi yana ko‘nglimga bahor,
Ayriliqdan so‘zlama hech vaqt
Bòlgin tanxo o‘zing poyidor,
Yolg‘izlikka tashlamagin baxt.

O‘ylarimning qadrlisi sen,
Duolarim ro‘yobidan taxt,
Sinovlardan to‘yib ketganman.
Yuragimni g‘ashlamagin baxt.

Yaratganga shukrona aytib,

FONUS

Saodatga yetaylik birdam.
Qaro kunda ortingga qaytib,
Firog'ingni boshlamagin baxt.

Muhabbating yuragim naqshi,
Mushtoq etma nigohlaringga.
Mening uchun har nedan yaxshi,
O'zgasini izlamagin baxt..

Yulduz Nadirova

Hayot

Bir bora men uchun kulib qo'y, hayot.
Noumid bo'lmayin dunyodan bezib,
Ko'zlarim kularkan baxtlidek go'yo,
Qalbimda chilparchin umidlar yesir.

O'tkazgan umringa achinmagayman,
O'tmishim shamollar uchirgan xazon.
Lekin sukunatga evrilgan joyda,
Gohida yig'lashni istarkan ison.

Shumidi men bilgan dunyoning yorug',
O'ngimda aylagan navozishlari.
Bir-bir kechib o'tdim qilgan qulluq,
Qahraton qishlarin, purg'am qishlarin.

Ovozim boricha baqirolsaydim,
Xokisor jismimni tark etib bir zum.

FONUS

Tomog'im bo'g'ilib tildan qolsaydim,
Qarshimda yo'qligin anglasa ochun.

O'zbekiston yoshlari

Bayrog'ini ular ushlaydi mahkam,
Ko'klarga ko'tarib yuradi bardam,
Barchani maqsadga boshlaydi har dam.
Chaqnab turar ularning har on ko'zlari,
Yangi O'zbekiston yoshlaridir, yoshlari.

Erta-yu kech ishlaydi tinmasdan dadil,
O'qish, uqish chog'ida ular mustaqil.
Yigitlari baquvvat hattoki sherdil.
Dona dona aytgan har bir so'zlari,
Yangi O'zbekiston yoshlaridir , yoshlari.

Kitobni qo'lidan qo'ymaydi har kun,
Sport bilan shug'ullanar erta yo bugun.
Omadi chopgandir yo'llarida yo'q tugun,
Oila vatanning ular yuzlari.
Yangi O'zbekiston yoshlaridir,
Yoshlari!

Har sohada mustaqil har on har qachon.
Ularga hamnafas dunyo va zamon.
Marra sari intilar yo'llari ravon,
O'zlarini sog'lom sezar o'zlari.
Yangi O'zbekiston yoshlaridir yoshlari!

FONUS

Yurtboshimiz bizlarga beradi yordam,
Kelajakni ko‘zlab tashlaymiz qadam.
Ilm olgin o‘qi deya aytadi onam,
Tengdoshlar safiga qo‘shildim men ham.
Yangi O‘zbekiston yoshlarimiz, yoshlari!

Sevinch Jo‘raboyeva

Ona

Yuragim qayg‘uga botgan onlarda,
Eng go‘zal bahorim, beqiyos gulim.
Xayolim bolsa gar, g‘am tomonlarda,
Mehribonim bor, togirlar yo‘lim.
Ko‘zyoshi yuvganda tovlangan kiprik,
Mehringiz sochganda qurib qoladi.
Hattoki, g‘ussaga cho‘kkanlar tirik,
Onalar sehriga qoyil qoladi.
Yuzimni siladi, mayin shabboda,
Onamning ro‘moli uchib ketmasin.
Novdalar raqsga tushgan saboda
Mehribonim qo‘liga kirib ketmasin.
Yomg‘irning maftunkor sho‘x zamzamasini,
Tuzatar go‘yoki dilim yarasin.
Dengizlar chalganda sokin musiqa,
Baridan go‘zaldir onam allasi.

Bunchalar mehrlil, bunchalar nurli,
Shuncha ezgulikni qaydan olasiz?
Shunchalar sehril, shunchalar durli,
Buncha go‘zallikni qaydan bilasiz?

Oyoqlari ostida jannat nurafshon,
Gullarga burkanar har qadamingiz.
Qiyoslab vatan birla yonma-yon,
Mehr berib, erkalab o‘gil-qizingiz.

Onalar qalbiga tushunib bo‘lmas,
Baxtga aylanadi har qanday qayg‘u.

FONUS

Duosin olmasang yo‘llaring yo‘lmas,
Teng kelmas mehriq hech qanday tuyg‘u.

Mushfiq ko‘zlarining otash navosi,
Bog‘ga aylantirar cho‘lning sahrosin.
Issiq bag‘rlari quyoshdan ziyod,
“Onalar dunyoning zo‘r ixtirosi”!

Sevinch Tursunova

Tabassum qil

Tabassum qil kulgudan yayrasin diling,
Bo‘lmasin ichingda dard-armonlaring,
Jilmayib, hayottan bahra ol, yasha.
Ko‘nglingda qolmasin chang-g‘uborlaring.
Senning kulguyingdan yashnasin olam,
Olam yashnasin-u odam yayrasin,
Yuzingda doimo bo‘lsin tabassum,
Ko‘zlaring har on baxtdan porlasin,
Ey, qadrdon do‘stim shuni bilgin sen.
Doim kulib yasha, zavq ol hayotdan.
Gar tashvish tushsa boshingga,
Alloh bor deya, shodlan shu vaqtdan.

Bahora Xoliqova

Jizzaxim

Ona yurtim O‘zbekiston, zarra tuprog‘ing o‘pay,
Jizzaxim uning parchasi anga bir she‘r to‘qay.
Jizzaximning bog‘u-tog‘i bebahodir men uchun
Sha‘niga men bugun quvnab shu she‘rim o‘qiy.

Forishimning cho‘ng tog‘lari chorlar doim bag‘riga,

FONUS

Aydar ko‘lning boyliklari singib yotar qa‘rida.
Baxmal, Zomin, G‘allaorol Jizzaximning ko‘rkidir,
Ta‘rif bersang ado bo‘lmas-yurtim maskan bariga.

Jizzaxim dongin taratgan mashhur o‘g‘lonlari bor,
Arbob Sharofi-yu Hamid Olimjonlari ham bor.
Bu yurtda tug‘ilmoq o‘zi katta baxt erur bizga,
Tolemiz kulgan-yashaymiz doim shodu baxtiyor.

Diyora Nuriddinova

* * * *

Kel, bir eslaymizmi oltin davrimiz,
Urishib, tortishib o‘tgan vaqtimiz?
Mutolaa yo‘l berdi sof muhabbatga,
Guntekin asari “Choliqushi”miz.

Bilaman juda ko‘p salbiy qahramon,
Lek doim yutadi qalbdagi vijdon.
Senga o‘xshatganim yolg‘iz qahramon,
Sen bilgan qiz o‘sha go‘zal Zulxumor .

Sen mayli Feride, Karenina bo‘l,
Sen meni Pugachyov, Kamrundayin ko‘r.
Qodiriy chizgani sof Kumushim bo‘l,
Ayirmasin bizni Zaynab tutgan yo‘l.

FONUS

HIKOYALAR



Danaksiz o'rik

...– Jin ursin, qattiq og'riyapti. Ishqilib payti kelmadimikan?.. Havo juda sovuq, uy ham uzoqda qolib ketti, yordamga ham hech kimni chaqira olmayman. Umriya xola “kuningiz yaqin, uyda o'tiring...” degandi, gapiga kirsam bo'larkan.

Bahorning ilk kunlari. Shunga qaramay qish bo'yi yog'gan qorlar soya joylarda tarashaday qotgan. Ayniqsa, qirlarning yon-bag'ri; quyosh nuri faqat shag'amday yoritib turishi mumkin, lekin iliqlik bermaydi. Bu yerlarni Qortov deyishadi. Yilda to'rt faslda ham tog'larning uchidagi va nur ko'rmas pana joylaridagi qor erimaydi. Shu qir etagida bir qishloq joylashgan, qishloq odamlari ko'pincha shu yerdan o'tin terishadi. Xuddi qish bahordan o'rnini qizg'anganday kechasi bilan qor yog'ib bergan. Shu qorlar O'z oyoqlari bilan o'tin uchun chiqqan bir ayol qor ustida katta xarsangtoshga suyangancha dod-voy qilardi, og'riqdanmi, sovuqdanmi, balki qo'rquvdan dir-dir titrardi. Kechga qolib ketsangiz bir o'zim qo'rqaman, deb unga qo'shib chiqqan yetti yoshli go'dakning ko'zlari sovuqdan qizarib ketgan. Hali bu ko'zlar nelarni ko'radi. Taqdirdan o'zga hammaga ko'rimsiz qismat...

– Aya, qarang, aya, lola! Lola chiqibdi!!! Qip- qizil, bittagina! Qorlar erishni boshlabdi. Siz nega o'tirib oldingiz?! Gul yoqmadimi...? Uni sizga olib kelgandim, boshqa topa olmadim-da, bittagina chiqibdi.

– O'g'lim, Dushan, o'zim aylanay, gulingdan aylanay, atrofga qara-chi, kimnidir ko'rsang bu yerga chaqir, ayam yig'layapti degin!

– Aya, sizga nima bo'ldi, nega qorningizni ushlayapsiz, qorningiz og'riyaptimi, aya... ayajon!!! Hozir...

Afsuski, atrofda hech kim ko'rinmas, osmon bilan yerning ranglari uyg'unlashib ketgan, qor yana uchqunlar, ammo hali - hanuz sovuqning o'tkir damlari sopiga solinmagan, kamiga kech tushishiga ham hech qancha payt qolmagan. Davriya esa nima qilarini bilmay hayron. Qiz bolami dard ham juda achchiq kelardi. Achchiq- achchiq ko'z yosh to'kardi. Davriya bir muddat sovuqdanmi, og'riqdanmi mudray boshladi, isitmasi ko'tarilib alahsiy boshladi. Bu yerda nima qilyapti o'zi, kecha nimani diliga tugib qo'ygandi...? Barchasi bir-bir xayolida aylana boshladi...

... – Davriya, men ilk ko'rgan ko'zlar, sochlar, kipriklar... Bularni ilk bor ko'rganimda shu qorong'uligingda adashib qolishni istaganman, ular faqat meniki bo'lishini xohlardim, koshki edi u yerdan umrbod chiqmasam derdim.

– E, nimalar demaysiz-a, Davriya ko'zini yumgancha butun umrini, hayotini esladi, bo'yi yetiboq, qishlog'ining eng ko'zga ko'ringan qizi edi, ne-ne

orzulari bor edi, Toshkentlarda o'qimoqchi edi, afsus... Qishloq sharoiti va oilaviy qiyinchiliklar, yetishmovchiliklar bunga yo'l qo'ymasdi. Shokir yetim, lekin harqalay uy-joyi bor, topish-tutishi bir oilani boqa oladi, degan qarashlar bilan Davriyani unga uzatib yubordilar. O'zi unda ko'ngli bormi yo'qmi o'zi ham bilmasdi, unga nisbatan hech nimani his qilmasdi.

– Davriya, bilaman, meni sevmaysan. Senga hech nimaning farqi ham yo'q, bormanmi, yo'qmanmi. Hech nimani bilmaydi, sezmaydi deb o'ylaysanmi?

Davriya jim edi. Biror marta hali eriga tik qaramagan, gapini ikki qilmagan. Och qorinu yuvuqsiz kiyim kiygizmagani. Bular nima ekan unda? Balki shunchaki ayollik vazifasidir. Sevgi... ko'ngil... bularga kelganda hamisha jim. Davriya shularni o'ylab yotardi. Chidolmadimi, erining yonida yig'lagisi kelmadimi, Dushanning usti yuqa ekan, biron nima olib kelaman, degan narsa nariga xonaga chiqib ketdi.

Chidolmadi, yerga o'zini otgan narsalarni yelkalarini siltab-siltab yig'lab yubordi. Alam bilan yig'lardi. Nega erini sevolmasligini tushunolmay yig'lardi. O'ziga tinmay savol berardi :

“ Balki Haydar bo'lmaganida... Yo'q, o'zi u bormidi hayotimda?! Qachondir sevaman deganmidi, ko'zlaring chiroyli deganmidi, hattoki biron joyim og'rib qolsa, ko'ngli sezib qayerda bo'lsa ham qaytib keladigan Shokir akamday edimi, yo'q aslida men uning hayotida yo'q edim. Qadr, sevgi, ishonch- men istagan narsalarni istaganimdan topolmaganim uchun nega boshqalardan alamimni olishim kerak, Shokir akamda nima gunoh, aybi meni sevganimi, ularning baxtli yashashiga haqqilari yo'qmi, Dushanda nima ayb, bir-biriga mehrlil ota-onaning farzandi bo'lishi mumkin emasmi?! Hamma ayb mendami? Unda men bu aybni qanday qildim, qay payt qildim”,- Davriya bu savollar qarshisida jim edi. O'shanda turmushga beraylik deyishsa, hali o'qiyman dedi-yu Haydarni kutdi. Chunki u uylanaman derdi, uylandi. Lekin Davriyaga emas. Keyin Shokir...

Davriya qo'liga cheti singan oynani olib qararkan, eri aytgan ta'riflarning birortasi qolmagan. O'ziga qaramay qo'ygan, doim sovuq yuradigan, hissiz bu ayolni Shokir hali hanuz avvalgidek sevardi. Ayol nafratda edi. Kimdan, nima uchun – hammasi qorong'u savollar... Yoshlarini artarkan, nimalarnidir o'ylardi, ichidan nimalarni o'tkazdi, o'ziga ayon. O'rniga qaytdi.

– Mening nimamni sevasiz?

– Qaniydi shu savolga javob topa olsam!

– Yo'q-yo'q, men jiddiy so'rayapman. Chunki men siz aytgan ta'riflarning hech biriga mos emasman.

– Ayol kishi faqat eri uchun ayoldir, boshqalar buni sezishmasa ham.

Ertaga yoningda qolaman, seni yolg'iz qoldirgim yo'q.

– Yo‘q, kerak emas.

Shokir, Davriya va qismat ertaga nima qilishlari kerakligi haqida o‘ylab uyquga ketti.

– Aya, hech kimni topa olmadim, nega yotib oldingiz, o‘rningizdan turing, charchadingizmi, turing uyga ketamiz. Bolaning siltab gapirishidan Osida o‘ziga keldi.

– Dushan, uyga uchta bo‘lib ketishimiz kerak. Ukang seni ko‘rmoqchi. Kel, yonimga o‘tir, birga ukangning kelishini kutamiz. Sen menga yordam berasan. Axir biz kuchlimiz-ku, tog‘rimi?

– Ukam... U qayerdan keladi, hozir keladimi? Qancha kutamiz? Agar kutmasak nima bo‘ladi?

– Ha, bolam, hozir kelishi kerak, kutishimiz kerak, kelavermasa o‘zimiz yordam berishimiz kerak, bo‘lmasa xafa bo‘ladi, - dedi u to‘xtab –to‘xtab iloji boricha o‘zini tutishga harakat qilib, lekin hansiragan holda,- sen qo‘rqma, ho‘pmi, hali dadang, ukang, sen va men lola terishga chiqamiz, ko‘p kalamiz, qish tugayapti-ku! ...

Davriyaning dardi keldi.

...Yo Xudo, kuchim yetmayapti, -nafas olishi tobora qiyinlashdi, ovozi tiqilib arang gapirardi, - nima qilay? Nima keladi qo‘limdan, ozgina, ozgina ko‘mak bo‘lganida ham amallardim... Bu payti Dushan nima bo‘layotganiga, onasining tinmay baqirib zorlanishiga tushunmay yig‘lamsinib turaverardi.

– Aya, men qo‘rqyapman. Yuring ketaqolaylik... O‘tinni dadamning o‘zi olib keladi.

– Shuncha payt sovuq uyni faqat dadang isitdi, men ham isitmoqchiman, (bu uchun endi hamma narsaga tayyorligini his qilardi)- dedi-yu yarq etib Dushanga qaradi. Dushan... Yo‘q, axir qanday qilib, hali bola-ku u. Uning buni qilishi... Yo‘q, bo‘lmaydi. Davriya bevaqt xayollari va dardi bilan bo‘lib hammasiga ko‘z yumgancha o‘g‘lini chaqirdi.

– Dushan, bu yoqqa kel. Oyog‘imning ostiga, tez bo‘l!

– Aya, qon... Dushan Davriyaning ahvolidan talmovsiragancha qo‘rquvga tushib qoldi. Hamma yoq qon. Onasining oyoqlari orasidan nimaningdir boshi bilinar-bilinmas ko‘rinib turardi. Dushan onasining baqirishidanmi yoki o‘zining ko‘z oldidagi tushinib bo‘lmas holatdanmi faqat yig‘lardi.

– Oyog‘im orasidagi boshni ko‘ryapsanmi?! Yig‘lama, o‘shani asta, ehtiyotlab ushla, o‘zingga tort, eshityapsanmi, tushinyapsanmi meni, faqat qattiq ushlab olma, Ya Alloh! O‘zing kechir,- terlaganidan tamoqlari ham sovuq yeb bo‘g‘ilib qoldi,- yana, yana ozgina tort bolam, ukangni chaqir... Shokir aka!!!

Uch kishining yig'isi qor bosgan dalani larzaga keltirdi. Davriya ilojsizligidan, qismatidan achchiq-achchiq yig'lardi, Dushan qo'rquvdan chinqirib-chinqirib yig'lardi, chaqaloq esa dunyoga kelgani haqida xabar berib yig'lardi. Shu payt Davriyaning ko'zi boya Dushan uzgan lolaning oldida endi gullamoqchi bo'lgan g'unchaga tushdi.

Qor... Uchqunlab Davriyaning yuzlarini silab allalay boshladi. Davriya... Dushan... Shokirning ovozi ularni uzoqdan izlardi.

– Sevgimiz tug'ildi, sezgansiz bilaman...

Aliqulova Shoxista

Sado

Erta bahor. Ko'klam chor-atrofga o'z ta'sirini o'tkazib, ko'm-ko'k payondozini to'shamoqda, natijada borliqda o'zgacha bir dilbar joziba kashf etilmoqda. Quyosh o'zining zarrin, ammo kuchsiz nurlari bilan atrofga iliqlik yoyadi. Shudring bosgan maysa bilan burkangan bo'g' o'rtasida kiyim ilish uchun dor turg'azilgan.

Dorga yuvib quritish maqsadida yoyib qo'yilgan, ammo nam havo tufayli qurishga ulgurmagani bois parashok hidi ufurib turgan kiyimlarni shoshib yig'aman. Shoshilishimning sababi o'sha vaqtda men maktabda, sakkizinchi sinfda ikkinchi smenada o'qiyman. Darslar tushki payt soat birda boshlanadi va hozir soat allaqachon o'ndan yigirma yetti daqiqani ko'rsatyapti.,,Vaqt allamahol bo'ldi. Men esa hali darsga tayyor emasman. Adabiyot, matematika, geografiya... Ehhe, qancha vazifalarim bor qilinmagan. Tezlashishim kerak, "-deb xayolimdan o'tkazaman va shu o'y-xayollar og'ushida dordan uygacha bo'lgan yigirma besh metrcha masofani qanday bosib o'tganimni sezmay ham qolaman. Uy ichiga kirib bajarilishini kutib, xontaxta ustida yoyilib yotgan darslik kitoblarim yoniga o'tiraman. Endi kitob varaqlashni boshlagan paytim televizor oldida turgan telefon jiringlab qoldi. Go'shakni olib qulog'imga yaqin tutdim.

– Alo, qizim yaxshimisan? -degan ayol kishining xorg'in ovozi eshitildi. Bu ovozdan qo'ng'iroq egasi qo'shnimiz Muhabbat aya ekanligini darrov angladim.

Muhabbat aya qiziga qo'ng'roq qilib tusha olmaganligini, agarda men telefonni qiziga yetkazib bersam qizi bilan gaplashib olmoqchi ekanini aytib qo'ng'rog'ining boisini tushuntirdi. Bir zum sukunat bilan jim qoldim. O'sha onda miyyamda ,, Ozgina bo'lsa ham foydang tegadi. Yaxshilik-ku... Bor go'shakni

yetqaz. “va unga qarama-qarshi „o‘zi shuncha ishing bor darsga kechikasan. Fursat g‘animat” -degan ikki xildagi fikrlar aylanardi.

Meni ikkinchi o‘y-xayolim o‘ziga og‘dirib oldi. Muhabbat ayaga uyda emasligimni aytdim. Aldadim. Hozir o‘sha badxuq ishimni eslasam o‘zimdanda nafratlanib ketaman. Chunki Muhabbat aya telefon qilgan vaqtda kasalxonada davolanayotgan ekan. Men yetkazgan go‘shak ona-bola o‘rtasidagi so‘nggi suhbat bo‘lishi mumkin ekanligini men hatto xayolimga ham keltirmagan edim. Qo‘shnimiz jon omonatini topshirganini eshitgan kunimdan beri ich-ichimdan bir tuyg‘u yuragimni kemiradi.

Ming afsus-nadomadlar ichida yonaman. Ammo so‘nggi pushaymon o‘zinga dushman. Vaqt allaqachon o‘z hukmini aytib bo‘lgan. Mening vujudimda bo‘lsa armonni yodga solib turuvchi bir sado- vijdon azobi qolib ketdi.

Xaitboyeva O‘g‘iloy

Publitsistik maqolalar

“Yillar insondan chiroyini, kuch-quvvatni olishi mumkin, ammo ijodni qalbdagi nekbin tuyg‘ularni yana ham oshirib barkamol qiladi”.



Iste'dodning ming bir jilosi

Necha asrlar davomida qancha shonli va qonli kunlarni boshidan kechirgan buyuk xalqimizning tarixiy o'tmishi va uning adabiyoti qanchalik boy va yuksak bo'lganidek, hozirgi davr o'zbek adabiyoti ham o'zining ko'plab yorqin iste'dodlari bilan alohida ajralib turadi. Ana shunday nodir talant sohibalaridan biri - O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Jizzax viloyat bo'limi rahbari, xalqimizning sevimli shoirasi, serqirra ijodkor, iste'dodli yozuvchi Mehribon Abdurahmonovadir.

XX asr va Istiqlol davri o'zbek adabiyoti yorqin iste'dodlarga boyligi va janrlar rang-barangligi bilan ham e'tiborga loyiqdir. Bu davr Jizzax adabiy muhitining yorqin bir sahifasini, shak-shubhasiz, hassos shoira, iqtidorli yozuvchi Mehribon Abdurahmonova salmoqli asarlari va serqirra ijodi tashkil etadi. O'tgan asr oxirgi choraglarida Turob Maqsud, Abdulla Ahmad, Sayyora To'ychiyeva, Shahlo Ahrorova singari bir guruh talantli ijodkor yoshlar qatorida Mehribon Abdurahmonova ham adabiyot maydoniga kirib keldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Mehribon Abdurahmonovaning dastlabki she'rlarida ham va keyinchalik ijodiy kamolotga yetishgan davridagi asarlarida ham asosiy o'rin tutgan muqaddas mavzulardan biri-bu ona - Vatan madhini kuylash bo'lgan. Shoiraning ilk ijodi namunalari va kitobxonlarga birin-ketin taqdim etilgan yangi to'plamlaridagi g'oyaviy mazmuni jihatidan bir-birini to'ldiruvchi yuzlab she'r va asarlarining Vatan va uning tabiat go'zalliklari bilan bog'liq "Kuz", "Natyurmort", "Ishq nafasi", "Xushxabar" hamda "Qizcha, quyosh va yulduzlar haqida qo'shiq" kabi salmoqdor sarlavhalar bilan nomlanishining o'zi ham xalqchilik va milliylikning isboti bo'la oladi. O'zining butun hayoti va baxt-iqbolini Vatandan ayro tasavvur etolmaydigan shoira she'riyatining manbai va shoirona ilhomi ham shu Vatan va xalqi bilan to'kis bo'lishini faxr bilan kuylashni ijodining asosiy g'oyaviy leytmotivi va mazmun yo'nalishi deb biladi. U o'zining

butun talanti va ijodini adabiyotga va shu yo‘l bilan xalqqa xizmat qilishga bag‘ishlab kelmoqda.

Muallifning nasriy asarlari ham lirik asarlari singari poetik jihatdan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Misol uchun, adibaning “Gulzor qishlog‘ining gulduraklari” qissasi ham qahramon ruhiyatining ochib berilishi, sujet va kompozitsiyaning betakror tarzidaligi hamda tasvirning yangichaligi bilan alohida e‘tiborga loyiq. Qissaning ichki “Musajon – baliqchi”, “Musajon – “biznesmen”, “Xidirovning qidiruv harakatlari”, “Tushuntirish xati”, “Och qoringa achchiq qalampir”, “Homid pochchay”, “Tinchlik ko‘chasi”, “Oyposhsha opoy”, “Oftobro‘y kunlar” kabi kichik sarlavhalarga ajratilishi ham qahramon ruhiyatining batafsil ochilishiga hamda asar voqealarining kitobxon uchun tuhsunarligining ta‘minlanishiga xizmat qilishi barobarida, asar kompozitsiyasining rang-baragligini ham oshirishga xizmat qilgan.

Asarda makon va zamon masalalarining yoritilishiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, unda ilk mustaqillik yillaridagi ijtimoiy tanglik, iqtisodiy qiyinchiliklar bosh qahramon Musajon ruhiyati va kundalik hayot tarzi, o‘y-kechinmalari oqimida ochib berilgan. Qishloqdagi oddiy insonlarning kechmishlari Homid pochchay, Jumagul checha, Abdurasul, Oyposhsha opoy, Gulmurod kabi obrazlar tasviri orqali aks ettirilgan.

Ushbu asarning xalqonaligi shundaki, har bir qahramon tasvirida muallif qishloq odamlarining chapanligi hamda ko‘pam ortiqcha bezaklarga e‘tibor beravermasligi hamda oddiy va kamtarona hayot tarzini kutilmagan poetik epizodlarda yoritib berganligini kuzatishimiz mumkin.

Muallif har bir obrazning individual xususiyatlarini aks ettirishda uning xarakter xususiyatidan kelib chiqib yondashganligi ham asar badiiyatining yuksalishiga xizmat qilgan.

“Chindanam, aynan «alkash» degan suyak–suyagini sirqiratib yuborguvchi, la‘natday yoqasiga yopishuvchi bu qarg‘ishga o‘xshagan xitobdan qutulib qolgan Musajonning ko‘ngli yumshadi, tomog‘iga achchiq yosh tiqilib qult etib yutindi.

Hatto biroz kulgusi ham kelganini his qilib, yerga qarab yolgʻondakam yoʻtalib, yo oʻzini oʻzi aldab qoʻydi, yo opasini chalgʻitdi.

– Oh, Xolmatxoʻja, otajonim... Oh, Ziraxol, onajonim!.. Bolam – boʻtam, dedilaring, ne b...larni yedilaring bu tirikuyuklarni oʻqitaman deb. Mana ahvollari... Burunning qoniday qip–qizil diplomlar sandiqlarning irgasida kuyadori sasib yotsa, men kuymay kim kuysin. Undan koʻra meni oʻqitmaysilarmi, shu vaqti hoʻkimatning bitta istoʻlini egallab, yoʻlimdan chiqqanning barini poʻsht– poʻsht qilib yurardim...

Doim shunday... Musajon opasining bu diydiyolariga oʻrganib qolgan. Yana birpas chidasa oʻtib ketadi. Ayuhannos koʻtargan opajoni oʻziga kelib, koʻzidagi oʻynab turgan ajinalar uyalariga berkinib olishsa, undan yaxshi odam yoʻq. Qaqaguli bir ochilsa bormi, kulgusi bilan olamni yashartirib yuboradi..." – shu kabi tasvirlar orqali oddiy inson ruhiy dunyosining nechogʻlik keng va rang-barang ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Qish tuni. Mudrardi koʻngil koʻngilsiz,

Yirtigʻini yamab qalin choklarda.

Tuyqus tuynugini qoqdi xushxabar:

"Seni uchiraman halinchaklarda".

Hassos ijodkor Abdurahmonovanning yuqoridagi kabi purmaʻno satrlar bilan boshlangan "Xushxabar" sheʻri ham nazarimdan qolmadi.

Har bir insonning qalbida koʻtarilish va tushishlar, umid va umidsizliklar, quvonch va qaygʻular zanjiri mavjud. Ammo baʻzida kutilmaganda hayotimizda bir xabar, bir ovoz, yoki bir tuygʻu paydo boʻladi-yu, koʻnglimizda yangi bahor boshlanadi. "Xushxabar" deb nomlangan ushbu sheʻrda shunday oʻzgarish va yangilanish jarayoni juda taʻsirchan tarzda ifodalangan. Undagi har bir satr koʻngilga ruhiy kuch bagʻishlab, insonni falsafiy mulohazalarga chorlaydi.

Qirq yil qahratonda qaqshagan dilga,

Bahorlar bostirib kirdi nogahon.

She'ning ilk qatorlari sovuq qahratonni tasvirlaydi – bu faqat tabiat emas, balki inson qalbining ham muzlagan, umidsiz holatini ifodalaydi. "Qirq yil qahratonda qaqshagan dilga" iborasi insonning uzoq davom etgan og'ir kechinmalarini yoritadi. Ammo xushxabar – kutilmagan o'zgarish belgisi – bu muzlikni eritadi. Bahorning bostirib kelishi tasodif emas. Bu, aslida, inson hayotidagi yangi boshlanishlarning ramzi.

“Ishqning bog‘larida halinchak uchdi” satrining keltirilishi she'ning eng yorqin nuqtalaridan biri. Halinchak obrazi esa bu she'ning kulminatsiyasi. Halinchak – oddiy bir o'yin asbobi bo'lib tuyulsa-da, bu yerda u ishqning nozik va muvozanatli tabiatini ifodalaydi. “Halinchak iplari ishqdan o‘rilgan” qatori ishqning inson hayotidagi ulkan ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu obraz inson ruhining yuqoriga ko‘tarilishi va o‘z erkinligini his qilish jarayonini yoritadi. Ammo bu halinchak qanchalik baland uchsa, shunchalik mo‘rt va nozik ekanligini ham unutmaslik lozim. Ishqning barqarorligi – osmon va yer muvozanati kabi – nozik iplar bilan ushlab turiladi. She'rd muallif nafaqat his-tuyg‘ularni ifodalaydi, balki hayotning chuqur falsafiy haqiqatlarini ham yoritadi. “Uzilsa, qulaydi osmon toqidan, yiqilsa, yorilib ketadi zamin” qatorlari hayotimizdagi har bir kichik o'zgarishning qanday katta oqibatlarga olib kelishi mumkinligini eslatadi. Bu insonning hayotdagi tanlovlari va mas'uliyatining ramzi bo'lib xizmat qiladi. She'r oxirida yana tush va uyg'onish motivlari qayta paydo bo'ladi. “Bari tush” degan so'zlar bilan muallif voqelik va hayotot chegaralarini ko'rsatadi. Ammo oxirida yana bir tanish ovoz kelib, halinchakda uchishni va'da qiladi. Bu, aslida, umid va orzularning qaytishini ifodalaydi. She'r inson qalbidagi eng nozik hislar – umid, muhabbat, va hayotga bo'lgan ishonchni qayta uyg'otishga qaratilgan.

“Xushxabar” she'ri inson qalbidagi umid uchqunlarini yoqadi, uni falsafiy chuqurlik va nozik his-tuyg‘ular bilan boyitadi. Unda qahraton va bahor, tush va haqiqat, umidsizlik va umid birlashib, hayotning murakkab, lekin go‘zal manzarasini yaratadi. Halinchak – bu nafaqat ishqning ramzi, balki inson ruhining erkinligi va ichki kuchining ham ifodasi. Ushbu she'r har bir o'quvchini o'z

qalbiga nazar tashlashga, undagi muzliklarni eritib, yangi bahorlarni kutib olishga chorlaydi.

She'rdan aytilgan xushxabar – bu faqat bitta voqea yoki his emas, balki hayotning o'zi, u taqdim etayotgan har bir yangi imkoniyat.

Adabiyot – bu insonshunoslik. Insoniy tuyg'ularni tarbiyalash vositasi. Yovuzlikka nafrat, ezgulikka muhabbat tuyg'ularini tarbiyalovchi asosiy kuch sanaladi. Mehribon Abdurahmonovanning ijodi xuddi shu nuqtai-nazardan olib qaraganimizda bugungi kundagi ko'plab yosh ijodkorlarimiz uchun ibrat va mahorat maktabi bo'la oladi, deyishimiz mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Avvalo, xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan.” Yurtboshimizning buyuk aloma va mutafakkirlar merosining yangi O'zbekistonimiz ravnaqi va ayniqsa, yoshlarimiz kamoloti uchun muhim ahamiyati borasidagi ushbu ko'rsatmalari Mehribon Abdurahmonovanning salmoqli asarlarini tadqiq etishda ham muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Serqirra iste'dod sohibasi Mehribon Abdurahmonovanning adabiyotimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari go'zal she'rlaru yetuk narsiy asarlar yaratishdangina iborat emas. Uning bir necha yillar mobaynida turli sohalaragi ijtimoiy faoliyati hamda bugungi kunda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Jizzax viloyat bo'limiga rahbarlik faoliyati ham tahsinga loyiqdir.

Yillar insondan chiroyni, kuch-quvvatni olishi mumkin, ammo ijodni qalbdagi nekbin tuyg'ularni yana ham oshirib barkamol qiladi. Buning yaqqol isboti etib ijodda tengsiz hisoblangan Abdurahmonovani keltirishimiz mumkin!

Ortiqova Gulsora

Tarixiy haqiqatning adabiyotga ko‘chishi

Adabiyot– so‘z san’ati. U insonning qalbiga bevosita ta’sir etadi. Adabiyot haqida juda ko‘plab yozuvchi- ijodkorlar, olim-u fuzalolar o‘z fikrini bildirib o‘tgan. Shular qatorida fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning adabiyot haqidagi quyidagi aforizmini ta’kidlab o‘tish joiz: “Adabiyot – bu xalq qalbi.Uning ovozi susaysa, xalqning ham ruhiyati susayadi”. Darhaqiqat, Adabiyot xalqning orzu umidlarini o‘zida aks ettiradi. Undagi voqealar, syujet chiziqlari, qahramonning kechinmalari xalqning yuragidagi hislarni akslantirishga harakat qiladi. Bunga yaqqol misol tariqasida xalq dostonlarini ayta olamiz. Xalq dostonlarining aksariyat qismi “qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y beribdi”, “Ular uzoq va baxtli hayot kechirishibdi” kabi jumlar bilan tugashi bejiz emas. Buning sababi shundaki, bu doston xalqning qiynalgan davrida, zulm ostida qolgan davrida vujudga kelgan bo‘lib, odamlar bu dostonlarda o‘zlarini bu zulmlardan, qiyinchiliklardan olib chiqib ketuvchi shaxsni tasvirlashgan, kelajakdagi farovon kunlarga umid bog‘lashgan.

Yuqoridagi fikrlar ,asosan, Xalq og‘zaki ijodi namunalariga tegishli bo‘lib, yozuvchi-ijodkorlar, Shoirlar tarixiy shaxslarni o‘z asarlariga olib kirishdi, ular yana mana shunday qahramonlarni xalq orasidan chiqishiga umid qilishdi. Mana shunday asarlardan biri Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she’riy dramasi bo‘lib, ushbu asar 1996-yil yozilgan. Bu asarda endigina Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston uchun uning tarixida qanchalik ulug‘vor va adolatli hukmdor mavjud ekanligini yana bir bor eslatish bo‘lsa, yana bir maqsad O‘zbekistonni o‘z zamonasida dunyoning eng qudratli davlatlari qatorida turgan Temuriylar davlati kabi markazlashgan davlatga aylanishiga umid qilish edi.Odatda, tarixiy asar yozish bir qancha murakkabliklarni tug‘diradi. Sababi, asarda o‘tmishga murojaat qilinar ekan ijodkor uni o‘zgartirishga haqi yo‘q. O‘z asariga tayyor syujetni olib kirish esa bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.Buning boisi, Tayyor syujet tarixiy shaxslarning hayotidan olinadi. Tabiiyki, bu jarayon muallifdan tarix fani bo‘yicha anchayin puxta bilim talab qiladi. Tayyor syujetni o‘z asariga olib kirar ekan muallif bir qancha tarixiy asarlarni o‘rganib chiqishga majbur bo‘ladi.

Abdulla Oripov ham “Sohibqiron” dramasi yaratish chog‘ida bir qancha tarixiy manbalarni ko‘zdan kechirgani tabiiy hol. Bu esa Amir Temurdek katta shaxsiyatni adolatli tarzda, haqqoniy baholashga yordam beradi. Dramada Amir Temur hayoti anchayin chuqur yoritilgan bo‘lib, uning davlat tepasiga kelishi, olib borgan harbiy yurishlari, siyosat va harb ilmidagi salohiyati ochib berilgan. Dramadagi ko‘plab tarixiy shaxslar real hayotda mavjud bo‘lib, tarixiy asarlarda, xotiralarda eslab o‘tilgan. Bunga birgina misol sifatida Xuttalon hokimi Kayxusravni aytishimiz mumkin. U dramada Amir Temurdan Amir Husaynni jonini olishni so‘rab oladi. Aynan Amir Husaynni Xuttalon hokimi qo‘lidan o‘lim topishi “Temur tuzuklari”da eslab o‘tiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki Abdulla Oripov tarixni chuqur o‘rgangan va uni inkor etmagan holda badiiy poetikaga ko‘chirgan.

Tarixiy haqiqatni boricha badiiyatga ko‘chirilishiga yana bir misol sifatida Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi maktub almashinuvini aytishimiz mumkin. Bugungi kunda Ko‘niyada saqlanayotgan maktublarda Amir Temur Boyazidga ,dastavval, iliq muomala qilganini Boyazid esa o‘zini yuqori olib kibrga berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Drama voqealarida ham deyarli shu holat kuzatiladi. Temur va uning a‘yonlari tarafida Boyazid Yildirimga ikkita ayb qo‘yiladi, birinchisi Amir Temur tig‘idan qochib yurgan Jaloyirlar sardori Boyazid saroyida qo‘nim topgani bo‘lsa, ikkinchisi Nasroniy qizga uylanishi edi.

Aynan shu Boyazid va Amir Temur o‘rtasidagi jangga to‘xtaladigan bo‘lsak, Herman Vamberining “Buxoro va Movarounnahr tarixi” asarida aytilganidek dramada ham jang taqdirini Amir Temur qo‘shinlari tarkibida bo‘lgan fillar qo‘shini hal qiladi. Bu ikki o‘xshash tarixning badiiy adabiyotga ko‘chishiga misolning ulkan namunasidir.

Xulosa o‘rnida aytar ekanmiz, abadabiyot fani tarix fani bilan uzviy aloqada. Ayrim o‘rinlarda Adabiyot tarixga tayansa, ayrim o‘rinlarda Tarix adabiyotdan quvvat oladi. Bu ikki fanni bir biridan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi.

Lochin Xakimov

FONUS

Ilmiy maqolalar



Baxtiyorova Sevinch

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Nutq ko'inishiga xoslangan leksemalarning O'tkir Hoshimov asarlarida qo'llanilishi

ANNOTATSIYA:Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida leksik birliklarini o'rganish,nutq ko'inishiga xoslangan leksemalarini tahlil qilish haqida fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR:Leksik birlik,nutq,adabiy til,so'zlashuv tili,lug'at boyligi,asar tili,vulgarizmlar,varvarizmlar,badiiy nutq,sema,jargonizm,salbiy emotsiya,domonanta,zamonaviy qatlam so'zlari,

Nutq so'zlovchining til birliklari vositasida fikrni shakllantirishni va ifodalash jarayonidir.U adabiy nutq va so'zlashuv nutqi ko'inishida namoyon bo'ladi:

Adabiy nutq adabiy til me'yorlariga bo'ysundirilgan,demak,ishlov berilgan bo'ladi. So'zlashuv nutqi nutqning ma'lum meyorlarga kiritilmagan,ishlov berilmagan ko'inishidir.U ko'proq erkin muloqot paytida ishlatiladi.

Nutqning yuqoridagi ikki ko'inishiga munosabat jihatidan lug'at boyligidagi so'zlar ikki qatlamda birlashadi:

I.Umumnutq qatlam so'zlari.Bunday so'zlar adabiy nutqqa ham,so'zlashuv nutqida ham bir xil darajada ishlatiladi.Lug'at boyligidagi so'zlarning ko'pchiligi shu qatlamga mansubdir:zamonaviy qatlam so'zlari,ishlatilishi chegaralanmagan leksikaning aksariyati,shuningdek sinonimik qatordagi dominantalar,uslubiy bo'yog'i bo'lmagan betaraf ma'noli so'zlar umumnutq qatlam birliklari sanaladi.

II.Nutqning ma'lum ko'inishiga xoslangan so'zlar.Bunday so'zlar nutqning faqat bir ko'inishiga xoslangan bo'lib,boshqa ko'inishda ishlatilmaydi yoki,aksincha,so'zlashuv nutqida qo'llanilib,adabiy nutqda ishlatilmaydi.

1.Adabiy nutqning o'zi ham ikki xildir: rasmiy nutq va badiiy nutq:

-rasmiy nutqda fikrning ifodalanishi isbotlarga, faktlarga ta'kidlanishiga tayanadi,shuning uchun unda tasviriy vositalar,uslubiy bo'yoqdor so'zlar ishlatilmaydi: to'g'ri ma'nodagi so'zlarning va soha terminlarining qo'llanishi ko'poq adabiy nutqning shu ko'inishiga xosdir;

-badiiy nutqda ko'chma ma'noli so'zlar, ijobiy baho semalari bo'lgan leksemalar (tabassum,mardonavor,chehra kabilar) faol qatnashadi.

2.So'zlashuv nutqida fikr ifodasi ancha erkin bo'ladi,unda adabiy nutqqa xos bo'lmagan oddiy so'zlar (qittay,ketvorgan...),dialektizmlar (opoqi,opog'oyi,kallapo'sh...),jargonizmlar (loy,yakan,satil..., salbiy emotsiya

ifodalovchi soʻzlar (Bashara,tirjaymoq...),vulgarizmlar (goʻrsoʻxta,toʻnka,soʻtak,qizigʻar...),laqablar (Boʻtqa,Burun,Qilich...),baʻzan, hatto oʻzbek tiliga oʻzlashmagan,demak,oʻzbek tili birligi darajasiga yetmagan boshqa til soʻzlari (alkash,bratan,molodes kabi varvarizmlar) ham qoʻllanadi.

Leksemalarning nutq koʻrinishiga xoslanishi haqida gap ketganda,ularning badiiy asar tilida qoʻllanishi alohida baholash kerak,chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili bir hodisa emas,badiiy nutq adabiy nutqning bir koʻrinishi,u albatta adabiy til meʼyorlariga boʻysundiriladi;badiiy asar tilida esa adabiy til meʼyorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi:badiiy asardagi obraz va personajlar tilining tipiklashtirilishi shuni taqozo qiladi,demak,badiiy nutq badiiy asar tilining yetakchi komponenti,ammo yagona komponent emas.Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda,asardagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib,soʻzlashuv nutqi qoliplari va elementlaridan,umumnutq qatlam soʻzlaridan ham foydalaniladi:muallif nutqi,muallif tili shaklida berilayotgan bayon va izohlar,asosan,adabiy nutq meʼyorlariga tayanadi (soʻzlarning tanlanishi ham shunga asoslanadi),obraz va personajlar tilida esa funksional uslubning barcha turlaridan foydalaniladi.

Umumiy holda qoidalarga nazar soladigan boʻlsak,adabiy tilning ham soʻzlashuv uslubining ham turli xil yoʻnalishlari borligini koʻrishimiz mumkin.Badiiy asarlarda nutqqa xoslangan leksimalarni koʻrishimiz mumkin. Bu orqali badiiy asar nimaga erishadi degan savolni oʻrtaga tashlashimiz joizdir.Negaki,asar faqatgina yoziladi,asarning davri,insonlarning soʻzlashuvi qanaqa ekanligi,kishilarning bilim-savod darajasi ham aynan soʻzlar orqali ifoda etiladi.Shu tufayli ham qahramonlarning nutqiga eʼtibor berish lozim,davr va insonlarning omili orqali badiiy asar tilini erkin ilgʻash mumkin.

Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” nomli asari katta va kichik novellalardan iborat boʻlib ular muallifning sarguzashtlariga asoslangan. Muallifning oʻzi kitobning muqaddimasida “bu asardagi odamlarning hammasini oʻz koʻzim bilan koʻrganman” deb yozadi. Asardagi jonli va hayotiy tasvirlar, oʻzbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar oʻrtasidagi suhbatlar mutolaa taʼsirini kuchaytiradi. Asar adibning bolalik davridagi voqealari asosida qurilgan. Sovet davridagi oddiy qishloq oilalar, odamlar turmush tarzi adibning hayoti bilan uygʻunlashtirib tasvirlangan. Oʻtkir Hoshimov shu kichik asarida ham dunyoning ishlarini mujassamlashtirgan. Mazkur asardan joy olgan novellalarning asosiy qahramoni muallifning onasidir. Muallifning oʻzi ham hikoyalardagi asosiy qahramonlardan biridir. Mavzuni chuqurroq tahlil qilish maqsadida adibning novellalari orasidan “Poʻsdumbali moskichiri” deb nomlangan novellasini tanladik.Ushbu novellada Sobiq sovet ittifoqi davrida yashagan bir insonning soddadilligi,oʻz boshqa hech qayerni koʻra olmasligi tasvirlangan.Naim sartaroshining butun boshli Moskvani oʻz mahallasidagidek tasavvur qilishi bu yerda kulgili tasvir bergan,ammo bu oʻsha davr tufayli sodda boʻlgan kishining holatini ochib bergan.Mana shu bilan nutqqa xoslangan leksemalarni koʻrishimiz

mumkin. Aslida qahramonning gaplarida hech qanday jiddiylik va ortiqcha ishlovlar yo‘q, biroq tasvirlashda ishlatilgan so‘zlarning o‘zida eng kerakli bo‘lgan ifodani ilg‘ash mumkin.

O‘tkir Hoshimovning barcha asarlari sodda, xalqona tilda yozilgani uchun ham so‘zlarni tushunish qiyinlik qilmaydi, asarda soflikni saqlab qolganligi uchun ham bugungi kunga qadar hech qanday ahamiyatini yo‘qotmagan, qadrlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Dunyoning ishlari”-qissa. O‘tkir Hoshimov . “ILM-ZIYO-ZAKOVAT” Toshkent-2019.
2. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”-darslik. H. Jamolxonov. Toshkent-“Talqin”-2005
3. “O‘tkir Hoshimovning kichik hikoyalardagi “nutiy niqob”ning ifodalanishi”-maqola. Hamroyeva Farida Faxriddinovna. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(10), October, 2023

Berdiqulova Shahzoda

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Jadidlarning im yo‘lidagi harakatlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati

Annotatsiya: jadid ta’lim harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo, xususan, Turkiston hududida paydo bo‘lgan ijtimoiy, madaniy va ta’limiy o‘zgarishlarni ifodalaydi. Bu harakatning asosiy maqsadi zamonaviy bilimlarni, g‘oyalarni va uslublarni joriy etish orqali xalqni taraqqiyotga erishishga ko‘maklashish edi. Bugungi kunda jadid ta’lim harakatining ahamiyati yanada oshdi. U nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, xususan, erkin fikrlash, ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan qiziqish, zamonaviy ta’limda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *jadidlar, ilm-fan, ta’lim harakati, innovatsion yondashuvlar, madaniy meros, zamonaviy ta’lim, pedagogik usullar, milliy uyg‘onish, erkin fikrlash, interaktiv metodlar, ta’lim tizimi.*

Аннотация: современное образовательное движение представляет собой социальные, культурные и образовательные изменения, произошедшие в Центральной Азии, в частности в Туркестане, в конце XIX – начале XX веков. Основной целью этого движения было помочь людям добиться прогресса путем внедрения современных знаний, идей и методов. Сегодня значение современного образовательного движения возросло еще больше. Он

играет важную роль не только как историческое наследие, но и в развитии современных систем образования. Идеи, выдвигаемые джадидами, в частности, свободомыслие, интерес к науке и культуре, занимают важное место в современном образовании.

Ключевые слова: *современность, наука, просветительское движение, инновационные подходы, культурное наследие, современное образование, педагогические методы, национальное пробуждение, свободомыслие, интерактивные методы, образовательная система.*

Abstract: *the modern education movement represents the social, cultural and educational changes that appeared in Central Asia, particularly in Turkestan, at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. The main goal of this movement was to help the people achieve progress by introducing modern knowledge, ideas and methods. Today, the importance of the modern education movement has increased even more. It plays an important role not only as a historical heritage, but also in the development of modern education systems. The ideas advanced by the Jadids, in particular, free thinking, interest in science and culture, have an important place in modern education.*

Key words: *modernity, science, educational movement, innovative approaches, cultural heritage, modern education, pedagogical methods, national awakening, free thinking, interactive methods, educational system.*

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalari targ'ib qilishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Jadidlarning g'oyalari jamiyatda yangi fikrlarni shakllantirishga va tarixiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi, bu esa xalqlarning kelgusidagi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ularning siyosiy va ijtimoiy islohotlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, va mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri sifatida davom etmoqda. Jadidlar g'oyalarining bugungi kundagi ahamiyati ayniqsa O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Jadidlar harakati o'z zamonasida ta'lim, madaniyat, siyosat va ijtimoiy yangilanish sohalarida izchil o'zgarishlar qilishni maqsad qilgan bo'lsa, bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini

yo‘qotmagan. Quyida jadidlar g‘oyalarining zamonamizda qanday ahamiyatga ega ekanligi ko‘rib chiqiladi. Ta‘lim va ilm-fan sohasidagi yangilanish .Jadidlar harakati, ayniqsa, ta‘lim tizimining yangilanishiga katta e‘tibor qaratgan edi. Ularning ta‘limga oid g‘oyalari, ta‘lim usullari va pedagogik metodikalarining bugungi kunda ham ahamiyati katta. Jadidlar an‘anaviy madrasalarda mavjud bo‘lgan diniy ta‘limga qarshi chiqib, ilmiy-ommaviy ta‘limning rivojlanishini targ‘ib qilishdi. Bugun:

- Zamonaviy ta‘lim tizimi jadidlar tomonidan belgilangan yo‘nalishlarga asoslangan: ilmiy-pedagogik yondoshuvlar, ijtimoiy va madaniy bilimlarga ta‘limni yanada kengaytirish, yangi fanlar va texnologiyalarni o‘qitish.

- Pedagogik yangiliklar: jadidlarning ta‘limga yangicha yondashuvi, metodikalar va zamonaviy darsliklar yaratishga bo‘lgan e‘tiborlari bugungi kunda yangi ta‘lim tizimlarining shakllanishida o‘z aksini topmoqda. Ommaviy ta‘lim va inkluzivlik. Jadidlarning g‘oyalariidan biri shundaki, ta‘lim barcha qatlamlarga, ayniqsa, ayollarga va jamiyatning boshqa pastki qatlamlariga ham taqdim etilishi kerak. Ular: ayollar ta‘limiga katta e‘tibor qaratganlar va ayollarni madaniy va ilmiy faoliyatda faol bo‘lishga rag‘batlantirganlar. Milliy o‘zlikni anglash va madaniyatni rivojlantirish .Jadidlar harakati milliy o‘zlikni rivojlantirishga va musulmon jamiyatlarini yangi, ilmiy va madaniy yuksalish sari yo‘naltirishga qaratilgan edi. Bugungi kunda bu g‘oyalar:

- Milliy madaniyatni tiklash va rivojlantirish: O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida milliy o‘zlikni tiklash, an‘anaviy madaniyat va san‘atni zamonaviy izlanishlar bilan uyg‘unlashtirish jadidlarning g‘oyalarining davomidir. Ijtimoiy islohotlar va adolat .Jadidlar harakati ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlarini himoya qilishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilagan edi. Bugungi kunda: siyosiy erkinliklar va inson huquqlari bo‘yicha jadidlarning g‘oyalari mamlakatlarning siyosiy tizimida o‘zgarishlarni keltirib chiqarishga yordam bermoqda. Jadidlar islohotlarga intilishgan va o‘z vaqtida jamoatni yangilashga chaqirishgan, bu esa bugun ham ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ahamiyatga ega. Diniy yangilanish va diniy ta‘lim. Jadidlar diniy yangilanishni, diniy tafakkurda zamon bilan uyg‘unlashishni qo‘llab-quvvatlashgan. Ular islomni faqat diniy an‘analarda qolmasdan, uning ilmiy va ma‘rifiy jihatlarini rivojlantirishga chaqirganlar. Bugungi kunda: zamonaviy islomiy tafakkur va islomiy ta‘limni yangilash zarurati jadidlarning g‘oyalari asosida yanada rivojlanmoqda. Din va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda jadidlar g‘oyalarining ahamiyati yanada oshmoqda. Milliy mustaqillik va modernizatsiya. Jadidlar harakati o‘z zamonida milliy ozodlik va mustaqillikni orzu qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ham bu g‘oyalar: milliy suverenitet va mustaqillikni ta‘minlashda o‘z ahamiyatini saqlaydi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng, jadidlar g‘oyalari milliy taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Jadidlarning ta‘lim sohasidagi innovatsion g‘oyalari bugun ham dolzarbdir. Ularning interaktiv

pedagogik usullari, talabalarning erkin fikrlashiga imkon beradigan yondashuvlari zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilmoqda. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan milliy uyg'onish g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. O'zbek xalqining madaniy merosini saqlash va rivojlantirish, o'zlikni anglash masalalari dolzarbdir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy adolat g'oyalari, bugungi kunda ham jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Ularning fikrlariga tayangan holda, biz tenglik va adolat uchun kurashishda davom etamiz. Jadidlar ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirishga intildilar. Bugungi kunda ilm-fan sohasidagi yangiliklar va innovatsiyalar, ularning g'oyalaridan ilhomlanib rivojlanmoqda. Jadidlarning ilm yo'lidagi harakatlari O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin egallaydi. Ularning g'oyalari, ta'lim tizimiga bo'lgan yondashuvlari va ijtimoiy o'zgarishlarga bo'lgan intilishlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Jadidlar harakati nafaqat o'z zamonalarida, balki hozirgi kunda ham yangi avlodni tarbiyalashda, ilm-fanni rivojlantirishda va milliy identitetni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning merosi biz uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar:

1. Po'latov Sh.N. Mahatma Gandi diniy qarashlarining tahlili. НамДУ илмий ахборотномаси. 2021 у. 8-son. 205-212 б.
2. Пўлатов, Ш. Н. (2023). ХИНД ФАЛСАФАСИДАГИ ИНСОН МАСАЛАСИНИНГ МАҲАТМА ГАНДИ ҚАРАШЛАРИГА ТАСИРИ.
3. International scientific journal of Biruni, 2(3), 96-103.
4. Abdurauf Fitrat. Jadidlar haqida o'ylashlar.
5. Usmonov, B. Ta'lim va madaniyat: Jadidlar merosi.
6. Mahmudov, T. Jadid harakati va uning ijtimoiy ta'siri.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/jadidlar-harakati-va-ularning-asosiy-g-oyalari/viewer>
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>

Eshmurzayeva Barno

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Zulfiya Qurolboy qizining “Muhabbat va nafrat” hikoyasida tasvir va syujet ifodasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Muhabbat va nafrat” hikoyasidagi qahramonlar xarakteri va peyzaj, tasvir uyg‘unligi tahlil asosida yoritib berilgan. Shuningdek, asarning tarbiyaviy ahamiyati haqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: personaj, peyzaj, ma‘rifat, detal, konflikt, tasvir.

Image and plot expression in the story of Zulfia Kuroloy’s daughter “Love and Hate”

Annotation: In this article, the characters of Zulfia Kuroloy’s daughter story “Love and Hate” and the combination of landscape and images are analyzed based on the analysis. The educational value of the works is also discussed.

Key words: Character, landscape, enlightenment, detail, conflict, image.

Kirish.

Zulfiya Qurolboy qizi ijodini kuzatar ekansiz undagi peyzaj tasviri bevosita asar kompozitsiyasi va syujeti bilan uyg‘unlikda ifodalanganligini kuzatasiz. Obrazlar xarakteri, personajlar harakatida, har bir detalda asar g‘oyasini to‘ldirib turuvchi unsurlar ifodalangan.

Muhokama va natijalar.

Jumladan, “Muhabbat va nafrat” hikoyasidagi Dildora obrazi psixologiyasi bilan asar boshlanishidagi peyzajda o‘xshashlik bor. Ushbu peyzajga e‘tibor beraylik: “Yanvarning oxirlarida birdan havo aynib, kun sovib ketdi. Bu yil qish bo‘lmaydi-yov, deb bemalol yurgan odamlar shoshib qolishdi. Ikki kun gupillatib qor yog‘di. Kuni bilan hovlini to‘ldirib, qiy-chuv qilib o‘ynaydigan bolalar ham uy-uylariga kirib ketishdi. Kattalar ish yuzasidangina ko‘chaga otlanishgan, sovuqdan hammaning tusi o‘zgargan: yuz-ko‘zlarida horg‘in ifoda aks etib turardi.”¹ Dildoraning ham ayni vaqtda hayotida qish faslining izg‘irini kabi sovuq bir yolg‘izlik, chorasizlik va dardli kunlar boshlangan edi. U ham xuddi tashqi dunyodagi insonlar kabi “Qish bo‘lmaydi-yov” deb xayol qilgandi. Ammo har bahorning ham bir qishi bor... U ishongan bahor o‘tkinchi ekanligini, har qanday chiroyli ko‘ringan tosh oltin bo‘lolmasligini, haqiqiy muhabbat hoy-u havaslar ustiga qurilmasligini, bunday muhabbat esa fasllar kabi o‘tkinchi ekanligini anglab yetdi.

Asar nomining o‘zidayoq hikoya konfliktlar ustiga qurilganiga bir ishora mavjud. Muhabbat va nafrat azaliy qarama-qarshi, ammo bir-biriga juda yaqin tushunchalardir. Abdulla, Dildora va Po‘lat uchligi o‘rtasida ham qahramonlar konflikti mavjud. Ular o‘rtasidagi munosabatlar, voqealar rivoji bevosita bugungi kun kishilari hayotidan u qadar uzoq bo‘lmagan ifodasidir.

Negaki, birgina Dildora obrazi orqali bir vaqtlar orzular ila shaharga o‘qishga kelgan, ammo yengil shahar hayotiga oshiq bo‘lib o‘zligidan, hamma havas qilishi mumkin bo‘lgan kelajagidan voz kechgan qishloq qizi xarakter xususiyatlari ochib berilgan. “Bundan o‘n yil muqaddam u "o‘qiyman" deb shaharga kelib qolgandi. Taqdir kulib boqib, institutga qabul qilingan, tirishib-tirmashib besh yilni biramallab o‘tkazgan qiz qishloqqa qaytib borishdan bosh tortgan, aqlini tanigandan buyon u shaharda yashashni orzu qilardi. Shu bois ketgisi kelmadi. “Bu yerda yashash oson, — deb o‘ylagandi u o‘shanda. - Bir amallab uy olsam, gap meniki. Er topish qiyinmas”.²

Vaholanki, uning taqdiri bir o‘qimishli, ilimli bir qiz o‘laroq sermazmun o‘tishi, kimlarningdir qo‘lida o‘yinchoq bo‘lmasligi mumkin edi. Mana shu jihati bilan asar hozirgi kun yoshlari uchun tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Biz yengil deb o‘ylagan shahar hayotining aslida qanchalik yashirin, ko‘zga ko‘rinmas soxtaliklari bor ekanligini anglab yetishimizga yordam beradi.

Abdulla obrazi esa tamomila oila deb atalmish muqaddas tushunchaga xiyonat qiluvchi, o‘z nafsining quli bo‘lgan irodasiz insonlar ruhiyatini yoritib bergan.

Po‘lat obrazi orqali esa, adiba muhabbat tuyg‘usining kuchi buyuk ishlarga qodir ekanligini, hatto o‘g‘rini to‘g‘riga aylantirishi mumkinligini isbotlab bergan. Umuman olganda asarning asosiy g‘oyasi ham bugungi kun insonlariga nisbatan hayot, haqiqiy muhabbat, nafrat haqida ozgina bo‘lsa ham o‘ylashga majbur etishga qaratilgan. Hayot mazmuni nimada ekanligini anglashimizga turtki bo‘ladi.

Xulosa.

“Adabiyot –atomdan kuchli. Faqat uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”³. Darhaqiqat, adabiyot kuchi bugungi kun insonlari ma’naviyatini oshirishga xizmat qilishi lozim. Zulfiya Qurolboy qizi asarlari esa mustaqillik davri adabiyotida o‘zining ta’sirchanligi, hayotiyliigi, insonlar xarakterini ochib berishga, ma’rifatni o‘zgacha usulda talqin etish va ulashishga xizmat qiluvchi asarlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya Qurolboy qizi “Muhabbat va nafrat” hikoyasi. Ziyoz.com.uzbek nasri.

2. .Zulfiya Qurolboy qizi “Muhabbat va nafrat” hikoyasi. Ziyoz.com.uzbek nasri.
- 3.A.Qahhor. Hayot va adabiyot haqida. Kh-davron.uz.2022-yil,16-sentyabr.

Abdiyeva Barno

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Zulfiyaxonim she’rlarida Hamid Olimjon timsoli

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining onasi, sadoqatning mangu timsoli Zulfiyaxonim ijodi, hamda shoir Hamid Olimjonning so‘ngsiz armoni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Zulfiyaxonim, Hamid Olimjon, sevgi va vafo, matonat, bahoriy qalblar, sof tuyg‘u

Аннотация: В данной статье размышляется творчество матери узбекской поэзии Зульфийханум, вечного символа верности и бесконечной мечты поэта Хамида Олимжона.

Ключевые слова: Зульфийханум, Хамид Олимджон, любовь и верность, упорство, весенние сердца, чистое чувство

Annotation: This article reflects on the work of the mother of Uzbek poetry, Zulfiyakhanim, the eternal symbol of loyalty, and the endless dream of the poet Hamid Olimjon.

Key words: Zulfiyakhanim, Hamid Olimjon, love and loyalty, perseverance, spring hearts, pure feeling

Yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan shunday shoir va yozuvchilarimiz borki, ular faqat kechagi kun uchun emas, balki bugungi kun kitobxonlariga ham muhabbat va sadoqatdan saboq bermoqda. Shunday shoirlarimizdan biri bu-Zulfiyaxonim. Shoir she'rlarida bahor nafasi yashaydi. Uning she'rlarini o‘qir ekanmiz yilning qaysi faslida bo‘lishimizdan qat’iy nazar, go‘yoki atrofimizni oppoq o‘rik gullari o‘rab oladi. Zulfiyaning ko‘p she'rlari sarlavhasi ham aynan bahor haqida. “Demak, bahor keldi”, “Salom, tansiq bahor”, “Kel, bahor”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Yana bugun bahorga zorman” nomli she'rlari shular jumlasidan.

Bahor-qo‘shiq, tavallud fasli,

Bunda senga chunon ham zor bor.

Eng beozor tuyg‘ular nasli-

She‘rlaringa bir doya darkor. (Zulfiya “Saylanma”. T.Sharq. 2015)

Haqiqatan ham, eng sof tuyg'ular, ijodkorlik aynan bahorda boshlanadi. Shoiraning o'zi ham aynan bahorning ilk kunlarida tug'ilgan.

Bahor faslini kuylovchi yana bir bahoriy qalb egasi bor, bu-Hamid Olimjon! Hamid Olimjon va Zulfiya nomlari o'zbek adabiyotidagi ikki she'riyat chashmasini bog'lab "Muhabbat bahori"ni yaratgan. "Bilmadim, jahon adabiyoti tarixida Hamid Olimjon va Zulfiyaga qadar ham ikki shoirning sevgi va muhabbatiga asoslangan boshqa oila bo'lganmikin?... Agar bo'lmagan bo'lsa, shunday g'aroyib an'anani bizning ikki mashhur vatandoshimiz Hamid Olimjon va Zulfiya boshlab berganlar". (Naim Karimov. "Ikki chashma") Afsuski, el suyib, sevib ardoqlagan shoir Hamid Olimjon uzoq muddat yashamadi. U juda yosh, bevaqt ketdi, u o'zi bilan birga, yozilishi mumkin bo'lgan, ammo bu fojia tufayli yozilmay qolgan qancha-qancha ajoyib she'rlar, balladalar, nodir dostonlar, dramalar va ilmiy asarlarni olib ketdi. Shundan so'ng u Zulfiyaxonimning mangu armon qo'shig'i bo'lib qoldi...

Qancha bo'ldi ko'rmaganimga,

Ey qalbimning dilbari shoir!

Qancha bo'ldi birga o'ltirib,

So'zlashmadik dillarga doir... (Zulfiya "Saylanma". T.Sharq. 2015)

Shoir Hamid Olimjon vafotidan so'ng Zulfiyaxonim ikki marta ko'proq ijod qildi. Endi u Hamid Olimjon uchun ham yozadi. Har yilgi keladigan bahor, shoirni so'roqlab keladi, shoirni sog'inadi...

Zulfiya ushbu yillar xotirasi haqida shunday eslaydi: "Bu yillarda mening hayotimga yana bir quvonch to'liqini kirdi. Bu-Hamid Olimjon edi. Hamid Olimjon mening uchun talabchan ustoz, mehrlil do'st edi. She'rlarimni ilk bor hayajondan titrab unga o'qirdim. U ayovsiz tahrir etardi. Yillar o'tdi, yillarning biri bilan qo'shilib Hamid Olimjon ham ketdi... So'ng hayotimga yo'llar kirib keldi..." (Ibrohim G'afurov. "Zulfiya siymosi")

Mana, bir umrni yashadim sensiz

Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib

Tobuting oldida cho'kkanimda tiz

Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib. (Zulfiya "Saylanma". T.Sharq. 2015)

Yuqorida keltirilgan misralarni o'qir ekanmiz, uning turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati qanchalik yuksak bo'lganini va uning o'limidan qanchalar iztirob chekkanini his qilishimiz mumkin. Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etishga bag'ishladi. Hamid Olimjon boshlab bergan baxt qo'shig'ini kuylashni nihoyasiga yetkazdi. U shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri

uchun “Semurg” pyesasi, hamda “Zaynab va Omon” opera librettosini yozdi. Shoiraning “Sen qaydasan, yuragim” she’ri Hamid Olimjon vafotidan bir yil o‘tgach yozilgan bo‘lib, unda hijron o‘tida qovrilayotgan ayolning chin tuyg‘ulari yorqin aks ettirilgan. Zulfiya uchun Hamid Olimjon sevimli yor, ham do‘st, ham ustoz edi. Zulfiya Hamid Olimjondan qat‘iyat va iroda bilan yashashni o‘rgandi. Uning vafoti dillarni tilka pora qildi. Yig‘lamaslik, g‘amga cho‘kmaslikning esa iloji yo‘q.

Zulfiyaning har bir she’ri sog‘inch bilan sug‘orilgandek go‘yo. Uning umr yo‘ldoshiga bo‘lgan sevgi, sadoqati, irodasi asarlari mohiyatini tashkil etadi. “Sog‘inganda”, “Sensiz”, “Ne baloga etding muftalo”, “Haykal”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Sog‘inib”, “Hijron kunlarida”, “Xotiram siniqlari”, “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh”, “O‘riklar gullar...”, “So‘roqlaydi shoirmi she‘rim” nomli she‘rlarning barchasi Hamid Olimjonga atalgan. Zulfiya cheksiz mehr-u sadoqati va sevgisini ushbu she‘rlarida ifoda etgan. Ko‘kdagi yulduz kabi yonib o‘chgan Hamid Olimjonni butun umr kutdi. Biz faqatgina kitoblarda tasavvur qilib o‘qigan afsonaviy sevgi dostonlari “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Oygul bilan Baxtiyor” kabi ishqiy-afsonaviy qahramonlar biz yashab turgan zamonda Hamid Olimjon va Zulfiya nomlari orqali gavdalandi. Ular bizga haqiqiy hayotda chin muhabbat, vafo va sadoqat borligini isbotladi. “Yashirib o‘tirmayman: Hamid Olimjon ilk ko‘rishuvlardan oq ko‘zimdan ko‘nglimga o‘tdi. Men juda yosh hissiyotim bilan uning keng qalbi, ulkan iqtidorini to‘ydim...”,-deb eslaydi eski xotiralarini shoir. Hamid Olimjon ham adabiy jarayonlarda Zulfiyaxonimni ko‘p uchratadi va bu yosh shoiraga nisbatan shoir qalbida iliqlik paydo bo‘ladi. Buni u quyidagi satrlari orqali juda chiroyli isbotlaydi:

Eng gullagan yoshlik chog'imda,

Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.

Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,

Shunda qalbm tanidi yorni. (Hamid Olimjon “O‘rik gullaganda”. T. Kamalak-PRESS. 2019)

Zulfiya Hamid Olimjondek buyuk shoirning sevgisi va sadoqatiga sazovor bo‘lgan ayol. Shoirning Zulfiyasi yonida bo‘lsa-da uni sog‘inib, suyib, so‘roqlab yashaydi. Buni quyidagi satrlari orqali juda chiroyli ifoda etadi:

Sevgi desam, faqat sen desam,

Sening bilan yashasa qalbm,

Sen desam-u, butun dunyoning

Sho‘rishiga quloq solsam jim.

Dilbar shoir Hamid Olimjon “baxt va shodlik kuychisi” nomini olgan. Yoshlik va shodlik qo‘shig‘ini kuylavverib mangu yosh bo‘lib qolgan shoir... Buni Zulfiyaxonim ushbu satrlari orqali shunday tasvirlaydi:

Va bilasan keksarmas umring

Donday yoniq yillar qatiga

Kuylay berib yoshlik qo‘shig‘in

Mangu qolding yoshlik faslida. (Zulfiya “Saylanma”. T.Sharq. 2015)

Hamid Olimjon o‘zbek xalqi qalbida ham hamon 35 yoshli navqiron yigit bo‘lib qolgan. Uning ijodiga muhlislar to‘yib ulgurmagan bir pallada Zulfiyaxonim shoir uchun ham yozib bu kemptiklikni to‘ldirdi.

Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,

Hayotni kuylayman, chekinar alam,

Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,

Men hayot ekanman, hayotsan sen ham! (Zulfiya “Saylanma”. T.Sharq. 2015)

Darhaqiqat, bu ikki buyuk shoir o‘zbekning chin farzandlari qalblarda mangu yashaydi. Muhabbat va sadoqat, baxt va shodlik kuychisi bo‘lib, ishq torlarini chertib yodimizda qoladi. Va yana bahor keladi, sizlarni so‘roqlab...!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurali Qobul “Sadoqat saroyining mangu malikasi yoxud Hamid Olimjonning so‘ngsiz armoni”. Toshkent. Sano-standart. 2018
2. Hamid Olimjon “O‘rik gullaganda”. Toshkent. Kamalak-PRESS. 2019
3. Erkin Malik “Bir kuni Zulfiya opa”. Toshkent. Sharq Ziyozakovat. 2017
4. Naim Karimov “Ikki chashma” 2015
5. Ibrohim G‘afurov “Zulfiya siymosi” 2017

<https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-zulfiya-siymosi.html>

Nizamidinova Jayrona

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida qo‘llanilgan qo‘shma gaplar.

Ilmiy rahbar: dotsent. Abduvali Musayev

Annotatsiya: Ushbu maqola ikki va undan ortiq sodda gapning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan hamda ohang tugalligiga ega butunlikni O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani misolida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Qo‘shma gap, bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi vositalar, ohang, bog‘langan qo‘shma gap, biriktiruv bog‘lovchisi, zidlov bog‘lovchisi, ayiruv bog‘lovchisi, inkor bog‘lovchisi, ergashgan qo‘shma gap, ko‘makchili qurilma, -ki yuklamasi, ayrim fe‘l shakllari, nisbiy so‘zlar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar, sabab, maqsad, shart, aniqlov, o‘xshatish bog‘lovchilari, shart mayli, bog‘lovchisiz qo‘shma gap.

“Qo‘shma gap - ikki va undan ortiq sodda gapning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo‘lgan butunlikdir”.

Har qanday sodda gap o‘zaro bog‘lanib qo‘shma gapni hosil qilavermaydi. Faqat o‘zaro mazmuniy muvofiq bo‘lgan gaplarga bir-biri bilan bog‘lanib qo‘shma gapni tashkil etadi. Masalan: Kuz keldi va daraxtlar kurtak yoza boshladi deb bo‘lmaydi, chunki bu gaplar bir-biri bilan mazmunan muvofiq kelmaydi.

Qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar alohida qo‘llangan sodda gaplar bilan teng emas. Alohida qo‘llangan sodda gaplar grammatik, mazmun va ohang tugalligiga ega bo‘ladi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa bunday xususiyatga ega emas. Ularning har biri garchi gapning asosiy belgisini o‘zida namoyon etsa ham, grammatik, mazmun va ohang tugalligi qo‘shma gapning oxirida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida-alohida gaplar emas, balki bir umumiy gapning qismlari sanaladi. Bir qismning ohangi ikkinchi qismni talab qilib turadi.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida keltirilgan ushbu gapda:

"Kech tushdi, odamlar uy-uyiga tarqaldi". Bu gapda vergul yordamida qo‘shma gap hosil bo‘lgan. Birinchi qism ikkinchi qismni, ikkinchi qism birinchi qismni to‘ldirib turibdi.

Qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun xizmat qiluvchi vositalar bog'lovchi vositalar sanaladi.

Qo'shma gap qismlari quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi.

1. Bog'lovchilar.

a) teng bog'lovchilar

b) tobe (ergashtiruvchi) bog'lovchilar.

2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar.

a) bo'lsa, esa, deb so'zlari

b) -u(-yu), -da, -ki yuklamalari

d) nisbiy so'zlar

e) ko'makchili qurilmalar

f) shart mayli

3. Ohang.

Qo'shma gaplar qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gaplar. Masalan: *Chap poyini darrov kiydi-yu (va), o'ng poyida ancha qiynaldi.* [1;14]

2. Ergashgan qo'shma gaplar. Masalan: *O'rik to'la do'ppimni mahkam ushlagancha choyxona tomonga chopib ketayotsam, ketimdan Abduvali ham yetib oldi.* [1;186]

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Masalan: *U chetga chiqib, ikki qo'lini ko'ksiga qo'ydi.* [1;115]

1. Bog'langan qo'shma gap.

Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari, -u(-yu), -da, ham yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar deyiladi.

Bog'langan qo'shma gaplar teng bog'lanadi, biri ikkinchisiga tobelanmaydi.

Bog'langan qo'shma gaplar besh xil bo'ladi.

1. Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplar. *Ammo uchinchi sinfda o'qiyotganimda bir voqea bo'ldi-yu(va), oyim dadamni jonidan ortiq ko'rishini tushundim.*[1;544-545]

2. Zidlov bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar. *Mayli, armaturalarni uchma-uch qilib ulasayam bo‘ladi, lekin "A-1" ingichka armatura.* [1;5]
3. Ayiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar. *-Muzaffar! - dedi goh menga, goh hamon lablari titrab unsiz yig‘layotgan oyimga qarab.* [1;495]
4. Inkor bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar. *Na o‘zi keldi, na bir xat yozdi.* [1;541]
5. Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar. *"Qora ammam"dan qatiq isi, Robi opamdan bo‘lsa lampamoy hidi anqiydi.* [1;29]

2. Ergashgan qo‘shma gap.

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplardan birining ikkinchisiga tobe bog‘lanishi asosida yuzaga keladi.

Qismlari ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki shunday bog‘lovchi vazifasidagi birliklar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar ergashgan qo‘shma gap hisoblanadi.

Bunday qo‘shma gaplar doim ikki qismdan iborat bo‘ladi.

1. Bosh (hokim) gap- ma‘nosi izohlanayotgan, to‘ldirilayotgan, ravshanlashayotgan gap.
2. Ergash (tobe) gap- bosh gapning ma‘nosini izohlayotgan, to‘ldirayotgan, aniqlayotgan gap. Masalan: *Abduvali bilan endi o‘ynamayman, chunki soqqaquvar o‘ynayotganimizda oltita yong‘og‘imni olib qochib ketdi.* [1;15]

Ergashgan qo‘shma gap qismlari (ergash va bosh gap) ko‘pincha quyidagi bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi:

1. Ko‘makchili qurilma yordamida ergashgan qo‘shma gap. Bunda ko‘makchili qurilmalar faqat va faqat bosh gap tarkibida bo‘ladi. *Sessiya yaqinlashib qolganini, shu sababli kutubxonada qizlar bilan dars tayyorlamoqchi bo‘lganligimni ayttim.* [1;549]
2. Deb so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gap. Deb so‘zi faqat va faqat tobe gap tarkibida bo‘ladi. *Men seni deb, yashayapman-ku.* [1;48]
3. -Ki yuklamali ergashgan qo‘shma gaplar. -Ki yuklamasi bosh gap tarkibida qo‘llanadi. *Yaqinroq kelganda shuni ilg‘adimki, Olimjon ekan.* [1;325]
4. Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar. Ergash gap tarkibida qo‘llanuvchi so‘roq so‘z va bosh gap tarkibida unga javob bo‘lib keluvchi ishoraviy so‘z bir-biriga nisbatan qo‘llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi bir-biriga nisbatlanganligi uchun nisbiy so‘zlar hisoblanadi.

Nisbiy soʻzli ergashgan qoʻshma gaplarda ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi nomustaqil kesim boʻlib keladi. Masalan: *Qanday kelgan boʻlsa, shunday ketadi, - dedi achchiqlanib.*

5. Ergashtiruvchi bogʻlovchili ergashgan qoʻshma gaplar.

a) Sabab bogʻlovchilari: chunki, negaki;

b) Maqsad bogʻlovchisi: toki;

d) Shart bogʻlovchilari: agar, basharti, mabodo, modomiki, garchi;

e) Aniqlov bogʻlovchisi: ya'ni;

f) Oʻxshatish bogʻlovchilari: goʻyo, xuddi.

Ergashtiruvchi bollovchilar ergash gap tarkibida qoʻllanadi. Masalan: *Mobodo nasibang qoʻshilib, institutga kirib olsang, bir borib koʻrib kelgin, xoʻpmi?* [1;474]

6. Shart mayli vositasida ergashgan qoʻshma gaplar. Shart mayli doim ergash gap qismida keladi. *Olazarak qaragam, cholim boyagi qogʻozni biqinini changallagan koʻyi tepasida turgan Robiyaga uzatayapti.* [1;186]

1. Bogʻlovchisiz qoʻshma gap.

Tarkibidagi sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bogʻliq boʻlib, maxsus bogʻlovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bogʻlangan qoʻshma gaplar bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar sanaladi. Masalan: *Yer qimirlamadi, hech kim eshigidan chiqib zinapoyada sakramadi.* [1;5]

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Oʻ.Hoshimov "Ikki eshik orasi" romani Toshkent 2018.
2. N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov "9-sinf ona tili " darslik Toshkent 2019.
3. J.Usmonov, O.Nurmurodov "Yangi muxtasar grammatika 2-qism".
4. N.Erkaboyeva "Oʻzbek tilidan ma'ruzalar toʻplami" Toshkent 2019

Sayfiddinova Saida

Jizzax davlat pedagogika universiteti oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Romanlarda davr, muhit va inson fojiasining badiiy ifodasi

Abdulla Qodiriy asos solgan oʻzbek romanchiligi jangnoma tarzda rivojlantirib kelayotgan va mustaqillik davriga kelib biroz oʻzgarishlar kiritilgan

romanshunosliligimizda falsafiylik va ramziylik ham alohida o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, klassik adabiyot ta’siri, A.Navoiy epik ijodining romanshunostlar tomonidan o‘zlashtirishi yangi o‘zbek romanlarida yozuvchi badiiy mahorati masalalari ijobiy hal qilinishiga amin bo‘lgan [1]

Mustaqillik davriga kelib romanlarimiz mavzi jihatida ham, balki hajm jihatidan ham o‘zgarishlarni ko‘ramiz.

Xususan Omon Muxtorning “Maydon” romanini olaylik. Ushbu romanmi o‘qir ekanmiz, asarning sarlavhasining o‘zida ramziylik borligini sezish mumkin.

“Maydon” romani ham romanchilikning romanchilikning – usulida yozilgan. Romnanning boshlanishida bir nido bilan boshlanadi: “ Nima uchun bunchalik azob?. Hayotda o‘rningni olish uchunmi?! Umr o‘tar ekan bamisoli , - Tarixlarda qolish uchunmi ?![2] Asarning sarlavhasiga bunday nomlanganida ramziy ishora berib o‘tiladi. Inson bu maydonga kelibdimi, o‘sha maydonda har kim o‘z o‘rniga ega bo‘lishni xohlaydi, va bo‘ladi ham. Kimdir artist bo‘lib, kimdir mulla, yo osiy bo‘lib o‘rin egallaydi.

Asarda bir nechta obrazlar uchraydi. Ular adib hokim, mulla artist, bemor, baxshi, osiy, ayol, savdogar, qizcha, arbob va darvesh – masharaboz.

Yozuvchi o‘z mahorati bilan yuqorida keltirilgan qahramonlarni bir maydon usulda birlashtirdi. Bir qarashdan asar qahramonlari adabinih hali maydon yuzini ko‘rmagan asarining ramziy qahramonlar deya aytish mumkin.

Yozuvchi asar qahramoni adibga faqat panoh kerakligini ishora qilib o‘tadi. Asarda qahramonlarning hammasi lift ichifa qamalib qoladi. Adib esa ular bilan ko‘rishishni xohlamas edi. Chunki davrning murakkab tuzimi adibga erkinlik bera olmayotgandi. Buni yozuvchi o‘tgan asrning murakkab tuzumi ichida yurgan adibga ramziy ishora qiladi.

Asarga qillangan lift detaliga nazar tashlasak, ushbu detalda ham qandaydir ramziy ishora mavjud. Bu adibni tinch qo‘ymayotgan ishonch manbai sifatida ko‘rsatish mumkin. Adib qahramonga ichida .. urayotgan hirslarni yozish uchun bir vaqt kerak edi. Yozuvchi shunday tuyg‘onli vaqtni lift ichida o‘z qahramonlari bilan qamrab qo‘yishni, adib ular bilan yaqindan tanishishiga o‘xshatib, ramziy ishora bermoqda.

Asarda yana ramziy-falsafiy obraz bu – Panohi qahramon adibga ana shu panohgina yordam bera olardi. Panhoning :” – bu davrda hammadan ko‘proq , - men haqimda yozadi:!” degan jummalarni ko‘rish mumkin. Xo‘sh adibga davr muhiti talabi bilan panoh kerak edi. U faqat panoh orqali o‘z badiiy asarini dunyo yuziga ko‘rsata olar edi. Omon Muxtorning ramzi shunga ishora qilmoqda.

Falsafiylik har bir davr romanlarida uchraydi. Faqat ularning ko‘rinishi o‘zgarib turadi. Omon Muxtorning “Maydon” romanidagi obrazlar tilidan berilgan nutqlarda falsafiylikni uchratishimiz muki. Asarda osiy obrazi tilidan aytilgan

“O‘tkan kunlar – o‘tgan odamlarga o‘xshaydi” jumlasini orqali yangicha falsafiylik kashf etilgan. Haqiqatanda, o‘tkan kunlarimizni ko‘rolmaganimizdek, o‘tgan odamlarni ham ko‘rish mumkin. Bu yozuvchining yangicha falsafasi edi.

Yozuvchi “Maydon” qahramoni Panoh tilidan hikoya qilinadi. Uning “ Bizni to‘ntarib qo‘yilgan aravadan ko‘ra, aravani quruq olib qochadigan ot qiziqtiradi. Biz shunga o‘rganib qolganmiz, “degan nutqi bor. Bunday falsafiylik shundaki, biz to‘ntarilib qolgan aravani ko‘rsak loqayal qaramiz. U bizda unchalik qiziq tuyulmaydi. Ammo otga qo‘shilgan bo‘sh aravani tortib yelib ketayotgan ot biz uchun qiziq va beixtiyor biz o‘sha tomonga qaraymiz. Yozuvchi bu bilan aytmoqchiki, ham ibora orqali, ham o‘z ma’nosida qo‘llash orqali oldingi sovet tuzumi davrida “unday qilamiz , bunday qilamiz” deb xalqni ruhlantirib, uning tekin ishchi kuchidan muyanibirona foydalanishganiga ishora qiladi. “ bizning xalq bunga o‘rganib qolganini ham aytib o‘tmoqda.

Umuman olganda, o‘zbek mustaqillik davri romanlarining har birida sovet davrini mafkurasi xoh ishora, xoh pinhona bilinib turadi. Yozuvchi Omon Muxtor ham bu mafkurani falsafiy va ramziy qo‘llab, o‘sha davr mohiyatini ochib berishga harakat qilgan, desak mubolag‘a bo‘lmas edi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.JDPU sayti
- 2.Omon Muhtorning "Maydon" Romani
- 3."Istiqlol davri adabiyoti" H.Karimov

Soatova Ruxsora

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Nutq ko‘rinishiga hoslangan leksemalarning O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llanishi

Anatatsiya: Ushbu maqola O‘tkir Hoshimov asarlarida nutq ko‘rinishiga xos bo‘lgan leksemalarning qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asarda muallifning personajlarni aniq va jonli ifodalash maqsadida qanday til vositalaridan foydalanganligi, ularning uslubiy va badiiy ahamiyati yoritib beriladi. O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llangan leksemalar nutqiy individualizm, mahalliy sheva unsurlari, xalqona iboralar va ifoda shakllari orqali personajlarning ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiyati va shaxsiy xususiyatlarini aks ettirishda qanday yordam berishi ko‘rsatiladi.

Kalitso‘z: O‘tkir Hoshimov, leksemalar, nutqiy individualizm, til vositalari, badiiy uslub, xalqona iboralar, sheva unsurlari, personaj xarakteri, tahlil

Tilshunoslikda leksemalarning o‘rni ahamiyatli bo‘lib, u tilning lug‘aviy tarkibidagi asosiy birlik hisoblanadi. Leksema – so‘zning ma‘nosi va grammatik shakllarini o‘z ichiga olgan abstrakt birlik bo‘lib, biror so‘zning barcha shakllari va ma‘no o‘zgarishlarini qamrab oladi. Masalan, o‘zbek tilida “kitob” leksemasi “kitoblar”, “kitobning”, “kitobda” kabi shakllarni ham o‘z ichiga oladi. Bu shakllar grammatik jihatdan o‘zgaradi, lekin bir xil leksik ma‘noni saqlaydi. Leksema xususiyatlari quydagicha bo‘lib: 1. Leksik birlik sifatida umumlashuvchanligi – Leksema biror so‘zning barcha grammatik shakllarini qamrab oladi. Masalan, “yurmoq” leksemasi “yuradi”, “yuraman”, “yurayotgan” kabi shakllarni o‘z ichiga oladi. 2. Ma‘no barqarorligi – Leksema ma‘nosi o‘zgarmaydi, lekin u turli grammatik shakllarda ishlatilishi mumkin. 3. Nutq va til birliklari – Leksemalar tilning lug‘aviy birliklaridan biri bo‘lib, ular nutqda so‘z shakllari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Leksemaning asosiy turlari: 1. Asosiy leksemalar – Biror tilda keng tarqalgan, asosiy ma‘noni ifodalaydigan so‘zlar. Masalan, “ona”, “uy”, “yozmoq” kabi so‘zlar asosiy leksemalardir. 2. Qo‘shimcha leksemalar – Ma‘nosi asosiy leksemalarga nisbatan torroq bo‘lib, ular ko‘pincha murakkab tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, “kitobxona” yoki “yozuvchilik” kabi leksemalar qo‘shimcha tushunchalarni bildiradi. 3. Sinonim va antonim leksemalar – Biror leksik maydonga oid sinonim va antonim so‘zlar. Masalan, “katta” va “kichik” antonim leksemalar, “yozmoq” va “bitmoq” sinonim leksemalardir. 4. Freksiv leksemalar – Turli shaklda ma‘nosi va grammatik xususiyatlarini o‘zgartira oladigan leksemalar. Masalan, “kelmoq” leksemasi “keladi”, “keldim”, “kelayotibdi” kabi shakllarda bo‘lishi mumkin. Leksemaning tilshunoslikdagi ahamiyati. Leksemalar tilshunoslikda so‘z turkumlari, morfologiya, leksikologiya va semantikani o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ular so‘z shakllarini umumlashtirish orqali leksik ma‘no va grammatik shakllarni tahlil qilish imkonini beradi. Leksemalarni o‘rganish orqali tilning boyligi, o‘zgaruvchanligi va imkoniyatlari kengroq tushuniladi.

Nutq ko‘rinishidagi leksemalar – bu shaxsning nutqidagi uslubiy, leksik, grammatik xususiyatlar orqali uning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei, madaniy darajasi yoki hissiy holatini ifodalaydigan til birliklaridir. Bu leksemalar shaxsning nutqini, uning so‘zlash uslubini va leksik repertuarini shakllantiradi. Nutq ko‘rinishidagi leksemalarning asosiy turlari: 1. Shevaviy leksemalar – Bu turdagi leksemalar turli hududlarga xos bo‘lgan dialekt va shevalarni ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilining Toshkent, Samarqand yoki Qashqadaryo shevalarida ishlatiladigan leksik birliklar. 2. Ijtimoiy leksik xususiyatlar – Nutq ko‘rinishida shaxsning ijtimoiy mavqei aks ettiruvchi so‘zlar, iboralar va uslublar ishlatiladi. Masalan, oliy ma‘lumotli insonlar bilan oddiy qishloq kishilari nutqidagi farqlar, ya‘ni rasmiylik va oddiylik darajasi. 3. Emotsional va ekspressiv leksemalar – Shaxsning hissiy holatini ifoda etuvchi so‘zlar va iboralar. Bunday leksemalar orqali so‘zlovchining hissiy holati yoki munosabati namoyon bo‘ladi. Masalan, “hayhotday” yoki “bexabar” kabi so‘zlar shaxsiy hissiyot va munosabatni ifodalaydi. Sleng va jargonlar – Nutq ko‘rinishida shaxsning yashash muhiti va atrof-muhitiga mos so‘z

va iboralardan foydalanilishi. Masalan, yoshlar orasida ishlatiladigan zamonaviy soʻzlar yoki kasbiy jargonlar.

Nutq koʻrinishidagi leksemalarning oʻziga xosligi: Nutq koʻrinishidagi leksemalar orqali shaxsning turli xususiyatlari, masalan, yoshi, kasbi, taʼlim darajasi va hayotiy tajribasi aks ettiriladi. Nutq koʻrinishidagi leksemalar adabiyotda qahramonlarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda va ularning nutqiy individualizmini taʼkidlashda qoʻllaniladi. Nutq koʻrinishidagi leksemalarning adabiyotda roli: Adabiy asarlarda bu leksemalar qahramonlarning shaxsiy qiyofasini va ularning oʻziga xosligini yanada jonli qilib koʻrsatishga yordam beradi. Ular orqali muallif oʻquvchiga qahramonning his-tuygʻulari, yashash muhiti va ichki kechinmalarini yetkazadi. Shunday qilib, nutq koʻrinishidagi leksemalar biror shaxsning nutqi orqali uning ichki olami, shaxsiyati va ijtimoiy muhiti haqida koʻplab maʼlumotlar beradi. Bu turdagi leksemalarni tadqiq qilish nutqiy va ijtimoiy oʻzgarishlarni oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Va shuningdek leksemalarni Oʻtkir Hoshimov ham oʻz asarlarida qoʻllagan va biz ularni tahlil qilishimiz oʻrinlidir.

Oʻtkir Hoshimov asarlarida nutq koʻrinishiga hoslangan leksemalarning qoʻllanilishi turlicha tahlil qilinadi. Oʻtkir Hoshimov oʻz ijodida oʻzbek xalqining milliy qadriyatlari, hayot tarzi va shaxsiy kechinmalarini, asosan, oddiy odamlar hayoti orqali koʻrsatib beradi. Uning asarlaridagi til boyligi va ifoda uslubi oʻziga xoslik kasb etib, oʻzbek milliy ruhini aks ettiradi. Hoshimov oʻz qahramonlari nutqi orqali ularning individual xususiyatlarini, shaxsiy qiyofasini ochib berishga intiladi. Shu jihatdan, uning asarlarida qoʻllangan nutq koʻrinishiga hoslangan leksemalar tilshunoslikda diqqatga sazovor boʻlib, ularning qoʻllanilishi tahlilni talab qiladi. 1. Nutq koʻrinishiga hoslangan leksemalar va ularning xususiyatlari. Nutq koʻrinishiga hoslangan leksemalar – bu turli xil shaxsiy nutq uslublarini, qahramonlarning nutqdagi oʻziga xosligini aks ettiruvchi leksemalardir. Bu turdagi leksemalar asosan quyidagi xususiyatlarga ega: Mintaqaviy xususiyatlar: Qahramonlarning yashash joyiga mos ravishda mintaqaviy dialektlar va shevalar ishlatiladi. Masalan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo shevalari Hoshimov asarlarida qahramonlarning kelib chiqish hududiga koʻra ishlatilgan boʻlishi mumkin. Ijodiy leksika va sleng: Hoshimov, asosan, oddiy xalq orasida keng tarqalgan sleng va shevaga oid iboralarni oʻz asarlariga kiritib, ular orqali milliy ruhiyatni aks ettiradi. Erkin va xalqona iboralar: Asarlarida xalq orasida keng qoʻllaniladigan iboralar, maqollar, topishmoqlar kabi xalq ogʻzaki ijodi elementlarini ham keng qoʻllaydi. 2. Oʻtkir Hoshimov asarlarida qoʻllangan nutq koʻrinishiga hoslangan leksemalar misollari quyida keltirib oʻtiladi. Hoshimov asarlarida nutqiy xususiyatlar koʻplab oʻrinlarda qahramonlarning oʻziga xosligini koʻrsatadi. Masalan: Sohib oʻzlashgan soʻzlar: Asarlarida koʻp uchraydigan leksik birikmalar va iboralar xalq orasida keng tarqalgan holda qabul qilinadi. Masalan, “Salomat boʻling!” yoki “Esiz farzandlaringiz” kabi iboralar xalq orasidagi kundalik suhbatlarda ishlatiladigan

oddiy leksika orqali o'z ifodasini topadi. Shaxsiy xususiyatlar orqali ochilgan leksikalar: Muayyan qahramonlar o'ziga xos so'zlardan foydalanadi, bu esa ularning nutq ko'rinishini o'zgacha ko'rsatadi. Qahramonlar o'ziga xos so'z va iboralarni ishlatib, o'quvchiga o'zining shaxsiyatini namoyish etadi. Bu orqali Hoshimov o'quvchi ongida qahramonlarni jonli shaklda gavdalantiradi. 3. O'tkir Hoshimov asarlarida nutq ko'rinishiga hoslangan leksemalarning roli O'tkir Hoshimov o'z asarlarida qahramonlarning nutqini ularning ijtimoiy mavqei, yashash joyi va ruhiy holatini aks ettiruvchi ko'rinishda shakllantirishga intiladi. Shu orqali asarlari o'zbek xalqining boy va rang-barang madaniyatini, urf-odatlarini o'zida aks ettiradi. Nutq ko'rinishiga hoslangan leksemalar bu maqsadga yetishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

O'tkir Hoshimov asarlarida nutq ko'rinishiga hoslangan leksemalarning qo'llanilishi o'zbek adabiy tilining boy va o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Bu leksemalar o'zbek xalqining madaniyati, an'anasi va hayot tarzini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun Hoshimov asarlarini o'rganishda uning qahramonlari nutqidagi leksik o'ziga xosliklarni tahlil qilish o'zbek tilshunosligida alohida ahamiyatga ega bo'lib, xalq nutqidagi jonli, sodda, va xalqona iboralarni chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu kabi nutq ko'rinishiga hoslangan leksemalarni tadqiq qilish o'zbek tilining mintaqaviy va ijtimoiy xususiyatlarini yanada chuqur o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. O'tkir Hoshimov asarlarida nutq ko'rinishiga hoslangan leksemalarning qo'llanilishi o'zbek xalqining milliy ruhiyatini va madaniy merosini ifoda etishda muhim rol o'ynaydi. Uning qahramonlari nutqida ishlatilgan sheva, sleng, xalqona iboralar va emotsional so'zlashuv uslublari qahramonlarning individual xususiyatlarini ochib beradi va ularning ichki dunyosini ifoda etadi. Bunday leksemalar orqali Hoshimov o'z qahramonlari orqali xalqning jonli hayotini, oddiy insonlarning kechinmalarini va hayot falsafasini yorqin tarzda aks ettiradi. Shunday qilib, Hoshimov asarlaridagi nutq ko'rinishiga hoslangan leksemalar o'zbek adabiyotida xalqning ma'naviy merosi, yashash tarzi va milliy qadriyatlarini ko'rsatib beruvchi kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu leksemalarni tahlil qilish Hoshimov ijodining mohiyatini tushunishga va milliy tilimizning boyliklarini o'rganishga keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hoshimov O'. O'zbeklar.-T: O'qituvchi. 2006 yil
2. Karimov A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil
3. Rasulov A. Ardoqli adib.O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., "Sharq", 2001
4. Ulupov N. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma -T.:Barkamol fayz media. 2006

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., va boshqalar Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: 2009
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. III zild (Annotated dictionary of the language of Alisher Navoi's works. Volume III), Tashkent: Fan, 1984, 485 p.
7. В.А.Аврорин. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). -Л., 1975, 242-245- betlar.
8. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik (oliy ta'lim muassasalkarining bakalavriat talabalari uchun darslik). Toshkent - 2012.

Usmonova Shoir

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Abdulla Qahhor hikoyalari tahlilida ijtimoiy hayot muammolari

Annotatsiya: Abdulla Qahhor O'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo'lib, uning hikoyalari o'z davrining ijtimoiy hayotini haqqoniy va ta'sirchan tasvirlash bilan ajralib turadi. Adib o'z asarlarida insoniy qiyofani, axloqiy qadriyatlarni va zamonaviy hayot muammolarini chuqur o'rganadi. Ushbu maqolada buyuk qalam sohibi, hikoyanavis Abdulla Qahhor hikoyalari ko'tarilgan ijtimoiy hayot muammolarining asosiy mavzulari bayon qilinadi.

Tayanch so'zlar : Abdulla Qahhor, Qo'qon shahri, O'zMU, Maksim Gorkiy, "Tomshabog'", "Bemor", "O'g'ri" hikoyalari, modernization.

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo'qon shahrining Asht rayonidagi qishloqlardan birida tug'ulgan. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek hikoyachiligining otasi hisoblanadi. Shoirning otasi Abduqahhor tirikchilik o'tkazish uchun Qo'qon atrofidagi Buvayda, Yaypan, Oqqo'rg'on, Qudash, Olqor qishloqlarining biridan ikkinchisiga ko'chib yurar, oila biror qishloqda uzoq qo'nim topmasdi. Bo'lajak yozuvchi ijtimoiy holati bu ahvolda bo'lishiga qaramasdan Buvaydadagi eski maktabda dastlabdi ta'limni olib boshlaydi. Keyinchalik Oqqo'rg'on qishlog'idagi jadid maktabida o'qishni davom ettiradi. Qo'qon shahriga kelib o'qituvchilar tayyorlash texnikumida ham tahsil oladi. Shoir o'qish ilinjida Toshkentga kelib kechalari o'qib, kunduzlari "Qizil O'zbekiston" gazetasida ishlaydi. Shoir 1940-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning pedagogika fakultetini tugatadi. Talabalik yillarida shoirning she'rlari va maqolalari tez-tez chop etilib turardi. Shoir shu tariqa adabiyot olamiga kirib Kela boshladi. Abdulla Qahhorning hikoya janriga kirib kelishi, 1926-yilda Maksim Gorkiy asarlari bilan tanishishi va bu asarlar unda hikoya yozish istagini kuchaytirganini aytadi. "Men-deb yozadi adib-rus tilini Maksim Gorkiy asarlari bo'yicha o'rgandim deb g'urur bilan ayta

olaman."Chalkash" hikoyasini o'qib chiqqach menda hikoya yozishga Havasu uyg'ondi."Chalkash" Men uchun ijod namunasini o'qish,o'rganish va ishimda qo'limdan tushmayfigan kitobim bo'lib qoldi"-deydi Abdulla Qahhorning o'zlari.

Abdulla Qahhor hikoyalarining har birida davrining ijtimoiy muammolarini goh kuchli dramatize,goh achchiq satire ostida yoritiladi va buning yechimi ostida yoritiladi va buning yechimi sirliligicha qoldirilib"kitobxonning o'ziga havola etiladi". tashqari Bundan tashqari,Qahhor hikoyalarida epigraflardan unumli va o'rinli foydalangan ijodkordir , kitobxon butun hikoyani o'qimasdan turib ham epigraf orqali hikoya mazmunini anglab oladi. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi yuzasidan qilingan ishlar,monografiyalarni o'qib shunga guvoh bo'ldimki , Qahhorning ba'zi hikoyalari syujetida keltirilgan har bir voqea aynan o'zining boshidan kechirgan,o'zi guvoh bo'lgan,voqealar asosiga qurilganligi,uninh hikoyalarga kiritilgan har bir qahramon uning yaqinlari ekanligiga amin bo'ldim.Abdulla Qahhorning "Tomashabog'"hikoyasini tahlil qilar ekanmiz, "Tomashabog'"da xo'rlangan qadoqchi Hamraqul va bu bog'ning qoravuli Stokgulov hayotining achinarli Ontario tasvirlangan.Hikoya uchun tanlangan epigraf ham asar mazmunini to'laqonli ochib bergan.

“Ey bus-butun ayolati vayron o‘lan vatan,

Har go‘shasi zamonada zindon o‘lan vatan”.

“Ramuzot”

Hamraqul o'z vatanida yashasada lekin qadam bosolmaydigan joylari bor edi. “Hamraqul qadahchi bo'lib ishlardi.Kim biladi ,kecha kechqurung'i xudoyi osh yoqmadimi,yo ertalab choynak qadahlatib ketgan kishining nosida bir gap bor ekanmi...Ammo kecha ertalab ham lanjligi bor edi,shekilli, bo'lmasa hech jahonda choydan ham makkajo'xori hidi keladimi?! Uning betobligidan a'zoyi badani qaqshab ketardi.Shu bois asbob-anjomlarini yig'ishtirib,uyga ketishga qaror qildi.Yo'lda ketayotgan vaqtida “Romanska”ning qoravuli Utsa kulol ya'ni Stokgulov uni chaqirib to'xtatdi.Usta kulol Hamraqulning ahvolini ko'rib, uni bog'ga olib kirdi va qayrag'och ostidagi cho'yon ayoqli zangor eshakka o'tqizib, suv keltirdi. Hamraqul suvni ichib biroz o'ziga kelganday bo'ldi,ammo qayrag'ochdagi chumchuqlarning chig'irlashi negadir ko'nglini buzdi.U quloqlariga barmog'ini tiqib,ko'zini yumdi,biroz nafasini rostlagandan so'ng,xuddi ko'nglini bezovta qiladigan biron narsani ko'rishdan qo'rqqanday ko'zini sekin ochdi....Ko'zini ochganda Usta kulol baqirar,titrar edi. Yoshgina bir ofitser,cholning ko'kragiga tepdi,chol yiqildi.Hali es-hushini anglab ololmagan Hamraqulning ko'kragiga ham bu tepki tushdi,turishga urungan vaqti qaytadan must tushdi.Usta kulolning xotini qayerdandir paydo bo'ldi va dod-voy qildi,bu shovqindan odamlar yig'ildi .Ofitserlar ularni mirshabxonaga olib ketdi.

“-Yig'lama ! - dedi usta kulol mirshabxonaning eshigi oldida kampiriga qarab:-Men bir turmadan ikkinchi turmaga o'tayotibman,nega yig'laysan!” .Usta

kulolning bu gaplaridan,uning jamiyatda bo‘layotgan ishlardan bunday holatlar unga tanish ekanligi,xalqing og‘ir ahvoldaligi sezilib turardi.Ya’ni Stokgulovning hozirgi hayoti ham turmadagi vaziyatdan qolishmas edi.Bu mirshabxona ikki oshnani shu bo‘yin o‘z qariga tortdi.Kechki ibodat vaqtida butxona qo‘ng‘irog‘i og‘ir va uzun daranglab odamlarni ibodatga chorladi.Bu tovush shaharning uzoq nuqtalarigacha yetib boradi.To‘plangan xaloyiq nima bo‘lganini bir haftadan keyin “Turkiston o‘lkasi” gazetasida o‘qib bildi”...o‘tgan asrning 23-sentabirida mazkur shaharda Rusiya dahasidagi Romonovskiy bog‘ida ham shu qabilada beadablik sodir bo‘lgan .Chunonchi,sartiyalardan biri o‘zlariga sohiblik qilib turgan Rossiya to‘ralarining istirohatlariga kirgan,ya’ni nihoyatda beadablik qilgan...”

Yozuvchi birgina bu hikoya orqali butun xalqing muammosini yoritib berishga harakat qilgan .Bu xalqing,o‘z yurtida ham ruxsatlarsiz qadam bosolmaydigan joylari bor edi.Mustamlakachilik qilgan Rossiya xalqi bu joylarni bosib olgan, hamda o‘zlari uchun turli xil ko‘ngil ochar maskanlarni ochgan,lekin bu joylarga o‘zbek xalqining kirishi ta‘qiqlangan edi.Birgina Usta kulol va Hamraql emas, balki butun bir xalq bundan aziyat chekdi.O‘z yurtida yashasada o‘z yerlaridan, xo‘jaligidan , ...vatanidan ayrildi.Huddi o‘zga yurtlarda yurgan insonlar qatori muammo va qiyinchiliklarda yashadi.Muallif bu insonlar orqali butun bir jamiyatdagi vaziyatni ochib bergan.

“Bemor” hikoyasini tahlil qiladigan bo‘lsak,hikoya uchun tanlangan epigraf butun bir hikoyaning mazmun-mohiyatini ochib bergan.“Osmon yiroq,yer qattiq” .Bu maqol orqali uzoqdagi narsalarga inson qo‘lining yetmasligi,ammo yerdagi narsalardan ham foydalana olmasligi yoritib o‘tilgan.Asarning bosh qahramoni Sotib oldi va uning hayoti orqali,butun bir jamiyat, xalq hayoti aks ettirilgan. “Sotiboldining xotini og‘rib qoldi.U xotinini o‘qitdi,talibga ko‘rsatdi,ammo foyda ko‘rmadi.Keyin talibga olib bordi,talib bemor dan qon oldi,bemorning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘b qoldi.Baxshi o‘qidi.Bir xotin kelib,tolling xipchini bilan savaladi,tovuq so‘yib qonladi.Albatta bu ishlarni bajarish uchun pul kerak edi,bu ishlar pulsiz bitmasdi. Muallif bu jarayonlarni birgina maqol bilan ta‘riflab o‘tadi, ya’ni “Yo‘g‘on cho‘ziladi , ingichka uzuladi”. Ya’ni bunday vaqtda , boy insonlargina buning uddasidan chiqqolgan, ijtimoiy jihatdan qiynalgan insonlar esa bunday ishlarda juda ojizlik qilar edi... Shaharda o‘zi bitta doktorxonada bor edi. Bu doktorxonada to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu:salqin,tinch parkda,daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va oq imorat :shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor.Sotib oldi Abdug‘aniboy degan xo‘jayinning qo‘lida ishlar edi.Xo‘jayini chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qilardi, bir kuni omborda qoplar qulab ketib xo‘jayinini bosib qoladi.Qoplar ostida qolib o‘ladigan bo‘lganida ham shahar doktorxonasiga bormay Simga ya’ni Farg‘ona shahrida davolanadi.Sotib oldi bunday doktorxonalarni eshitganda uning ko‘z oldiga izvoshi va podshoning surat solingen yigirma besh so‘mlik pul kelar edi.

Sotib oldining xotini og‘irlashdi.Sotiboldi xo‘jaynidan yordan so‘rab oldiga bordi,ammo foydasi bo‘lmadi.Abdug‘aniboy uning arzlarini eshiti ko‘p

afsuslandi, qo‘lidan kelganda hozir xotinini oyoqqa turg‘azib berishino aytdi. Turli xil bahonalar aytti. Devonay Bahovuddinga, G‘avsul A‘zamga ko‘rinmadingmi deb savolga tutti. Bundan foyda yo‘qligini anglagan Sotiboldi ketti.

Bemorning oldidan jilmasdan ,unga qaraydigan inson kerak edi. Sotiboldining to‘rt yasharlik qizchasi hali kichkinalik qilar edi, shuning uchun Sotiboldi ishga bormasdan uyda xotiniga qarab, xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi. U ertalabdan kechgacha turli xil savatlar to‘qir edi. Qizchasi esa onasini oldida ,uni pashshalardan qo‘rir edi. Bir kechasi bemor qattiq azoblandi. Qo‘shni yordamga keldi, bir kampirni chaqirib keldi. Kampir begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘lishini va oyisining sog‘ayib ketishini aytdi. Qizcha har kuni saharda turib duo qilardi. Armon bo‘lmasin deb “Chilyosin” ham o‘qitti. Savatlarini savdo uchun oladigan baqqoldan 20 tanga qarz ham oldi. Bemor “Chilyosin” dan tetik chiqdi va qizini boshqa uyg‘otmasligini ,endi ahvoli yaxshi ekanligini aytti. Bemor shu uxlagancha qaytib ko‘zini ochmadi. Saharga borib joni uzuldi. Sotiboldi onasining oldida uxlab qolgan qizchasini olib boshqa to‘shakka o‘tkazayotganda qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan duo qila boshladi:

—Xudoya ayamdi daydiga davo beygin.....”

Yozuvchi Sotiboldining xotini orqali butun bir jamiyat bemorligini ko‘rsatib berishga harakat qildi. Bemor obrazi orqali ,mustamlakachi davlatlarning oddiy xalqqa ta‘sir etayotgan ayrim qiliqlari va kirdikorlari ochiq ko‘rsatib berilgan. Bu hikoyada Sotiboldining xotini bemor emas, balki butun bir “Jamiyat” bemordir. Mustamlakachilikning azob-uquvvatlari yer yuzining uzoq nuqtalarigacha ta‘sir qilayotgani, o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmasligi aniq qilib ko‘rsatilgan. Hikoya uchun tanlangan maqollar ham, hikoyaning mazmun-mohiyatini to‘laqonli ochib bergan. Hikoyada insonlarning bir-birlariga bo‘lgan mehr-oqibati, mehmondo‘stligi, ishonchi yo‘qolgan. Ya‘ni bazi bir yuqori qatlam egalari o‘z manfaatlaridan boshqa hech narsani o‘ylamasdi, buning natijasida oddiy xalq juda aziyat chekdi, xalq orasida tabaqalanish sodir bo‘ldi. Insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari o‘zgardi. Bunday kichik yemirilishlar , xalqning birlashuvida, o‘shish va rivojlanishida o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

“O‘g‘ri” hikoyasining tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, hikoya nomidan ko‘rinib turibdiki jamiyatdagi mansabdor kishilarning kirdikorlari ochib berilgan. Buni hikoya uchun tanlangan epigrafdan ham bilishimiz mumkin. “Otning o‘limi - itning bayrami”. Kichik bir maqol ham asar mazmunini ochib bergan. Asarning bosh qahramoni Qobil bobo sodda va tez ishonuvchan obrazdir. Uning eng katta boyligi ola ho‘kkizidir. Qobil boboning xotini xamir qilishga turib, ho‘kiz yo‘qolganini sezadi. Dod-voyidan uy oldiga odamlar yig‘iladi, olamon har xil taxminlar bilan chol-kampirning ko‘ngliga g‘ul-g‘ula soladilar. Qobil boboning qo‘shnisi ellikboshi og‘ilga kirib ho‘kiz bog‘langan ustunlarni ko‘zdan kechirib chiqdi. Ellikboshi teshilgan devorlarni ko‘rdi, Qobil boboga savollar berdi va turli xil taxminlar qo‘ydi ; devorni qanday asbob bilan teshib kirganligi, qanday qilib ob chiqib

ketganligi,qayoqqa ob ketganligi,qaysi bozorlarda sotish mumkinligi , balki shu vaqtgacha so‘yilib ketganligi haqida turli xil taxminlar Qobil boboni qo‘rqita boshladi.Hatto u yig‘lashgacha bordi,yig‘idan to‘xtab ellik boshini duo qildi. Ellikboshi bu lavozimga erishguncha ancha -muncha harajatlar qilgan edi,Qobil bobo buni e‘tibordan chetta qoldirmadi.Ellikboshi aminga murojat qilishini aytti,amin ham o‘z manfaatini o‘yladi hamda gapni olib qochib pristavga murojaat qilishini aytti.Pristav ham tegishli narsalar bilan siylangandan so‘ng,o‘ylab ham o‘tirmasdan “Aminga borilsin” dedi.Amin:“Ellikboshiga borilsin”,- dedi.Ellikboshidan sado ham chiqmadi ammo,paxtafurush qaynatasining oldiga obbordi.Egamberdi paxtafurush unga achinganidan bir emas,ikkita ho‘kiz berdi.Ammo paxtafurushning kichkina sharti bor edi,bu sharti kuzda ma‘lum bo‘ladi...”

Hikoyadan ko‘rinib turibdiki davlat amaldorlarining xatti-harakatlari, kirdikorlari sezilarli qilib tasvirlangan.Bu hikoyada birgina Qobil bobo bu holatga duch kelmagan,balki Qobil bobo obrazi orqali sodda xalqning turmush tarzi, tez ishonuvchanligi tasvirlangan.Davlat amaldorlarining o‘z mafaatlari yo‘lida bunday insonlardan foydalangani , davlatning ichki yemirilishiga sabab bo‘lgani eng katta xatosi hisoblanadi.Davlat amaldorlarining boshqaruvni to‘g‘ri yo‘lda olib borolmagan,xalqning birlasha olmaganligiga hamda modernizatsiyaning to‘xtashiga sabab bo‘ldi.

Bu hikoyalar orqali yozuvchi davlatning ichki ahvoli,turmush tarzi hamda madaniyatini ko‘rsatishga harakat qilgan.Hikoyadan to‘liq xulosa chiqara olish kitobxonning o‘ziga qo‘yib berilgan.Hikoyalar bir-biriga chambarchas bog‘liq holda tasvirlangan.Bunday shafqatsiz ocharchilik davrlarida oddiy xalqning davlat amaldorlari tomonida talangani,hikoyalarning asosiy mavzusi qilib tanlangan.Davlat tepasida turgan mansabdor shaxslar oddiy xalqdan foydalangan.Buni “Bemor” va “O‘g‘ri” hikoyalarida ko‘rishimiz mumkin. “Bemor” hikoyasida asl bemor Sotiboldining xotini emas,balki “Jamiyat bemor”dir.“O‘g‘ri” hikoyasida Qobil boboning ho‘kizini o‘g‘irlagan inson o‘g‘ri emas,balki ho‘kizni topib berish maqsadida “o‘z nafsini qondirgan shaxslar o‘g‘ri”dir. “Tomoshabog‘”hikoyasidagi Hamraqul qadahchi va “O‘g‘ri” hikoyasidagi Qobil bobo hamda “Bemor” hikoyasidagi Sotiboldi obrazlari bir-biriga ijtimoiy jihatdan bog‘langan obrazlardir.Bu obrazlar orqali jamiyatning tanazzul ahvoli,ichki yemirilishi,ijtimoiy munosabatlar,shafqatsiz adovatlar,aldanishlar va boshqa jihatlarini yoritishga katta e‘tibor qaratilgan.Har bir obraz va detallar hikoya mazmunini yanada aniqroq qilib ko‘rsatishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,o‘zbek adabiyotining atoqli va zabardast yozuvchisi Abdulla Qahhor o‘z davri bilan hamnafas holda yashadi.Ijodkor o‘z manfaatlari yo‘lida qalam tebratmadi,balki xalq darsi bilan yashadi.Abdulla Qahhor o‘z hikoyalari orqali g‘aflat uyqusida yotgan,hali o‘zligini tanib bilmagan “O‘zbek xalqi” ga murojaat bilan yuzlanadi.Yozuvchi xalqning muammolarini real

tasvirlar orqali ba'zida kulguli satira bilan ,ba'zida achchiq dramatism bilan fosh qilib kitobxonlarning qalbiga joylashga harakat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Abdulla Qahhor asarlari.Besh jildlik.Birinchi jildi: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti" 1978-y.
- 2.Marxabo Qo'chqorova "Abdulla Qahhor-istiqlol adabiyotining ko'zgasida"(monografiya).Toshkent:akademik nashr,2018-y.
- 3.Marxabo Qo'chqorova,Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari."Muharrir nashriyoti",Toshkent,2011-y.
- 4.Marxabo Qo'chqorova "O'tmishdan ertaklar tatbiqi".“Yangi asr avlodi”,Toshkent 2011-y.

Xo'rozova Yulduz

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

“Navoiy” romani va tanqidchilik

Ilmiy rahbar: Sultonova Vazira Nimatovna

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning ijodiy merosi asosida yozilgan romanlarning tanqidchilikda tutgan o'rni va ularga bo'lgan ilmiy munosabatni o'rganishga bag'ishlangan.Maqolada “Navoiy” romani janri, undagi tarixiy va badiiy unsurlar, shuningdek, tanqidchilarning bu romanlarga bergan baholari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, roman, tanqidchilik, adabiyot, badiiy asar

Аннотация: В данной статье рассматривается место романов, основанных на творческом наследии Алишера Навои, в литературной критике и научное отношение к ним. Анализируются жанр романа “Навои”, их исторические и художественные элементы, а также мнения критиков.

Ключевые слова: Алишер Навои, роман, критика, литература, художественное произведение.

Abstract: This article explores the place of novels based on Alisher Navoi's creative heritage in literary criticism and scholarly perspectives. It examines the genre, historical and artistic elements of Navoiy novels, and critics' evaluations of them.

Keywords: Alisher Navoiy, novel, criticism, literature, artistic work

Alisher Navoiy nafaqat Sharq uyg'onish davri adabiyotining, balki jahon madaniyati va san'atining ulug' namoyandalaridan biri sifatida o'zining beqiyos

ijodi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan. Uning asarlari faqat she'riy janrlar doirasida emas, balki ilm-fan, falsafa va davlat boshqaruvi sohalarida ham bebaho ahamiyatga ega. Shunday ekan, Navoiy ijodini aks ettiruvchi romanlar nafaqat adabiy, balki tarixiy va ma'rifiy jihatdan ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu romanlar shoir hayotini, faoliyatini va davrini qamrab olish bilan birga, o'z davri voqealarini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston adabiyotida Navoiy hayotini tasvirlashga bag'ishlangan romanlar mustaqillikdan keyingi yillarda yanada dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Mazkur romanlar ijodkor hayotining murakkab va ko'p qirrali jihatlarini o'quvchi ko'z oldida gavdalantiradi. Ushbu maqolada Navoiy romanlari janrining shakllanishi, tarixiy va badiiy asoslari, ularning tanqidiy baholanishi, shuningdek, badiiy-estetik ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Navoiy obrazini yoritishda adabiy jarayonning o'rni va tanqidchilarning bu boradagi fikrlari ham alohida e'tibor markazida bo'ladi.

Alisher Navoiyga bag'ishlangan romanlar janri o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu janr, asosan, tarixiy roman yo'nalishida shakllangan bo'lib, unda tarixiy voqealar va shaxsiyatlarning badiiy talqini muhim rol o'ynaydi. Navoiy romanlari janriy xususiyatlari bilan boshqa tarixiy romanlardan farq qiladi. Ularda Navoiy obrazini yaratishda mualliflar chuqur psixologik tahlilga alohida e'tibor beradilar. Navoiy shaxsining boy ichki dunyosi, uning orzu-umidlari va insoniyatga xizmat qilishga bo'lgan intilishi asarlarning markaziy mavzusini tashkil etadi.

Oybekning "Navoiy" romani Navoiyga bag'ishlangan eng mashhur asarlardan biridir. Ushbu roman tarixiy voqealar va shaxslar asosida yaratilgan bo'lsa-da, muallif o'zining badiiy tasvir vositalari orqali o'quvchiga Navoiy shaxsining murakkabligini va uning davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitni his qildirishga erishgan. Roman janriy xususiyatlariga ko'ra, tarixiy voqealar tasvirlangan bo'lsa-da, undagi dramatism va badiiylik o'quvchini o'ziga jalb qiladi.

Navoiy haqidagi romanlarni yaratishda mualliflar, avvalo, tarixiy asosga tayanganlar. Ushbu asarlar o'sha davrda yuz bergan muhim voqealarni, shuningdek, shoirning hayoti va ijodini aks ettiradi. Masalan, Oybek romanida Navoiy hayotidagi muhim davrlar – uning Husayn Boyqaro bilan do'stligi, davlat boshqaruvidagi faoliyati va shoirlik mahorati yorqin ifodalangan. Shu bilan birga, tarixiy hujjatlar va manbalarga tayangan holda, muallif voqealarning badiiy to'ldirilishini ham amalga oshirgan.

Badiiy to'ldirish orqali asarlarning ta'sirchanligi oshadi. Masalan, romanlarda Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stlik faqat tarixiy faktlarga asoslanib qolmay, balki badiiy elementlar bilan boyitilgan. Bu nafaqat shoirning shaxsiyatini yanada yorqinroq tasvirlashga, balki o'quvchiga tarixiy sharoitni chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, ayrim tanqidchilar badiiy

to'ldirishni haddan tashqari kengaytirishni tanqid qilib, tarixiy haqiqatga moslikni talab qiladilar.

Navoiyga bag'ishlangan romanlar adabiy tanqidchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayrim tanqidchilar bu asarlarning tarixiy voqealarni yoritishdagi yutuqlarini e'tirof etgan bo'lsa, boshqalari undagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tganlar. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanidagi badiiy talqin va tarixiy voqealarning uyg'unligi yuqori baholangan, ammo ayrim tanqidchilar bu asardagi ayrim voqealar tarixiy haqiqatga mos kelmasligini tanqid qilganlar.

Boshqa tomondan, tanqidchilarning bir guruhi Navoiy obrazining shakllanishidagi mahoratni yuqori baholagan. Oybek, Navoiyni nafaqat tarixiy shaxs, balki ma'naviy ideal sifatida tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Bu yondashuv o'zbek adabiyotida tarixiy roman janrining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Tanqidchilar romanlarning xalq ma'naviyatini boyitish va yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini alohida ta'kidlaydilar.

Navoiyshunoslikka oid romanlar o'zining badiiy-estetik qiymati bilan ajralib turadi. Bu asarlar nafaqat tarixiy shaxsning hayotini ochib berish, balki o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitish imkonini ham beradi. Romanlardagi badiiy ifoda, obrazlarning jonliligi, psixologik tahlilning chuqurligi asarlarning estetik ta'sirini oshiradi. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanida shoirning ichki dunyosi, uning insonparvarlik g'oyalari va xalq manfaatlariga xizmat qilish yo'lidagi kurashi jonli tasvirlangan. Ushbu asar o'quvchiga Navoiy hayoti orqali ijtimoiy-siyosiy haqiqatlarni, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglash imkonini beradi. Romanlarda qahramonning ma'naviy olami, uning atrofidagi sharoit va voqealar orqali ochib berilgan.

Navoiy haqidagi romanlar yosh avlodni tarbiyalashda va ularning milliy madaniyatga bo'lgan hurmatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu romanlar orqali yoshlar o'z xalqining tarixiy ildizlari va ma'naviy boyliklari bilan tanishadi. Shuningdek, Navoiy obrazining badiiy tasviri orqali ular insonparvarlik, vatanparvarlik va adolat kabi qadriyatlarni anglaydilar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiyga bag'ishlangan romanlar faqat o'zbek adabiyotida emas, balki umumiy madaniy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tarixiy voqealar va shaxslarni badiiy jihatdan jonlantirib, o'quvchini nafaqat o'tmishga qaytaradi, balki bugungi kunga ham ma'naviy saboqlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy haqidagi romanlar O'zbekiston adabiyotining ajralmas qismidir. Ular orqali xalqimiz boy madaniyati, tarixiy merosi va badiiy tafakkuri yanada chuqurroq o'rganiladi. Tanqidchilarning bu romanlarga bo'lgan turli qarashlari esa adabiy jarayonni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar Navoiy romanlarining boy janr

imkoniyatlarini va ularning adabiy-estetik ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fitrat, A. "Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi". Toshkent: Fan, 1981.
2. Karimov H. "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi". Toshkent: Yozuvchi, 1995.
3. Sodiqov, M. "Adabiy qahramonlar va tarix". Toshkent: Sharq, 2002.
4. Navoiy, A. "Xamsa". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1997.
5. Rajabov, S. "Adabiyot va tarixiylik". Tosh

Yangiboyeva Madina

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

Abdulla Qahhorning ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan felyetonlari

Annotatsiya: Abdulla Qahhor, o'zbek adabiyoti va jurnalistikasi tarixida o'ziga xos o'rin egallagan buyuk yozuvchi va felyetonchi, Ikkinchi Jahon Urushi davrida o'z asarlarida milliy va global muammolarni o'ziga xos uslubda yoritgan. Uning felyetonlari, urush sharoitida xalq hayotining murakkabliklarini, insoniy his-tuyg'ularni va ijtimoiy adolatsizliklarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Urush, feelyeton, adabiyot, bilim, ko'nikma, malaka.

Аннотация: Абдулла Каххор, великий писатель и обозреватель, занимающий уникальное место в истории узбекской литературы и журналистики, в своем неповторимом стиле освещал в своих произведениях национальные и глобальные проблемы в годы Второй мировой войны. Его фельетоны содержат сложности народной жизни, человеческие эмоции и социальную несправедливость во время войны.

Ключевые слова: Война, философия, литература, знания, умения, компетентность.

Annotation: Abdulla Qahhor, a great writer and columnist who has a unique place in the history of Uzbek literature and journalism, covered national and global issues in his works during the Second World War in his unique style. His feuilletons contain the complexities of people's life, human emotions and social injustices during the war.

Key words: War, philosophy, literature, knowledge, skills, competence.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan Abdulla Qahhor 1907- yili Qo‘qon shahrida temirchi oilasida dunyoga keldi. O‘rta ma‘lumotni Qo‘qonda olgan Abdulla 1925 -yilda Toshkentga kelib, “Qizil O‘zbekiston” gazetasida ishlaydi.

U O‘rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida (1930) tahsil oldi. Yozuvchi “Sovet adabiyoti” jurnalida mas’ul kotib, O‘zbekiston Davlat nashriyotida muharrir lavozimlarida ishladi (1954–1956). Abdulla Qahhorning ijodi 1924-yildan boshlangan. Dastlab “Mushtum” jurnalida, “Yangi Farg‘ona” gazetasida uning hikoya, felyeton, xabarlar bosildi. Yozuvchining “Olam yasharadi” nomli birinchi hikoyalar to‘plami 1935 -yilda chop etilgan. 30-yillarda adibning uchta “Hikoyalar” to‘plami (1935,1938,1939) kitobxonlar qo‘liga tegdi. Bu davrda Abdulla Qahhor kichik hikoyalardan tashqari “Sarob” (1935) romanini yozdi. Urush yillarida yozuvchining bir qancha felyeton, ocherk va hikoyalari e‘lon qilindi. “Asror bobo”, “Dardaqdan chiqqan qahramon”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinlar”, “Oltin yulduz” kabi o‘nlab hikoya va qissalarida o‘zbek [jangchilarining mardligi](#), xalqimizning mehnatdagi jonbozliklari, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. Yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan “Qo‘shchinor chiroqlari” (1951) romani jamoalashtirish mavzuiga bag‘ishlangan. U o‘zining “Shohi so‘zana” (1951), “Og‘riq tishlar” (1954), “Tobutdan tovush” (1962), “Ayajonlarim” (1967) komediyalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Ayniqsa, “Shohi so‘zana” pyesasida dramaturg qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish mavzuini zo‘r mahorat bilan yoritdi. Pyesa respublikamiz va qator xorijiy mamlakatlar sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish qilindi. Yozuvchining “Sinchalak” (1958), “O‘tmishdan ertaklar” (1965), “Muhabbat” (1968) qissalari o‘zbek nasrining taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

U “O‘tmishdan ertaklar” qissasi uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. “O‘zbek kitobxonlari Abdulla Qahhor tarjimasida M. Gorkiyning “Mening dorilfununlarim”, N.V. Gogolning “Revizor”, L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani (I, II kitoblari) va boshqa bir qator asarlarni o‘z ona tillarida o‘qishga muvaffaq bo‘lganlar”. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan. Gapning indallosini aytsak, adabiyotimizning mustaqillikdan keyingi qiyofasini men boshqacha tasavvur qilganman. Istiqlol adabiyoti — haqiqat adabiyoti, shijoat adabiyoti, havasga arzigulik hurriyat va ma‘rifat adabiyoti o‘laroq shakllanadi deb o‘ylaganman. Yurti ozod, tili, dili erkin ijodkor nega mutelik va ojizlikka ko‘nsin? Yolg‘on va tilyog‘lamalikka ne hojat? Sayozlik, maddohlik, ofarinbozlikdan ijod ahli har qalay xalos bo‘lar deb umid qilganman. Iste’dodsiz [ijodkorlar](#), yaroqsiz asarlarning yo‘li to‘silishiga ishonch bo‘lgan menda. Qarangki, xayol boshqa — hayot boshqa ekan... Adabiyot taqdiri yurt va millat taqdiri bilan uzviy bog‘liq.

Millat ruhi butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan avvalo, adabiyotda aks etmog'i lozim. Millatning qalb dardlariga ham dastlab adabiyot malham topadi. Chunki xalqning yashash zavqi susaysa — g'ayrati susayadi. Ma'naviy-ruhiy g'ayrat pasaysa — fikr va tashabbus to'xtaydi. Bunga birinchi navbatda adabiyot mas'ul. Abdulla Qahhor aytganidek, "Adabiyot atomdan kuchli..." Agar uning kuchi "o'tin yorish"ga sarf qilinmasa, adabiyot pokiza va muqaddas ish bo'lib qolsa, hech shak- shubha yo'qki, badiiy so'zning kuch-quvvati ortib boradi. Mustaqillik arafasida, ma'lum bir muddat undan keyin ham G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi buyuk adiblar ijodiga bir oz bepisand, shubha bilan qaraganlar ham bo'ldi. [Ularning ijodiy yutuqlari](#), milliy adabiyotning haqiqiy adabiyot bo'lishi uchun chekkan zahmat va azoblarini nazarga ilmaganlar ham maydonga chiqqa boshladi. Ammo bunday noto'g'ri munosabat natijasida adabiyotimiz rivojlanib qolgani yo'q. Aksincha, ikki jumla fikrni eplab yozolmaydigan, ijod mohiyatini nihoyatda yuzaki tushunib qog'oz qoralaydiganlar safi kengayib ketdi. O'quvchilar oldida adabiyotning qadr-qimmatini, yozuvchining obro'-e'tibori pasaydi. Agar badiiy ijodga Abdulla Qahhor yoki Oybek nigohi bilan qarab, ularning badiiyat maktabidan ta'lim olib, tajribalaridan xulosalar chiqarilganida shunday bo'larmidi? Menimcha, ahvol nisbatan boshqacha bo'lur edi. E'tibor bergan bo'lsangiz, keyingi vaqtlarda yozuvchilar yangi asarlari necha sahifadan iborat ekanidan ham g'ururlanib gapiradigan bo'lib qoldi: "Men falon betlik hikoya yozdim, yuz ellik betlik essemni tugatdim" va hokazo. Yozuvchining [asar badiiyati haqida emas](#), hajmi to'g'risida so'zlashi nimani anglatadi? Beixtiyor Abdulla Qahhorning so'zlari xotirga keladi: "Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak. Lekin yozilgan narsani o'chirish, kitobxonga zarur narsanigina qoldirish uchun talantning o'zigina kifoya qilmaydi, insof ham kerak". Taassufki, hozirgi paytda insofli iste'dodlar kam, iste'dodsiz beinsoflar ko'proq. Aytishlaricha, Mirtemir domlaga bir tavsiyanoma zarur bo'lib qolganida Abdulla Qahhorga murojaat qilgan ekan. Shunda Abdulla Qahhor Mirtemirga "Ziyod va Adiba" kabi badiiy jihatdan bo'sh asarlarga muharrirlik qilganini eslatib, tavsiyanoma bermasligini bildirgan ekan. O'zingiz ayting, Abdulla Qahhor adabiyot manfaatini hatto iste'dodli ijodkor manfaatidan ham yuksak qo'ymagan. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligining rivojida Qahhorning o'rni, hissasi nihoyatda katta. XX asr yangi o'zbek adabiyotida realistik hikoya janrining [shakllanishi va rivoji](#), avvalo, shu adibning nomi bilan bog'liq. To'g'ri, Qahhorga qadar ham ayrim yaxshi hikoyalar yozilgan. A. Qodiriyning "Uloqda", Cho'lponning "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" asarlari o'zbek adabiyotida realistik hikoyalar yaratish yo'lidagi dadil intilishlar bo'lgan edi.

Qahhor ana shu tajribalarga tayanib, o'zbek hikoyachiligini zamonaviy jahon hikoyachiligi darajasiga ko'tardi va o'zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. "Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo'yish mumkin", — deb yozgan edi rus tanqidchisi V. Smirnova. Shunday savol tug'iladi:

Nega yozuvchining ilhom to‘la mahorat bilan yozilgan eng barkamol hikoyalari, xususan, o‘tmishdan olib yozilgan novellalari 30-yillarning ikkinchi yarmida maydonga keldi? Bu hikoyalar maydonga kelgan davrni eslaylik. Totalitar rejim siyosati, Stalin qatag‘onlari, inson haq-huquqlari sha‘nini toptash avjiga chiqqan yillar edi bu davr. Ana shunday bir sharoitda ko‘plab qalamkashlar sho‘ro davrini, partiya siyosatini, xalqlar dohiysini sharaflab asarlar bitayotgan bir pallada Qahhorning sovet voqeligini qo‘yib, kechmishga yuz o‘girishi, zamonning ilg‘or kishilari, [ijobiy qahramonlari qolib](#), qandaydir kichik odamlar, qoloq kimsalar hayotidan asarlar yozishini qanday baholash mumkin? 30-yillarda Qahhorni kechmish haqida, haq-huquqi, insonlik sha‘ni poymol etilayotgan, xo‘rlangan, tahqirlangan kichik odamlar, nodon kimsalar haqida yozishga ilhomlantirgan bosh omil aslida adibning zamonasiga munosabati emasmikan? Bunday tamoyil 40-yillarda yozilgan qator asarlarida ham davom etdi. Adib dunyoga kelib, [esini tanib](#), ilk bor ko‘nglida og‘ir taassurot qoldirgan narsa — hayotda keng tarqalgan tengsizlik, mutelik, fikrlashdan mahrumlik, qullik psixologiyasidir. Yozuvchining ilk muvaffaqiyatli chiqqan hikoyasi “Boshsiz odam”dayoq mustaqil fikrlashdan mahrum, mute bir kimsaning hajviy xarakteri yaratilgan. Shundan keyin yozuvchi butun ijodi davomida bu toifa nomustaqil, mute odamlar obraziga takror-takror murojaat etadi. Har gal bu ijtimoiy illatning qandaydir yangi bir qirrasini ochadi. Shaxs erki, huquqi, mutelik, qullik psixologiyasi ifodasi, talqini bobida XX asr adabiyotida Cho‘lpon an‘analarini eng izchil davom ettirgan adib ayni shu Qahhorning o‘zidir. Qahhorning yuqorida tilga olingan asarlari, personajlari xuddi Cho‘lpondagi kabi mustabid tuzum sharoitida inson haq-huquqining poymol etilishiga qarshi o‘ziga xos isyondir.

Xulosa

Abdulla Qahhorning Ikkinchi Jahon Urushi yillarida yozgan felyetonlari, urush sharoitining murakkabligini va insoniyatning og‘ir sinovlarini chuqur aks ettiradi. U o‘z asarlarida urushning ijtimoiy, iqtisodiy va ruhiy ta’sirlarini, shuningdek, xalqning umid va sabr-toqatini yoritishga intiladi.

Qahhor felyetonlarida ironiya va satira orqali muammolarni ochib berishi, o‘quvchilarni o‘ylashga, jamiyatdagi adolatsizliklarga e’tibor qaratishga undaydi. Felyetonlarida urushdan kelib chiqadigan qiyinchiliklar, qochqinlar va ijtimoiy tarangliklar, shuningdek, insoniy his-tuyg‘ular va umidlar markazda turadi.

Uning asarlari nafaqat adabiy yutuq, balki o‘sha davrdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitni tushunishga yordam beradi. Qahhorning felyetonlari, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan holda, insoniyat tarixining og‘ir sahnalarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali, urushning insoniyatga ta’siri va xalqning ruhiy holati haqida chuqur fikr yuritish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmon Qo‘chqor. Men bilan munozara qilsangiz... –T.: “Ma’naviyat”, 1998, 4-bet
2. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet“, 1999.
3. <https://kh-davron.uz>
4. <https://oyina.uz>

Keldiyorova Dinora

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida ayol ruhiyati masalasi

Ilmiy rahbar: Hamroyeva Gulmira

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarda ruhiyat tushunchasi haqidagi nazariy ma’lumotlar hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romani tahlili va o‘zbek qizi hayotning talotumlarida qanday dosh berishi, uning ruhiyati yoritilishi maqsad qilingan. Asarda uchraydigan ijobiy va salbiy obrazlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: insonshunoslik, ruhiyat, Bonu, yoshlik, ishonuvchanlik, vafo, sadoqat, sabr-matonat, iroda

Annotation: This article aims to provide theoretical information about the concept of spirituality in works of art, as well as the analysis of Iqbal Mirza's novel "Bonu", how an Uzbek girl copes with the turmoil of life, and her spirituality. An analysis of the positive and negative images found in the work is presented.

Key words: anthropology, spirituality, Bonu, youth, reliability, loyalty, patience, will.

Аннотация:Целью данной статьи является предоставление теоретической информации о концепции духовности в произведениях искусства, а также анализ романа Икбала Мирзы «Бону», того, как узбекская девушка справляется с жизненными неурядицами, и ее духовности. Представлен анализ положительных и отрицательных образов, встречающихся в работе.

Ключевые слова: антропология, духовность, Бону, молодость, надёжность, верность, терпение, воля.

Adabiyot insonshunoslikdir. Chunki hech qaysi sohada inson ruhiyati adabiyotdagidek keng yoritib berilmaydi. Badiiy asarlarni tahlil qilayotganimizda unda ishtirok etgan obrazlarning ichki dunyosi, kechinmalari, iztiroblari, o‘y-fikrlarini, bir so‘z bilan aytganda, ularning ruhiyatini o‘rganamiz. Ularning ruhiyatini o‘rganish orqali yozuvchining asarda ilgari surgan g‘oyasini, uning ruhiy dunyosini anglaymiz. Badiiy asarlarda inson ruhiyatining o‘rni haqida Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” asarida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: “Biror asar hatto tashqi jihatdan badiiy adabiyot asariga juda o‘xshab ketganida nusxasi hisoblangan holda ham agar o‘sha asarda inson va uning kechinmalari tasviri bo‘lmasa, badiiy adabiyotdan joy ololmaydi”.[1] I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.–B. 103

Badiiy asarida ruhiyat masalasiga chuqur e‘tibor qaratgan Iqbol Mirzo o‘zining “Bonu” romanida bosh qahramonning ruhiyatini mahorat bilan yaratadi. Ijtimoiy hayotning sinovli po‘rtanalari iskanjasida qolib, oriyati va vijdonini omon saqlagan irodali, sabr qanoatli qiz siymosi yaratilgan. Yozuvchining ushbu romani Bonu ismli muallima tilidan maktublar, to‘g‘rirog‘i, telegram xabarlar tarzda bayon etilgan. Romanga so‘zboshi yozgan Ibrohim G‘ofurov bosh obrazga shunday ta‘rif beradi: “Bonuning tabiiy samimiyati, tabiiy oriyati o‘quvchini rom etadi va bizga harakatdagi kurashchanlik namunasi bo‘lib tuyiladi” .[3]http://t.me/mutolaa_sehri.IqbolMirzo/Bonu

Asarning bosh qahramoni Bonuning hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlari asar kompozitsiyasini tashkil qiladi.Asarda Shoira opa, Dilbar kabi obrazlar ham o‘z o‘rniga ega. Asarni tahlil qilayotganimizda, avvalo, ayol ruhiyatiga e‘tibor qaratishimiz lozim.Chunki asarning bosh qahramoni bo‘lgan Bonu obrazi barcha ayollarga ibrat bo‘la oladi. U har qanday vaziyatda bo‘lmasin, avvalo, o‘zligini, ayol ekanligini unutmaydi. Hayot uni davomiy imtihondan o‘tkazadi. Dastlab Bonuning hayoti havas qilsa arzigulik edi. Yoshligidan ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni o‘rgandi. Qolaversa, chiroyda ham tengi yo‘q edi. Maktabda o‘qib yurgan vaqtlari barcha sinfdoshlari havas qilardi. Hatto uning husniga hasad qiladiganlar ham topilardi. Shunday insonlarga javob bergandek, uning husni yanada ortaverardi. Talabalik yillarida ham uning husniga mahliyo yigitlar talaygina edi. Tanlovlarda ham uni tanlab olishar, hatto jurnallarda ham rasmlari bosib chiqilgan edi. Shu paytlari bundan baxtiyor inson yo‘q edi. U dunyoni husni

orqali ko‘ra bilardi, hayotini bu qadar o‘zgarishini o‘ylab ham ko‘rmagan edi. Chunki Bonu bu paytda yosh edi. Hayotda qadam-baqadam bosib o‘tilishi kerak bo‘lgan to‘siqlardan bexabar edi. Uning ruhiyatida soddadillik, yoshlik, g‘o‘rlik, atrofidagi barcha insonlarga bo‘lgan ishonch tuyg‘usi bor edi. Dunyoni faqat xursandchilikdan iborat deb o‘ylardi, lekin uni oldinda katta sinovlar kutib turardi. Bobosi vafot etganda hayot unga dastlabki zarbani berdi. Keyinchalik esa bu zarbalar bir-biriga ulandi. Talabalik yillarida Olmos ismli yigitga ko‘ngil qo‘yadi. Olmos ham Bonuga munosib edi. Ammo ma‘lum vaqt o‘tganidan so‘ng Bonunning tanasida oq dog‘lar paydo bo‘la boshladi. Uni esa oldinda yana bir sinov kutib turardi, ya‘ni Olmos bergan va‘dalarini bajara olmadi. Bonuning ishonuvchanligidan ustalik bilan foydalanadi. Ikkisining muhabbati esa shu yerda nihoyasiga yetdi.

Bir qaraganda, ikkisining ajralishiga faqatgina Bonuning kasalligi sabab bo‘lishi mumkin, lekin masalaning ikkinchi tomoni ham borki, uni quyidagi o‘rinda ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni Bonuning dadasi vafot etganida Olmos ham ularnikiga borgan edi. Ularnikida birinchi e‘tibor qaratgan narsa ularning xonadoni edi. Vaqti kelganda Olmas Bonuga uni birinchi ko‘rganda yurish-turishidan o‘ziga to‘q oilaning farzandi deb o‘ylaganini aytgandi. Ikkisining muhabbati nihoyasiga yetgan bo‘lsa-da, Bonuning qalbiga bir umrga muhrlandi. Hattoki bo‘lib o‘tgan voqealar Olmosning domlasining ham ko‘zlarini yoshladi. Bonu bunday sinovlarni yolg‘iz o‘zi yengib o‘tadi. Ayniqsa, shaharda o‘qib yurgan vaqtlari hamqishlog‘i Yusufga ishonib, barchaning oldida yuzi shuvit bo‘lishiga bir bahya qolgan edi. Buning sababi ham ishonuvchanlik, undagi g‘o‘rlik natijasi edi. U shifoxonada vaqti dadasi kelganida “Hozir Xudo dahshatli zilzila solsa-yu, hamma shu ofat bilan ovora bo‘lsa-yu, meni esdan chiqarsa” [3] degan fikr xayolidan o‘tadi. Bu vaziyatda Bonuning so‘zlaridan uning ruhiyatida ham qo‘rquv, ham uyat va shu bilan birgalikda tushkunlik ustunlik qilganini ko‘rishimiz mumkin. Bunday vaziyatlarning barchasiga dosh berish uchun Bonu o‘zida kuch topa oldi. U yolg‘iz o‘zi musofir yurtga tog‘asiga ishonib borgan edi, ammo u bu vaqtda ham yolg‘iz o‘ziga suyanishga, sabr qilishga majbur bo‘ladi. Bonuning dadasi bir vaqtlari tog‘asiga yordam beradi, o‘z xonadonidan joy beradi. Ammo uning qilgan ishlari har bir kitobxonda unga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otishi, tabiiy. Ammo hayotda hamma ham bir xil emas. Hayotda iymonli, insofli, diyonatli insonlar ham bor. Asardagi ana shunday obrazlardan biri Alisher obrazidir. U har kimning ham qo‘lidan kelavermaydigan ishni qildi. O‘zi tanimagan, bilmagan Bonuni musofir yurtda o‘z singlisidek himoya qildi. Bonu yuqoridagi vaziyatlarning hech birida sarosimaga tushmadi. Chunki u haqiqiy sabr-matonat egasi edi. Shu bilan birgalikda u musofirlik vaqtlari haqiqiy o‘zbek ayoli ekanligini yana bir bor isbotladi. Ya‘ni Alisherning yordami bilan lo‘lilar uyida ishlaganida, o‘zining jonini xatarga qo‘yib bo‘lsa-da, oilaning ikki farzandini saqlab qoladi. Uni bir necha bor yerga urishlariga kamsitishlariga qaramay, ulardan yordamini ayamaydi. Chunki unda ko‘pchilik insonlarda yo‘qolib borayotgan insoniylik tuyg‘usi bor edi.

Bonuda kechira olishning mavjudligi ham barchamizni e'tiborimizni tortadi. U Olmosning qilgan ishlaridan keyin uni kechirmasligi ham mumkin edi. Ammo Bonunning qalbida unga bo'lgan muhabbat, garchi Bonudan voz kechgan bo'lsa-da, bir umrga muhurlangan edi. Olmos ba'zi vaqtlari do'st sifatida unga qo'ng'iroq qilib turar edi. Olmos farzandli bo'lganda Bonuga telefon qilib, qizining ovozi eshittirgandagi Bonuning vaziyatini so'z bilan ta'riflash mushkul.

Bonu xastalanganidan keyin uning yaqinlari kasallikni yo'qotish uchun chora qidirishadi. Lekin barchasi bekor bo'lardi. Uni Xo'ja Ubbon ziyoratiga olib borganda ham unda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Kechalari bepoyon sahroda yolg'iz o'zi kechib yurardi. Uni eshitadigan odamni qidirardi va u shunday insonni ham uchratadi. U "Huvaydo" bobo edi. Ammo "Huvaydo" boboning vafotidan so'ng esa o'zining tili bilan aytganda iloji bo'lganda ham eshitadigan odam yo'q edi. Shu sababli ham "Huvaydo" bobo uning aziz insonlari qatoridan joy oldi.

Asarda uchraydigan ayol obrazlaridan yana biri Shoira opa obrazidir. U Bonuni qiyin kunlarida ham yolg'iz tashlab qo'ymaydi. Bonuga yaqinlari qilmagan yaxshiliklarni qiladi. Turmush o'rtog'i Ikromiddin aka nohaq qamalganidan so'ng Shoira opaning ham baxtli hayoti izdan chiqdi. Shunday vaziyatda ham Shoira opa halol mehnat qildi. Farzandlari uchun yashashga kuch topdi. Bonu ham bu vaziyatni shunchaki kuzatib turmadi. Shoira opa va Ikromiddin akaning unga qilgan yaxshiliklarini qaytarish vaqti yetganligini sezdi. O'zi qiyin vaziyatda bo'lsa-da, ularga yordamini ayamadi.

Asardagi yana bir ayol obraz – bu Bonuning onasi. Onasi Bonu uchun dunyoda yagona tayanch, ustun edi. Onasi uning tuzalishi uchun kimdan kasallikka davo eshitganda shuni qo'llaydi. Bonu uchun barchasiga rozi bo'ladi, uning quvonchli kunida ham, sinovli kunlarida ham yonida bo'ladi. Asardagi salbiy obrazlardan biri Dilbar obrazidir. Uning uchun insoniylik, vijdon, inson qadr-qimmatining hech qanday ahamiyati yo'q. U uchun faqat pul, mol-dunyo bo'lsa bas. Bonu esa Dilbar uchun haqiqiy namunadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz Bonu obrazida vafo, sadoqat, iroda, sabrmatonat, insoniylik fazilatlarini o'zida mujassam etgan ayol siymosini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent. 1978.
2. I. Mirzo. Bonu. – Toshkent. 2016.
3. http://t.me/mutolaa_sehri.IqbolMirzo/Bonu

Ergasheva Aziza

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Daryo o'zanlari tustashganda

Annotatsiya: Ushbu maqolada Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" va Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissalari o'zaro qiyosga tortilgan. Asarning o'xshash jihatlari tahlil qilingan.

Annotatsiya: In this article Luqmon Bo'rixon "Quyosh hali botmagan" and Tog'ay Murod's "Yulduzlar mangu yonadi" are compared.

Аннотация: В данной статье сравниваются рассказы Лукмана Борихана "Куйош хали ботмаган" и Тогай Мурада "Юлдузлар мангу йонади".

Kalit so'zlar: kurash, ustoz mahorati, do'stlik, muhabbat, qadriyat.

Keywords: struggle, teacher skills, friendship, love, value.

Ключевые слова: борьба, мастерский навик, друзья, любовь, ценность.

Badiiy adabiyotda bevosita xalqning hayoti, yurish-turishi, faoliyati aks etgan bo'ladi. Zamonlar o'zgargani sayin badiiy adabiyotning ham muhiti, mavzu doirasi o'zgarib boraveradi. Aynan mustaqillikdan keyingi ijodkorlarning asarlarining g'oyasi mustaqillikdan oldingi ijodkorlarning asarlaridan farqli ravishda o'zgarganligini ham ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan ba'zi bir asarlar bir-biriga o'xshab ham ketadi. Xususan, Surxon vohasining farzandlari bo'lmish Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" va Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissalari ham mavzu jihatdan bir-biriga yaqin turadi.

Yozuvchi Tog'ay Murod "Gazetaga interv'yu" maqolasida o'z savoliga o'zi shunday javob beradi: "Adabiyot qasrini qanday zabt etsa bo'ladi?"

Adabiyot darvozasidan qanday kirsam bo'ladi? Asl ijodkor adabiyot qasrini o'z asarlari bilan zabt etadi. Asl ijodkor el-yurtga "ura-ura" gaplari bilan emas, badiiy asarlari bilan xizmat qiladi."⁴ Tog'ay Murod o'z asarlari bilan adabiyot qasrini zabt etgan yozuvchidir.

Yozuvchilar qissalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ikkala asarda ham milliy an'analarimizdan biri hisoblangan kurash asosiy o'ringa chiqadi. Aynan ikki asarda ham voqealar kurash tushish bilan boshlanadi. Jumladan, "Yulduzlar mangu yonadi" qissasining bosh qismida polvonlarning kurashi tasvirlanadi, polvonlar yigitlik g'ururi, insonlik sha'ni, qolaversa qishloqdoshlari ori uchun ham kurashga tushishadi.

"Quyosh hali botmagan" qissasida ikki do'st Norsoat va Davronning tanishishi ham kurash tushish orqali bo'ladi. Kengsoy qishlog'iga endigina ko'chib kelgan Norsoat "Kengsoy burgutlar"iga yo'liqadi, shunda jamoa sardori, Quvondiq raisning o'g'li Davron Norsoatni jamoasiga qo'shish uchun uni bir yigit bilan

⁴ <https://forum.ziyo.com>

kurash tushirib ko‘radi. Kurashda g‘olib bo‘lgan Norsoat bilan Davronning do‘stligi shu yerdan boshlanadi.

“Adabiyot xalq hayotini aks ettirar ekan, u, albatta, ijtimoiy turmushdagi milliy, umuminsoniy jihatlarni badiiy ifodalashi tabiiy holder. Milliylik va umuminsoniylik adabiyotning ruhida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli, milliylik va umuminsoniylik estetik hodisa hamdir. Milliylik va umuminsoniylik estetik kategoriya sifatidagi mohiyatini to‘g‘ri anglamay turib, badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlarini, o‘ziga xosligini ijtimoiy-estetik vazifasini-hayot bilan adabiyot o‘rtasidagi dialektik munosabatni tushinish mushkul.”⁵-deb ta’kidlab o‘tgan edi adabiyotshunos T. Boboyev.

Shuningdek, ikki qissada ham kurashchilarning oriyati kuchliligini ko‘rishimiz mumkin. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida kuragi yerga tegmagan Bo‘ri polvon Ismoil polvondan mag‘lub bo‘lgandan so‘ng, o‘z ori uchun Ismoil polvonning ortidan qolmaydi, va nihoyat bitta to‘yda u bilan kurash tushib Ismoil polvonni ag‘darib soladi. “Quyosh hali botmagan” qissasida esa Norsoatdan g‘irromlik tufayli yengilgan Davron kurashning g‘irrom bo‘lganligini hech kimga isbot qilolmaydi, natijada Norsoat bilan qayta kurashish maqsadida yillar davomida tayyorgarlik ko‘radi, ko‘plab natijalarga erishadi. Va nihoyat Absal polvon xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan kurashchilar musobaqasini ochib berish uchun Davron bir paytlardagi yaqin do‘sti bilan kurash tushadi va ataylab Norsoatga yengilib beradi. Shu tariqa o‘rtada bo‘lib o‘tgan barcha gina -quduratlar unut bo‘ladi.

Qissalarning yana bir o‘xshash jihati qissalardagi ikki do‘stning bitta qizga ko‘ngil qo‘yishida. Aynan ikki qissada ham do‘stlar o‘rtasidagi sovuqchilikka bitta qizni yoqtirib qolganligi sabab bo‘ladi. Ammo “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Bo‘ri polvon yoqtirgan qizi Momogulga yetisha olmaydi, aksincha “Quyosh hali botmagan”da esa Norsoat Tanliza bilan turmush quradi. Bu ham qissalarning voqealardagi farqlardan biridir.

L.N. Tolstoy “Tirilish ” romanida shunday yozadi : “Har bir odamda insoniy xususiyatlarning kurtagi bo‘ladi. Odam shu xususiyatlarning goh birini, goh boshqasini namoyon qiladi, ba’zan o‘sha odamning o‘zi butunlay o‘zgarib ketadi. Ba’zi odamlarda shu o‘zgarishlar juda keskin namoyon bo‘ladi.”⁶

Qissalardagi voqealar rivoji insonlarning xarakteriga ham bevosita ta‘sir qilib asardagi obrazlarning hayot tarzini bevosita o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Axir I. Sulton aytganday: “Adabiyot-xarakterlar yaratish san‘ati.”⁷

“Quyosh hali botmagan” qissasidagi Tanzila obrazi ham katta o‘rinni egallaydi. Muallif qizni qat’iyatli, sabrli, sho‘x qilib tasvirlaydi. Uning bu xislatlarini

⁵<https://hozir.org>

⁶ H. Umurov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 63-bet

⁷ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, -49-bet.

Norsoat tushkunlikka tushib qolgan paytda hayotga qaytarganida, unga dalda bo'lgan o'rinlarida ko'rishimiz mumkin. Tanzilaning Norsoatni o'ziga tortgan jihati ham sho'x va go'zalligida bo'ladi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi Momogul o'zining o'tli nigohlari bilan Bo'ri polvonni o'ziga rom etgan edi. Obraz tasvirini muallif juda ajoyib bo'yoqlar orqali jonli tasvirlab beradi.

"Quyosh hali botmagan" qissasidagi Davron obraziga to'xtaladigan bo'lsak, u akalaridan farqli ravishda qat'iyatli, qaysar, sho'x shu bilan bir qatorda mard o'spirin yigit sifatida tasvirlanadi. Shu sababli ham otasi -Quvondiq raisning undan umidlari katta bo'ladi.

Qissadagi Norsoat obrazini Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asaridagi Bo'ri polvon obrazining mantiqiy davomi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki aynan ikki obraz ham kurashni milliy an'analarga sodiq qolgan holda davom ettirishadi.

Shu o'rinda shuni ham aytib o'tishim joizki, badiiy asarning bevosita yaratuvchisi hisoblangan yozuvchi o'z ichki dunyo, shaxsiy tajribasi va ijogkorlik mahoratiga tayanib yangi bir asar yaratadi. "Adabiy talqin nafaqat davr, ijtimoiy shart-sharoit, hayotda mavjud voqea-hodisa, xarakter va holatlar, yozuvchi tasviriga ko'chgan sitiutsiya va konfliktlarga bog'liq, balki birinchi navbatda bu xarakter, holat-kayfiyat, konfliktlarni badiiy obrazlarda gavdalandiruvchi, hayotning original badiiy kartinasini yaratuvchi ijodkor inson- san'atkorga bog'liq"⁸, - deb yozadi adabiyotshunos O'.Nosirov.

Shunday ekan bir o'lkaning farzandi, Surxondaryoning daryosidan qongan yozuvchilar asarlarining g'oyaviy-tematik ko'lamining kengligi, asar tilining sodda va xalqchil yozilganligi, asarda milliy o'ziga xoslikning aks etganligi bilan boshqa asarlardan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://forum.ziyo.com>
2. <https://hozir.org>
3. H.Umurov. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 63-bet

Asadullayeva Marjona

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Solih mahdum va Inoyat oqsoqol muqoyasasi

⁸ O'.Nosirov. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. -T: "Fan", 1981. _ .75.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani qahramoni Solih mahdum va Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi qahramoni Inoyat oqsoqolni tahlil etish va bu ikki obrazning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash maqsad qilib olingan. Badiiy tahlilning genetik, tipologik, funksional, psixologik, filologik kabi tahlil turlaridan foydalanildi.

Kalit so‘z : “Mehrobdan chayon” , “Ufq”, Solih mahdum , Inoyat oqsoqol

Abstract: This article aims to analyze Solih Makhdum, the hero of Abdulla Qadiri’s novel, “Mehrobdan Chayon”, who left an indelible mark in Uzbek literature. Inoyat Aksaqal, the hero of the “Ufq” trilogy and to identify the similarities and difference between these two characters.

Keywords : “Mehrobdan chayon”, “Ufq”, Solih makhdum, Inoyat aksaqal.

“Mehrobdan chayon” va “Ufq” romanlari o‘z davrining, balki hozir ham minglab muxlislariga ega asarlar hisoblanadi. Bu asarlarda xalqimizning tarixi ijtimoiy hayoti ro‘yi-rost tasvirlangan. Bu ikki romandagi ba’zi obrazlar bir-biriga yaqin umumiy jihatlarga egadir. Masalan: “Mehrobdan chayon” romanida Solih mahdum, “Ufq” trilogiyasida esa Inoyat oqsoqol. Badiiy asardagi har bir obraz xoh to‘qima bo‘lsin , xoh hayotiy prototip asosida yaratilgan bo‘lsin unda, albatta, turmushda uchrab turadigan insonlar haqida hikoya qiladi. “Turmushning turli sohalarida ishlashim natijasida men o‘zbeklarning urf-odatlarini ular ichida uchrayturg‘on tiplarni o‘rganoldim”⁹ deb yozadi Qodiriy. Demak , o‘z-o‘zidan ma’lumki , Solih mahdum ham Inoyat oqsoqol han aynan yon atrofimizda uchratish mumkin bo‘lgan insonlarning badiiy asardagi aksidir.

“Solih mahdum – o‘z zamonasining istilosi bilan aytganda “maktabdor domla” dir”¹⁰. “Oyni etak bilan yashirib bo‘lmaydir. Mahdumning xasislikka o‘xshash holatlari, albatta, bor edi. Mahdum topib tutmag‘an yillarda bu ishni yo‘qlikdan qiladur, desak-da keying vaqtlarda ham shu odatini tark etmagan uchun tabiatida bir muncha xasislik bor ekan deymiz”.¹¹ Yashash joyida maktabdorligi bilan tanilgan. Solih mahdumning ba’zi kamchiliklari ham ommaga ma’lum edi. “Ko‘ylak ishtoni aksar yeti-sakkiz qishdan beri guppi”¹² choponi yangilangani ma’lum emas, faqat qish kelib ketgan sayin yangidan – yangi yamoqlarga boyirdi, guppi umrida bir marotaba shunda ham mahdumdan beruxsat ammo Nigor oyimning zo‘ri bilan tog‘oraga tushgan. Mahalla kishilari mahdumning bu choponiga moltopar deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilgan kun mahdumga sezdirmay “moltopar” savdodan qaytibti deb kulishar edi . Maxdum yuqoridagi ba’zi o‘rinlardan ma’lumki, xasis kamchiqim inson. U oilasini kiyim-kechak vajidan o‘zi kabi tutar edi, faqat keyim-

⁹ A.Qodiriy . Mukammal asarlar to‘plami . 3-qism (Diyori bakr) . Toshkent . Info capital group. 2017, 436-bet

¹⁰ A.Qodiriy . Mehrobdan chayon . Toshkent . Adabiyot va san‘at nashriyoti . 1994, 3-bet

¹¹ A.Qodiriy . Mehrobdan chayon . Toshkent . Adabiyot va san‘at nashriyoti . 1994, 6-bet

¹² Guppi – qalin paxtali chopon.

kechak emas, oziq-ovqat to'g'risida ham shunday edi. U ro'zg'orning ayollarga oid qismida ham "ish o'rgatar" edi. "Bir oy to'lmasdan kir yuvishga ruxsat bermas, agar Nigor oyim bir oysiz kir yuvg'onini ko'rib qolsa – kiyimimni tog'oraga churutarsan!"- deb g'ovg'a solar edi. Ikki haftasiz palovni ko'rmaslar, Nigor oyimning qozoni yo'qcha elcha go'shtni faqat palov sharofati bilangina ko'rar edi.¹³ Solih mahdumning moliyaviy imkoniyati yeta turib yeb-ichishga qattqlik qilishi, "Ufq" romanidagi Inoyat oqsoqolni eslatib yuboradi. Xattoki, Inoyat oqsoqol Solih mahdumdan ham xasisroq tasvirlanadi. Inoyat oqsoqol aynan urush davrlarida, oilasi moddiy tomondan juda qiynalganda ham yashirincha yig'ib yurgan mol-dunyosini ishlatmaydi, eng og'ir vaqtda ham ayolini ingichka tilla bilakuzugini sotib o'rniga ro'zg'orga kerakli narsalarni olib kelgan bo'ladi, aslida esa tilla buyumni sotmasdan yashirincha yiqqan pullaridan ro'zg'orga ul-bul olib keladi, bu holat uni vafotidan keyin o'g'li Nizomjonga a'yon bo'ladi.

Inoyat oqsoqol Solih mahdumdan ayyorligi, quvligi, ko'p muommolarga chap berib keta olishi bilan farq qiladi. Masalan, qishloq erkaklari urushga ketganda, ayollar esa dala ishlarida ishlayotgan bir vaqtda u ham ularga yordam berish o'rniga vaziyatdan foydalanib qolish payida bo'ladi, o'rik pishgan vaqtda qishloqdoshlarining o'rigini suv tekinga sotib olib pullashida ko'rish mumkin. ,, Sotib olgan o'riklarini egalari qoqib yemayotganmikin deb mahallani maxsichan aylanib devor nahralaridan qarab yuradi (kalish kiyib yursa shaloplatib bildirib qo'yishi mumkin).¹⁴ Uning bu harakati naqadar odamgarchilikdan chiqqanligini ko'rsatadi, adar uning o'rnida boshqa inson bo'lsa shunday o'g'ir kunlarda dalaga chiqib xotin-xalajlarga yordam berardi yoki o'riklarni terib oilalarga tarqatgan bo'lardi. Inoyat oqsoqolning yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, u har qanday vaziyatda faqat foydani ko'zlaydi, xatto kata o'g'li A'zamjondan qoraxat kelganda ham uning bevasi yoshgina Dildorni kichik o'g'li Nizomjonga nikohlab bermoqchi bo'ladi. To'g'ri, tarixda bunday holatlar ham uchrab turgan, lekin buning zamirida yetim qolgan bolalar boshqa begona erkak qo'lida aziyat chekmasligi uchun qilingan yo'ldir. Ammo Inoyat oqsoqol esa Dildorning otasiga tegishli hovli boshqa birovga qolmasligi uchun uy-joy, boylik vajidan bu ishni qilmoqchi bo'ladi. "Oqsoqol hovliga, keksa tut shohlari engashib turgan tunuka tomga suqlanib birma-bir qarab chiqdi Ko'nglidan, jindek remont qilsa ellik mingga ketadi degan o'y o'tkazdi".¹⁵

Solih mahdum va Inoyat oqsoqol singari insonlarning bo'lishi davr va sharoit talabidan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas. A. Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida Solih mahdum nega bunday bo'lib qolganligiga ma'lum ma'noda izoh berib o'tadi: "Yoshlik chog'ida otasi o'lib, qattqlig'da o'sdi, uning ba'zi yarashmag'on harakatlari balki o'sha qattqliqning ruhga singib qolgan yomon

¹³ A. Qodiriy „Mehrobdan chayon“. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994, 7-bet

¹⁴ S. Ahmad „Ufq“. Toshkent. Sano –standart nashriyoti. 2019, 377-bet

¹⁵ S. Ahmad „Ufq“. Toshkent. Sano –standart nashriyoti. 2019, 379-bet

ta'siridir¹⁶.“Bu ikki obrazning ijtimoiy ta'sir kuchi judan yuqori.Ushbu asarlarni o'quvchi o'qir ekan Solih mahdumga ayniqsa Inoyat oqsoqolga nisbatan nafrat , jirkanish tuyg'ularini tuyadi.Asardagi qahramonlar tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir,yozuvchi bu obrazlarni asarga olib kirishdan maqsadi ham jamiyat orasida uchraydigan bunday muommoli insonlardan to'g'ri xulosa chiqarishga va ulardek yo'l tutmaslikka chaqiradi.“Badiiy asarni to'g'ri anglash va ta'sirlanish fazilati adabiy asar o'qish bilan o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi.Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak”.¹⁷ Yozuvchilar personajlar xarakterini ochiq oydin aytishdan qochadi,uni boshqa obrazlar orqali o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi.“Chinakam badiiy asarning estetik jozibasi uning sirtida turmaydi.Matndagi yashirin nafosatni,zaiflikni anglash uning badiiy qatlamlarni kashf etish uchun muayyan adabiy bilim va estetik diddan tashqari go'zallikni kerakli joydan qidira bilish malakasi ham shakllangan bo'lishi kerak.”¹⁸

Xulosa qilib aytganda,bu ikki asar qahramoni asarning badiiy mohiyatini ochishda,o'sha davr muhitini yoritishda beqiyos o'ringa ega.Ularning ba'zi yomon illatlari,hayotda mavzud insonlarning badiiy aksidir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Abdulla.Q.(1994).Mehrobdan chayon. Toshkent .Adabiyot va san'at nashriyoti .
2. Said.A. Ufq .(2019) .Toshkent . Sano –standart nashriyoti.2019. (631-bet)
3. Yo'ldoshev.Q . Mohiyatgaingan milliylik maqolasi.

To'raqulova Jasmina

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Abdulla Qahhor – hikoyalar ustasi

Annotatsiya: Abdulla Qahhorni o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga olib chiqqan ijodkor sifatida yaxshi taniymiz. O'zbek adabiyotida hikoya janrida samarali qalam tebratgan ijodkorlar talaygina.Har biri o'z usuli,yo'nalishiga ega bo'lib,ushbu maqolada Abdulla Qahhor va O'tkir Hoshimovdek o'tkir qalam sohiblarining hikoyalaridagi g'oyalar va mazmun uyg'unligi,qahramonlarning xarakter xususiyatlari o'zaro qiyoslangan holda adiblarning badiiy mahoratlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot,hikoyalar,maqollar,ayol,ona,obraz,milliylik,qadriyat,xislatlar,vafo,mahorat.

¹⁶ A.Qodiriy .Mehrobdan chayon . Toshkent .Adabiyot va san'at nashriyoti . 1994,6-bet

¹⁷ Q. Yo'ldoshev . Mohiyatgaingan milliylik.

¹⁸ Q. Yo'ldoshev . Mohiyatgaingan milliylik.

Аннотация

Мы знаем Абдулла Каххора как творца, который вывел узбекское повествование на новый уровень. В узбекской литературе немало авторов, которые эффективно писали в повествовательном жанре. Каждый из них имеет свой метод и направление. В данной статье рассмотрено сочетание идеи и содержания в рассказах таких острых писателей, как Абдулла Каххор и Уткир Гашимов, черты характера героев, художественное мастерство писателей. сравнил, показал.

Ключевые слова: литература, рассказы, пословицы, женщина, мать, образ, национальность, ценность, качества, верность, навык.

Annotation

We know Abdulla Qahhor as a creator who brought Uzbek storytelling to a new level. In Uzbek literature, there are many authors who have written effectively in the narrative genre. Each of them has its own method and direction. In this article, the combination of ideas and content in the stories of such sharp writers as Abdulla Kahhor and O'tkir Hashimov, the character traits of the characters, and the artistic skills of the writers are compared. shown.

Key words: literature, stories, proverbs, woman, mother, image, nationality, value, qualities, loyalty, skill.

Bilamizki, Abdulla Qahhor hikoya yozish bo'yicha Cho'lpon va Abdulla Qodiriyardan qolishmaydi. Bu adiblarning bir nechta hikoyalari adibning hikoyalaridan oldin yaratilib mashhur bo'lgan. Adibning hikoyalarida zamondoshlarining, boshqa insonlarning insoniy xislatlari, ma'naviy qarashlari, ruhan go'zalligi, axloqiy pokligi kabi ijobiy fazilatlar bilan birga salbiy xarakterlarni ya'ni birovlarning ortidan bilib-bilmay yomon gapirish, g'iybat, mol-dunyoga hirs qo'yish, nafsni tiyolmasliklarni ham keltirib o'tadi. [3]. Shuningdek, ijodkor hikoyalarida xalq maqollari va matallaridan unumli foydalangan. Buning isboti shuki, deyarli har bir hikoya mazmuniga mos tarzda unga xalq maqoli yoki biror ijodkorning she'ridan ozgina parcha epigraf qilib tanlab olinganidir.

Hikoyalari mazmuni real hayotga ega bo'lib, adib turmushda o'zi ko'rgan, tanishlaridan va yaqin kishilaridan eshitgan voqealar asosida yaratilgan. Adibning ijod yillari Stalin qatag'onlari, totalitar rejim siyosati, inson haq-huquqlari toptalgan va tengsizliklar avj olgan davr edi. Shuning uchun boshqa ijodkorlar sovetni sharaflab asarlar yozayotgan bir vaqtda, Abdulla Qahhor esa qoloq va fiklashdan mahrum bo'lgan, sha'ni poymol bo'lgan insonlar haqida yozishga kirishadi [1].

Jumladan, ijodkorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasida [2:103,110] zamonaviy o‘zgarishlarni ko‘rolmaydigan, yangicha narsalarga salbiy qaraydigan, parnji kiymagan yosh qizaloqlardan tortib, har bir keksa ayollargacha turli gumonlar va tuhmatlar qiladigan, ular haqida kurakda turmaydigan ayblovlarni qo‘yib, atrofidagi insonlarga va yo‘ldan o‘tgan-ketganlarni to‘xtatib g‘iybat qilishdan or qilmaydigan mulla Norqo‘zi haqida so‘z yuritiladi. Mavlono Rumi: “Har qanday ashyoning qimmatini ziddi bilan ayon bo‘ladi. Ziddi bo‘lmagan ashyoni ta‘rif etish imkoniyatdan tashqaridir” – deb aytgan. Xuddi shunday, mulla Norqo‘zi o‘zining xotinini boshqalardan ko‘ra, ming chandon aqlli, shahardagi birinchi farishta ayolining dugonasi bo‘lsa, ikkinchi farishta ayolining o‘zi, deya ta‘kidlaydi. Paranjisi yo‘q ayollarga yomon ko‘z bilan axloqsiz sifatida, paranjili ayollarga esa hurmat bilan qaralgan. Ammo, “Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi”, - deganlaridek, ikkala holatda ham yaxshi va yomon ayollar bo‘ladi. Og‘zini ko‘pirib maqtab yurgan ayolining haqiqatan ham “farishta”ligini bilib o‘zi uyalib qoladi. Uyalib turib ham boshqalar haqida yomon fikrlab, gapdan qolmay gapiraveradi. Natijada, o‘zining mahalladoshlariga kulgu bo‘lgani qoladi xolos. Balki, bunaqa sharmandalik mulla Norqo‘ziga qilgan gunohlari, birovlarining ayoli va opa-singlisi haqida qilgan bo‘htonlari evaziga Alloh tomonidan unga ayoli orqali berilgan jazodir. Yoki boshqa bir hikoyalarni oladigan bo‘lsak, “Ming bir jon”, “Asror bobo”, “Mahalla” bularda asosan, zamondoshlarining ma‘naviy dunyosini, insonlarning ruhiy go‘zalligini, insoniy xislatlarini ko‘rsatib bergan [4:379]. Bu hikoyalarning har birida bir qahramon borki, adib shu qahramonlarning har biri orqali yaxshi xislatlarni o‘rgatadi. “Ming bir jon” hikoyasidagi Mastura ismli ayol orqali inson qanchalik yomon ahvolda bo‘lmasin, uzoq yillardan buyon og‘ir kasallik bilan kurashayotgan bo‘lmasin tushkunlikka tushmasdan sabr bilan hayotda davom etaverish kerakligini, o‘limdan qo‘rqib taqdirga tan berib yuborish kerakmasligini, umuman olganda ruhiyatni cho‘ktirmasdan atrofdegilar bilan yaxshi kayfiyatda suhbat qilish, hatto hazil qilib baland ovozda kulib dardlarni unutib, mana shu xususiyat orqali yanada go‘zallashib, butunlay sog‘lom hayotga qaytish va boshqalarga kayfiyat ulashish mumkinligini ko‘rsatib bergan. Masturaning turmush o‘rtog‘i Akramjon orqali esa vafodor turmush o‘rtoq, hayotning har xil jabhalarida er va xotin o‘rtasidagi burchlar, sabr – toqatli bo‘lib bir-birini qo‘llab – quvvatlashi va g‘amxo‘rlik qilishi, oradagi mehr-muhabbatning mustahkamligini o‘rnak bo‘ladigan tarzda yoritgan va sinovli kunlarni sabr bilan yengib o‘tib nihoyat go‘zal turmush sharoitida yashashni shu ikki juftlik orqali ko‘rsatgan. “Asror bobo” hikoyasida urushga ketgan o‘g‘lining sog‘lig‘idan kecha-yu kunduz xavotir olib, ko‘ngli yarimta, butun xayoli notinch joylarda burchini ado etib yurgan o‘g‘lida bo‘lsa-da birovlariga buni bilintirmaydi. Hattoki, o‘g‘lidan qoraxat olgan ota o‘z dardini sezdirmasdan kuchli bo‘lib, boshqa ishini davom ettirib yuradi, ayoli xavotirdan o‘ksiyverganida unga dalda ba‘zan dakki ham

beradi. Shu orqali insonning ruhiyati kuchliligini Asrorqul ota timsolida ko'rsatadi. Ayol kishi erkak kishiga nisbatan ojiza va ko'ngilchan, ta'sirchan va yig'loqi ham bo'ladi. Erkak kishi esa aksincha, har qanday dardini ichiga yutadi. Asrorqul otaning xarakteri shunaqa tarzda tasvirlangan. "Mahalla" hikoyasida esa Hikmat buva haqida so'z yuritiladi. Hikmat buvaning ayoli shunchalik yaxshi inson bo'ladiki, janozaga kelganlar mahallaga ham sig'maydi. Hikmat buva ayolining vafotidan so'ng o'zining kerakli narsasini yo'qotganday, hayotida nimadir kamday bo'lib, o'zining ham o'lgisi kelib qabr qazdirib qo'yadi. Ammo hayotda tushkunligi abadiy bo'lib qolmasligi uchun mahallaning qistovi bilan ishlab o'zining tushkunligi, hayotdan xafaligi asta-sekin keta boshlaydi. Ruhiyati yaxshilanadi, mahalla uchun xizmat qilishda davom etadi va yashashni afzal bilib, qazdirgan qabrini ko'mishlarini istaydi. Har bir tushkun bo'lgan insonni ham qandaydir yumush orqali band etish mumkinligi, har qanday dard ham, har qanday baxt ham abadiy emasligi, hayot har xil baland-pastliklardan iborat ekanligi ko'rsatilgan. Tushkunlikni, dard - g'amlarni atrof go'zalliklaridan bahramand bo'lib, do'stlar davrasida suhbatlashgan holda ketkizish mumkin.

Abdulla Qahhor hikoyalarining ustun jihati ham shundaki, so'zlar sodda, hikoyalar qisqa ammo, mazmun tushunarli va kengligi ahamiyatga ega. Noyob iste'dod sohibi bo'lgan O'tkir Hoshimov ham sermahsul ijod qilgan adiblardan hisoblanadi. Abdulla Qahhor, Oybek, Maqsud Shayxzoda kabi adiblarning nazariga tushish hammaga ham nasib qilmagan ammo, O'tkir Hoshimovdek yosh ijodkor Abdulla Qahhordek ulkan yozuvchining e'tiboriga tushadi, uning duolarini oladi. Abdulla Qahhor O'tkir Hoshimovning ijod mahsullarini maqtaydi, kelajagini ham bashorat qilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki O'tkir Hoshimov ustoz aytganiday, mashhur va yaratgan asarlari sevib o'qiladigan bo'ldi. O'tkir Hoshimov ijodidagi hikoyalar anchagina bo'lib, ular turli mavzularda yaratilgan. Adib asarlarida asosan, onaning oldidagi burch va vazifalar, majburiyatlar haqida yozilgan. Jumladan, "Tarnov" hikoyasini oladigan bo'lsak, ona tomga chiqqan o'g'lidan judayam xavotir oladi, ehtiyot bo'lishini qayta - qayta ta'kidlaydi. Yomg'ir yog'ishiga qaramay, ona farzandini tomdan tushganicha yomg'irda ivib o'g'lini kutib turadi, o'g'il esa o'z farzandiga tomdan turib uyga kirishini baqirib aytadi. Ammo, onasining pastda o'g'lini kutayotganidan bexabar bo'ladi. Qarasa, ona farzandi uchun har qanday vaziyatda ham bolasi uchun jonini berishga tayyor, o'g'li farzandini o'ylab qanchalik jon kuydirgan bo'lsa, ona ham farzandining katta yoki kichikligiga qaramay shunchalik jon kuydiradi.

O'tkir Hoshimovning "Dehqonning bir kuni" hikoyasi [5:86-92] bilan Abdulla Qahhorning "Kampirlar sim qoqdi" hikoyasini qiyoslaydigan bo'lsak, ikkala hikoyada ham o'sha davrdagi qishloq ishlarini, aholining mehnatini, ko'rsatgan fidoyiligini, paxta dalasi, pilla yetishtirish, har bir qishloqqa berilgan

topshiriqni vaqtida bajarish va hosilni yetarli darajada topshirish kabi hodisalar yoritilgan. Qishloqdagi va daladagi ishchilarning ko'p qismi ayollarni tashkil qilgan. Raislarning ba'zisi qattiqqo'l yoki xushmuomala bo'ladi ammo, shunga qaramasdan xalq ularga bo'ysunib, vazifalarni tezda bajarib o'zlarining hududlarini himoya qilishga urinishadi va buni uddalashadi. "Dehqonning bir kuni" hikoyasida tinmaydigan yosh kelinchak Muyassar biroz kamroq paxta tergani uchun rais piching qilib gapiradi lekin, raisning bunaqa gapiga e'tibor bermaydi. Chunki xalq raisning xarakterini biladi va uni "Yuz yil asal yedirsa ham, og'zidan shirin so'z chiqmaydi" – deya ta'riflashadi. Raislar ham o'zlarini o'ylashgan gap eshitmasliklarini, izza bo'lmasliklarini o'ylab, xalqni ko'proq mehnat qilishga qistayverishgan. Yoshi katta ayollar ham bekor o'tirmasin deb, ularga ham bir ish topishgan ya'ni pilla yetishtirish. Bu holat "Kampirlar sim qoqdi" hikoyasida keltirilgan. Sim qoqdi so'zi kampirlar ya'ni buvilar berilgan vazifani to'la ado etishganini anglatadi. Qalami o'tkir ikki ijodkorning yana bir hikoyalari "Yanga" [5:50-57] va "Mahalla" bo'lib, bulardagi bir xil g'oya shuki, jondan ortiq yaxshi ko'rgan insonimiz ham bir kun kelib unut bo'lishi, nimadir yumush bilan mashg'ul bo'lib, o'tganlarni eslamay ham qo'yish ko'rsatilgan. "Yanga" hikoyasida farzand onasi vafot etganda boshqaga suyanib ishonishi oson bo'lmaydi ammo, bora-bora yangasi onasini o'rnini bildirmaslikka harakat qiladi. Ulg'ayganda esa bir paytlar jondan ortiq ko'rgan onasini va onasiz o'zini butunlay yolg'iz his qilgan davrlarini unutib yuborib, o'zining oilasi bilan band bo'lib yuradi. Hattoki, onasining vafot etgan kunini ham esidan chiqarib yuborib, onasi haqqiga maraka o'tkazmaydi. Bunaqa ishlarni sharoiti biroz og'ir bo'lgan akasi va yangasi bajarishadi. "Mahalla" hikoyasida esa kampirisiz yashashni ma'nosiz deb hisoblaydigan, o'g'li biror yaxshi ish qilganda, otasini sayrga olib chiqqanda "Onang borligida shunaqa ish qilmading" – deb har zamon kinoya qiladigan ota, vaqt o'tib ishli bo'ladi, xalqqa yengillik qilish uchun ishga sho'ng'ib tinmaydi va kampirining qabriga borishga ham avvalgiday ko'p vaqt topolmaydi. Asta-sekin o'tganlar o'tmishda faqatgina xotiralarda qolib ketaveradi. Abdulla Qahhor so'zga xasis bo'lsa-da hikoyalariidagi ma'no ajoyib va o'qishli hisoblanadi. O'tkir Hoshimov hikoyalari biroz kengroq tarzda berilgan, mazmun ham tushuncha va xulosa ham shunga mos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir insonning o'z fikri va dunyoqarashi mavjud. Shuningdek, bu ikki ijodkorning ham fikrlash olamidagi g'oyalari va ijod mahsullari ba'zan o'xshash, ba'zan esa turlicha. Ikkala adib hikoyalariining mazmun ko'lami keng bo'lib, yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hikoyalarning g'oyalari milliyligimizga, xalqimizning mehnatsevarligi, o'zbekona sifatlar, ota-ona, mahalla-ko'y umuman olganda, Vatanga bo'lgan muhabbat va uning qadr-qimmatini himoya qilish kabilarga ishora qiladi. Inson biror jumlaning bir o'qishda ozroq tushunchaga ega bo'ladi, ammo o'sha jumlaning qayta-qayta o'qishida yangicha

tushunchalarni anglaydi. Xuddi shunday, Abdulla Qahhor va O‘tkir Hoshimovdek o‘tkir qalam sohiblarining hikoyalarini va yaratgan boshqa ijod mahsullarini qanchalik ko‘p marotaba o‘qisak, har o‘qiganimizda adiblarning bu asar orqali nima demoqchiligini yanada yaxshiroq anglaymiz. Insonni yaxshi yo‘lga boshlashning asosiy yo‘li bu - ko‘proq kitob o‘qishdir. Kitobga qiziqishi va mehri bo‘lmagan insonga, avvalo, qisqa va ma‘noli jumlar o‘qish tavsiya qilinadi. Ana o‘sha qisqa jumlar adiblarning sarmazmun hikoyalari bo‘lsa ajab emas. Hikoyalar qisqaligining muhim tomoni shuki, davr muhitini, ibratomuz xususiyatlarni biror-bir kichik voqea orqali kitobxonga nasihat qilib, uning dunyoqarashi va fikrlarini yanada rivojlantirish ajoyib uslub sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://fayllar.org/mavzu-abdulla-qahnor-mohir-hikoyanavis.html>
2. Abdulla Qahhor. Anor. "Donish chirog‘i" nashriyoti. Toshkent-2019. 238 b
3. <http://taqvim.uz/uz/library/view/43>
4. Sharafjon Sariyev. Adabiyot. Toshkent – 2019. 575 b O‘tkir Hoshimov. O‘zbeklar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa

Ravshanova Nozima

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Tilshunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyoti

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan davrda tilshunoslik fanining tutgan o‘rni va uni shakllantirish va taraqqiy ettirish uchun bir qancha omillar haqida va tillarni ilmiy tadqiq etib borish metodlari haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik vazifalari, ilmiy metodlar, tadqiqotlar, nazariyalar, fikrlar va xulosa.

Annotation: It provides information about the role of linguistics in today’s developing era, several factors for its formation and development and methods of scientific research of languages.

Keywords: linguistic tasks, scientific methods, studies, theories, thoughts, conclusion.

Bugungi rivojlanib borayotgan davrda tilshunoslik fani jamiyat, madaniyat, ilm-fan va texnologiyalarning barcha sohalarida katta o‘rin tutadi. Tilshunoslik,

ya'ni tilni o'rganish va tahlil qilish, nafaqat tilning strukturaviy jihatlarini, balki uning madaniyat, jamiyat va inson fikri bilan bog'liqligini ham o'rganadi.

“Tilshunoslik asoslari” fanining asosiy maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti va vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiati, vazifalari, shakllanishi, taraqqiyoti, tilning ichki tuzilishi va sathlari, dunyo tillari, jumladan, turkiy tillar tavsifi hamda tasnifi haqida bilim berishdir.

Tilshunoslik—tilning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko'rish [faoliyat] qonunlari va tarixiy taraqqiyotni o'rganuvchi fan. Demak, tilshunoslik inson tilini o'rganadigan mustaqil fandır. “Tilshunoslik” termini bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlarda lingvistika [fran. Linguistique-til] termini ham ko'p qo'llanadi. [1;6]

Tilshunoslik fani qadimiy tarixga ega. Tilshunoslik fanining predmeti, tilning tabiati va mohiyatini har xil tushunish natijasida naturalizm , psixologizm, logosizm, sotsiologizm, strukturalizm kabi turli ilmiy maktablar hamda oqimlar vujudga kelgan. Qadimgi davrlardan boshlab til tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai sanaladi.

Hozirgacha til ikkita bir-biriga zid dunyoqarash--- idealistik va materialistik nuqtai nazaridan ta'riflanadi. Ongni birlamchi, materiyani ikkilamchi deb biluvchi idealistik yo'nalishdagi olimlar tilga quyidagicha ta'rif beradi: “ Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir” [F.de. Sosyeyur]

“ Til—odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir. [L.Blumfild]

“ Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir. [B.Grosse]

Bu ta'rifning birortasi ham tilning to'liq ta'rifi emas, chunki ular tilning ijtimoiy mohiyatini ochib bera olmaydi.[2;6]

Til serqirra hodisadir. Shunga ko'ra til tilshunoslik bilan birga qator ijtimoiy fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Tilni o'rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o'z munosabati bor. Bu munosabat har bir ijtimoiy fanning tilning qaysi aspektini o'rganishi bilan xarakterlanadi. Tilshunoslik falsafa bilan chambarchas bog'liq. Falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Shu jihatdan tilning nazariy falsafiy masalalari quyidagi besh yo'nalish asosida talqin etiladi:

1. Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi; til va nutq falsafiy masala sifatida.
2. Til va tafakkur, mantiq va tilshunoslik munosabatlari.

3. Til—ramziy tizim sifatida.
4. Tillarning rivojlanishi va o'zaro ta'sir masalalari.
5. Grammatik talqinlarning falsafiy masalalari.

Hozirgi zamon tilshunosligi til [lison] mohiyatini ochishda dialektik falsafa, lisoniy birlik haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayoni dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektikologik kategoriyalardan onglilik va izchillik bilan foydalanishni taqozo etadi. Tilga falsafiy yondashish deganda, dialektikaning umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab va oqibat kategoriyalarning til tizimi birliklariga bevosita amaliy tatbiqni tushunish zarur. [3;8]

Dunyoda tilshunoslik borasidagi ilk qadamlar insonlar o'rtasidagi muloqotga bo'lgan zaruriyat sezilgan davrlardan e'tiboran qo'yilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Tilshunoslik fani eng uzoq tarixga ega bo'lgan fanlar sirasiga kiradi. U eramizdan bir necha yuz yillar avval Qadimgi Hindiston va Qadimgi Yunonistonda taraqqiy eta boshlagan. Qadimgi Yunoniston olim va faylasuflari o'rtasida so'z va uning tushuncha mohiyati o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi masalasi ancha munozaralarga sabab bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq olib borilgan tahlillar, kuzatishlar pirovardida tilning so'z boyligi, so'zlarning paydo bo'lish haqidagi dastlabki nazariy fikrlarga asos solindi.

XIX asrning birinchi yarmida tilshunoslik sohasi juda katta marralarga erishdi. Xususan, bu davrda tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod shakllandi va unga hamohang tarzda til haqidagi fan ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fani deb yuritila boshlandi. Bu davrda Yevropa tillarining Sanskrit [hind] tili bilan uzviy bog'lanishi borligini sezgan holda bu tillarning o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik taraflari jiddiy o'rganila boshlandi. Ayniqsa, tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish borasida nemis olimlari Frans Bopp [1791-1867], Yakob Grimm [1785-1863], daniyalik olim Ramus Rask [1787-1832], rus olimi Aleksandr Vostokov [1781-1864], chex olimi Dobrovskiy [1753-1829] kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. [4;5]

Tilshunoslik fanining taraqqiyoti tarixan uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u turli davrlar, ilmiy qarashlar va texnologik yutuqlar bilan bog'liq. Tilshunoslikning rivojlanish yo'li asosan quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1] Antik davr va klassik tilshunoslik.

Tilshunoslikning boshlang'ich bosqichi antik davrda, xususan, Hindiston, Yunoniston, Rimda shakllana boshlagan. Hind tilshunosligi, ayniqsa, Vedaga oid matnlar, Sanskrit grammatikasi va fonologiyasi bilan mashhur. Yunoniston va

Rimda esa tilshunoslikning asosiy masalalari, tilning sintaksis va morfologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar boshlangan. Bu davrda til faqat adabiyot va nutq san'ati bilan bog'liq o'rganilgan.

2] O'rta asrlar va arab tilshunosligi

O'rta asrlar tilshunosligi asosan arab olamida rivojlandi. Arab tilshunoslari grammatikasi va fonologiyasini o'rganish bilan birga, Qur'on va hadislar kabi diniy matnlarni tahlil qilishga katta e'tibor qaratishgan. Bu davrda tilshunoslikning tafsiri[interpretatsiya] va Grammatik tahlili keng tarqaldi.

3] Yangi zamon va Yevropa tilshunosligi

16-18 asrlarda Yevropa tilshunosligi rivojlandi, ayniqsa, Renessans davrida. Tilshunoslik ilmiy jihatdan tartibga solinib, alohida fan sifatida shakllandi. Yangi zamonda tilshunoslar tilning strukturasi tahlil qilishda grammatik, leksik va sintaktik jihatlarni ko'rib chiqib boshladilar. Shu bilan birga, tilshunoslikka lingvistika sifatida ilmiy yondashuvlar paydo bo'ldi va bu davrda tillarni o'rganish, ularni saqlash va to'g'ri ishlatish muhim ahamiyat kasb etdi.

Tilshunoslik nafaqat ilmiy jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatdagi til siyosatini shakllantirishda, o'zaro muloqotni yaxshilashda va madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishda o'z rolini o'ynaydi. Shu tarzda, tilshunoslik fanining taraqqiyoti uzluksiz ravishda yangi ilmiy va texnologik yutuqlarga bog'liq bo'lib, zamonaviy jamiyatda uning ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirjon Uluqov "Tilshunoslik nazariyasi"
2. B.O'rinboyev, A. Musayev "Umumiy tilshunoslik"
3. R. Sayfullayeva, M.Abuzalova, N.G'aybullayeva "Tilshunoslik nazariyasi" o'quv qo'llanma
4. O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldoshov "Tilshunoslik asoslari".

Mamasheva Marjona

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Konstitutsiya-erkin va farovon hayot garovi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, unda ifodalangan qonun va qoidalarning mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi.

Shuningdek, konstitutsiyamizning fuqarolar erkinligi va turmush farovonligini ta'minlashdagi roli va ahamiyati hayotiy misollar orqali ochib berildi.

Kalit so'zlar: Mamlakat, huquq, jinoyat, burch, demokratik

davlat, prezident, konstitutsiya, referendum, hujjat, taraqqiyot, tadbirkorlik, ijtimoiy munosabat, shaxs va jamiyat, adolat, bag'rikenglik, saylov, modda, hukumat.

Mamlakat taraqqiyotida muhim omil vazifasini o'tovchi tartib va intizomni o'zida mujassam etadigan asosiy qonun va qoidalar bosh qomusimiz – Konstitutsiyada o'z aksini topadi. "Konstitutsiya – prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni o'zida mujassam etgan va davlat hokimiyatini amalga oshirish me'yorini belgilovchi davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda mamlakat qurilishi, huquqiy tizimi hamda eng asosiysi, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar aks etgan yuridik hujjatdir"¹. Bayroq, gerb, madhiya singari mamlakatning asosiy ramzlari qatorida, albatta, konstitutsiyamiz ham tilga olinadi. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni Respublika Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Shu kungacha konstitutsiyamizga 15 marotaba o'zgartirish kiritildi, ayniqsa, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan umumxalq referendumini asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiya yanada mukammallik kasb etdi. Bosh qomusimizda mamlakatimiz fuqarolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, huquq va erkinliklar, asosiy burchlar, jamiyat va shaxs munosabatlari, davlat hokimiyati hamda ma'muriy-hududiy tuzilishi kabi masalalar aks ettirilgan. Ushbu qonun hujjati xalqning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qiladi.

¹M. Rustamboyev, D. Ahmedov, S. Xidirov, I. Bekov. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish". Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2005-yil. 10-b.

Hozirda mamlakatimiz konstitutsiyasining tarkibi muqaddima, olti bo'lim, yigirma yetti bob va bir yuz ellik besh moddadan iboratdir. Mustaqillik – jamiyat taraqqiyotining poydevori, inson huquq va erkinliklarining ro'yobga chiqishi hisoblanadi. Shu sababdan konstitutsiyaning birinchi bobida davlatimiz suvereniteti haqida so'z boradi, ya'ni 1-moddada: "O'zbekiston- boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi"², - deya qayd etilgan.

Qomusimizning 4-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, til - jamiyat a'zolarini jipslashtirib turuvchi asosiy vosita, xalqimiz ta'biri bilan aytganda "millatning

ko'zgusi"dir. Shu sababdan, konstitutsiyamizda ona tilimiz uchun ham alohida o'rin ajratilganligi xalqimizni bir maqom ostida birlashishiga hissa qo'shadi.

Konstitutsiyaning keyingi – ikkinchi bobida xalq hokimiyatchiligi haqida fikr yuritiladi. Jumladan, bob tarkibida kelgan 14-moddada: “Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”³- deyilgan. Bugungi kunda jamiyatimizda bo'layotgan islohotlarni aynan yuqoridagi fikrlarning amaldagi ifodasi sifatida baholasak mubolag'a bo'lmaydi. Zero prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, ayni damda “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilayotganligi” hech kimga sir emas.

Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn “Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat'iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo'shishni o'z burchi deb bilsagina jamiyatimizda har-bir voqea hodisa, jarayon insonparvarlik prinsipiga tayanadi, inson oliy qadriyat darajasiga ko'tariladi hamda inson hayoti, shani, qadr-qimmatini ulug'lanadi va muhofaza etiladi. Bu konstitutsiyamizning 25-26-moddalarida o'z ifodasini topgan:

25-modda: “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi”⁴.

26-modda: “Insonning shani va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas”⁵.

52-moddada esa “Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash - davlatning oliy maqsadi”⁶, -deya ta'kidlanadi.

²O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O'zbekiston”. 2023-yil. 5-b.

³O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O'zbekiston”. 2023-yil. 9-b.

⁴O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O'zbekiston”. 2023-yil. 17-b.

⁵O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O'zbekiston”. 2023-yil. 17-b.

⁶O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O'zbekiston”. 2023-yil. 32-b.

So'nggi yillarda bosh qomusimizda ifodalangan qonun va qoidalar ko'z o'ngimizda o'z isbotini topmoqda. Xususan, konstitutsiyaning 43-moddasida: “Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi”⁷, -deya ta'kidlanadi. Bu qonunning ifodasi sifatida yurtimizda bandlikka ko'maklashish markazlarining tashkil etilganligi, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga

qaratilayotgan e'tibor, o'z xususiy tadbirkorligini boshlash istagida yurgan yoshlar uchun taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlarni keltirish mumkin.

Adolatni taraqqiyotning asosiy me'zoniga aylantirgan mamlakatimizda konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilar ekan, aholining hech bir qatlami e'tibordan chetda qolmaydi. Jumladan, 46-moddada: Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.⁸

Hayot farovonligini ta'minlashda fuqarolar salomatligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan davlatimiz konstitutsiyasining 48-moddasida: "Har kim sog'ligini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"⁹-deb qayd etilgan.

Shuningdek, 50-moddada taraqqiyotning asosiy g'ildiragi bo'lgan ta'lim jarayonlari haqida: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega... Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir"¹⁰-deyiladi. Eng quvonarlisi, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizga jamiyatning ziyoli qatlami bo'lgan o'qituvchilar haqidagi moddaning qo'shilganligidir.

52-modda: "...Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi".¹¹

⁷O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2023-yil. 21-b.

⁸O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2023-yil. 28-b.

⁹O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2023-yil. 29-b.

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2023-yil. 31-b.

¹¹O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2023-yil. 32-b.

Bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo'lib ahil va inoq yashab kelayotgan yurtimizda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, do'stlik, birodarlik munosabatlari qadrlanadi. Konstitutsiyamizda bu masalaga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, konstitutsiyaning XVII bobi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi haqidadir. Vatanimiz huquqiy- demokratik davlat sifatida e'tirof etilar ekan, yurtimizdagi siyosiy jarayonlarda fuqarolar ishtirokini ta'minlash, jamiyat hayotiga daxldor qarorlar qabul qilinishida aholi faolligini oshirish joizdir. Shu tufayli konstitutsiyaning XXII bobidan xalqimizning siyosiy jarayonlardagi faolligini taminlovchi saylov tizimi haqidagi qonunlar o'rin egallagan. Shuningdek, sud hokimiyati, advokatura, moliya, pul va bank tizimlari ham alohida boblarda so'z yuritiladi. Mamlakat tinchligini asrash, aholi xavfsizligini

ta'minlash,davlat chegaralari mudofaasini mustahkamlash ham erkin va farovon turmushning zaruriy talabidir.Bosh qomusimizning XXVII bobi aynan yuqorida keltirilgan mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan va bobning 153-moddasi quyidagicha bayon etilgan:"O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli kuchlarga ega".¹²

Bundan tashqari, konstitutsiyamizda huquq va erkinliklari bilan birga XI bobda fuqarolarning burch va maburiyatlari ham belgilab qo'yilgan.

62-modda:"Fuqarolar atrof va tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar".¹³

59-modda:"Barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar".¹⁴

Konstitutsiyamizning yakuniy-oltinchi bo'limi "Konstitutsiyani o'zgartirish tartibi" haqidadir.

Xulosa qilib aytganda,konstitutsiyadagi har bir bo'lim,bob va mddalar xuddi zanjir singari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib,jamiyatagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarni tartibga solib turadi.Qiyosan olsak, konstitutsiya mamlakatning taraqqiyot choqqilariga qay yo'l bilan chiqishini belgilovchi xaritadir.Akademik,yuridik fanlar doktori,professor A.Saidov: "Konstitutsiya muhim siyosiy-huququy hujjat sifatida insoniyat svilizatsiyasining yutug'i,umuminsoniy qadriyat va demokratik taraqqiyotning yuridik asosidir",-deya fikr bildiradi."Qars ikki qo'ldan chiqadi" deganlaridek konstitutsiyamizning farovon hayot uchun xizmat qilishida,qonunlar amalda o'z tasdig'ini topishida nafaqat davlat,balki fuqarolar ham mas'ul hisoblanishadi.Buning uchun mana shu yurtda istiqomat qilayotgan har bir shaxs huquqiy savodxonligini oshirishi,o'z huquq va erkinliklaridan foydalanish bilan birga fuqarolik burchlarini ham sidqidildan ado etishi lozim.

¹²O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent."O'zbekiston".2023-yil.114-b.

¹³O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent."O'zbekiston".2023-yil.37-b.

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent."O'zbekiston".2023-yi.36-b.

Qolaversa,yosh avlod vakillarini ham vatanparvarlik ruhida tarbiyalash,kelajakda yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishlari uchun boqcha,maktab kabi ta'lim maskanlarida huquqiy savodxonlik darslarini tashkil etish zarur. Fikrlarimizni prezidentimiz Shavkat Mrziyoyevning hukumat vakillariga qarata aytgan quyidagi so'zlari bilan yakunlaymiz: "Bizning maqsadimiz – xalq hokimiyatini so'zda emas amalda ta'minlashdan iborat.Bu- biz yashayotgan bugungi murakkab davrning asosiy talabidir.Takror aytishga to'g'ri keladi-odamlarimiz o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni bugun kutmoqda".¹⁵

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent."O'zbekiston".2023-yil.
- 2.M.Rustamboyev,D.Ahmedov, S.Xidirov, I.Bekov. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish".Toshkent."Yangi asr avlodi".2005-yil.
- 3.Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza matni.
- 4."Yangi Konstitutsiya- ishonchli kelajak garovi" ilmiy maqola.

¹⁵Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza matnidan.

Ismoilova Munojot

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Hozirgi davr yoshlarining o'qiyotgan asarlari: Milliy g'urur va zamonaviy talqin.

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi davr yoshlarining o'qiyotgan asarlari va ularning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni yoritilgan. Milliy va jahon adabiyotining yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, zamonaviy texnologiyalar yordamida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning oshishi va yoshlarning kitob tanlashdagi afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, kitobxonlik, milliy adabiyot, jahon adabiyoti, ma'naviyat, zamonaviy texnologiyalar, elektron kitoblar, o'qish madaniyati, ma'naviy tarbiya.

Bugungi kunda yoshlar o'qiyotgan asarlar jamiyatimiz ma'naviy salohiyatini aks ettiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Yosh avlodning kitob tanlashidagi xohish-istaklari, ularning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning qanday asarlar o'qiyotgani va bu asarlar ular hayotiga qanday ta'sir qilayotganini tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda yoshlar o'rtasida milliy va jahon adabiyotining mashhur durdonalari ommalashgan. Abdulla Qodiriy, Chingiz Aytmatov, O'tkir Hoshimov kabi ijodkorlarning asarlari yoshlar orasida hamon qadrlanib kelmoqda.Ularning asarlaridagi insoniylik, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlik masalalari bugungi

kunda ham dolzarbdir. Masalan, “O‘tkan kunlar” romani faqat sevgi haqida emas, balki o‘zligini anglash va milliy qadriyatlarni qadrlashga undaydi.

Shuningdek, zamonaviy yoshlar orasida jahon adabiyoti namunalari, jumladan, Paulo Koeloning “Alkimyogar”, Markus Zusakning “Kitob o‘g‘risi” kabi asarlariga ham qiziqish ortmoqda. Bu asarlar hayotiy maqsadlar, o‘z-o‘zini anglash va ma’naviy izlanishlar kabi mavzularni o‘z ichiga olgani uchun yoshlarni o‘ziga tortadi.

Hozirgi kunda yoshlar orasida Sara Mahfuzaning “Yolg‘izlikdan quvonch”, Jojo Moyesning “Men seni sevaman” va Kristin Xenna kabi mualliflarning romantik va hayotiy asarlari ommalashgan. Ayniqsa, Sara Mahfuzaning asarlari zamonaviy ayolning kuchi, mustaqilligi va hayotdagi o‘z o‘rnini topishi mavzularini yoritgani uchun ko‘plab o‘quvchilar e’tiborini tortadi. Mark Mensonning “Hamma narsa barbod bo‘ldi” va “Zerikarli bo‘lishning nafsi” kabi kitoblari esa yoshlarni hayotda muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini o‘rgatish bilan birga, realistik yondashuvni targ‘ib qiladi. Yoshlar o‘rtasida inson psixologiyasi va shaxsiy rivojlanishga oid kitoblarga qiziqish ortib borayotgani kuzatilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kitob o‘qishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn platformalar yoshlar uchun kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu platformalar orqali yoshlar nafaqat adabiy asarlar, balki psixologiya, shaxsiy rivojlanish va biznesga oid kitoblarni ham o‘qiy boshladilar. Ayniqsa, self-help janridagi asarlar, masalan, Napoleon Xillning “O‘ylang va boy bo‘ling” yoki Mark Mensonning “Zerikarli bo‘lishning nafsi” kabi kitoblar katta talabga ega.

Bugungi yoshlarning kitob tanlovida milliy va jahon adabiyoti o‘rtasida muvozanat saqlanayotgani quvonarli holatdir. Bu holat yoshlarning global madaniyatni tushunish va milliy qadriyatlarni qadrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Ammo ayrim hollarda yoshlar faqat yengil, oson tushuniladigan asarlarni afzal ko‘rayotgani ham kuzatiladi. Bu esa yoshlarni chuqur fikrlashdan cheklashi mumkin. Hozirgi davr yoshlarining o‘qiyotgan asarlari ularning ma’naviy va intellektual darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Biroq, kitob tanlashda ko‘proq mas’uliyat bilan yondashish, chuqur mazmunli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarni o‘qishni targ‘ib qilish lozim. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar yordamida yoshlarni milliy adabiyotimizning nodir asarlariga ko‘proq jalb qilish uchun innovatsion usullarni qo‘llash muhimdir. Yoshlar o‘zlari tanlayotgan kitoblar orqali nafaqat bilim, balki ma’naviyat va g‘urur ham topishlari lozim. Zero, kitob – insonning eng yaqin do‘sti va ustozidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mark Menson – Zerikarli bo‘lishning nafsi. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2021.
2. Paulo Koelo – Alkimyogar. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019.
3. Haruki Murakami – 1Q84. Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 2022.
4. Endi Veyr – Marslik. Toshkent: Innovatsion kitob nashriyoti, 2020.
5. Napoleon Xill – O‘ylang va boy bo‘ling. Toshkent: Maqsad nashriyoti, 2020.
6. Elektron manbalar:
“LitRes” elektron kutubxonasi – <https://www.litres.ru>
“Storytel” audiokitob platformasi – <https://www.storytel.com>

To‘raqulova Sabina

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Pedagogik muloqot tuzilishi va metodlari

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada pedagogik muloqotda muomala madaniyati, sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta’siri, muloqot asosida ma’naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari, pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, o‘qituvchining muloqot asosida sinf jamoasini boshqarish usullari, o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatiga muomala madaniyati kabi mavzular yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik muloqot, pedagogik metod, muloqot madaniyati, sharqona tarbiya, muosharat odobi, madaniyatni shakllantiruvchi mezonlar va omillar, sinf jamoasi, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati.

ANNOTATION: In this article, the manners of behavior in pedagogical communication, the influence of oriental education and social etiquette on communication, the criteria and factors for the formation of spiritual culture based on communication, the specific characteristics and functions of pedagogical communication, the teacher's methods of managing the class team based on communication, topics such as the culture of treatment of teachers' and students' activities are covered

Key words: pedagogical communication, pedagogical method, culture of communication, oriental education, manners of communication, culture-forming criteria and factors, class team, teacher's and student's activities.

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi subyekti bilan, o'quvchi obyektiga o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida: 1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi. 2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi. 3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi. 4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi. Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim: O'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi; uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi; muomala obyektiga bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi; o'quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi; darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi; o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi;

O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi. Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi; pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi obyekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi; o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir; o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi; o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob'ekt va subektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z - mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklaratsiyalarida o'z ifodasini topadi. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri, ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tunganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda mu-him ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan. Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rnini va ahamiyati borligini, tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor - elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar.

Bularning barchasi mudarris va shogirdlarning samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislar barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlashgan.1. Xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik; 2. Yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik; 3. Birovlardan aslo ayb qidirmaslik; 4. Yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yo'yish; 5. Agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish va kechirimli bo'lish; 6. Muhojirlar hojatini chiqarish; 7. Doimo el g'amini yeyish; 8. Aybini tan olish; 9. El bilan ochiq chehrali bo'lish; 10. Odamlar bilan doimo shirin muomalada bo'lish. Muloqot Sharqona tarbiyada axloq ko'rki sanalgan. Muallim har bir o'quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o'zaro muloqotida namoyon bo'lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot - azaldan insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa

vositasi bo'lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til - aloqa quroli sifatida ta'riflanadi. Alisher Navoiy "Voiz olimning o'zi avvalo halol ish ko'ruvchi bo'li-shini, uning nasihatidan chiqmaslikni" o'z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san'ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o'qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati xicoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida nutqning ta'sir kuchi nihoyatda beqiyosdir.

O'qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardir. "O'qituvchining til boyligi va notiqlik san'ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan" (A.P.Chexov). Uning his tuyg'usi, intilishlari, iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg'otadi, bilim olishga undaydi, shuning uchun o'qituvchi "Tilning xalq o'tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" ekanligini unutmashligi kerak. Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirinsuxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik muosharat odobi deyiladi. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi.

Bola maktabda, ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odo-bining kuch-qudratini doimo his qiladi. Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabatda o'quvchilarning diliga to'g'ri kelmaydigan qo'pol va dilozor muloqot olib boruvchi o'qituvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O'quvchilar xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o'qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e'tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o'rinini topish, inoq va hamjihat bo'lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o'zining yutug'i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo'ladi. Ammo insondagi kamtarlik samimiy bo'lmog'i zarur. Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O'qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o'quvchilarning bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi. Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-

birlariga soʻz yordamida yetkazadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli soʻzlashuv munosabatlari nihoyatda goʻzal va muloyim boʻlishini hayot taqozo etadi. Soʻzga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan boʻladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. Soʻzlashuv ham oʻziga xos sanʼatdir. Bu sanʼatning ildizi muosharat odobi boʻlib, uni mukammal oʻrganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal oʻrganmoq va sof adabiy tilda oʻquvchilar bilan muloqot qilish oʻqituvchining notiqlik qobiliyatidir.

Muloqot asosida maʼnaviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari. Inson oʻz qadr-qimmatini va oʻzligini umumtaʼlim maktablarida taʼlim-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Taʼlim muassasalarida oʻqi-tuvchi tomonidan oʻzaro muloqot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida oʻquvchilarda muloqot orqali maʼnaviy madaniyatni shakllantirish mezonlari ifodalangan.

Har bir insonning qiziqishlarini koʻra bilish, his etish va hurmat qilish; milliy-maʼnaviy madaniyat manbalarini oʻrganish, oʻzligini anglashga ehtiyoji, inson hayotida mehnatning oʻrnini toʻgʻri tushunish, insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, eʼtiqod, milliy qadriyatlarni eʼzozlash, Vatanga muhabbat, sadoqat, oʻz manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan yuqori qoʻymaslik, ota-ona, qarindoshlar va boshqa atrof-muhitidagi kishilarga nisbatan muruvatli, saxovatli boʻlish, maʼnaviy madaniyatning muhim belgilarini shakllantirishda, taʼlim-tarbiya tizimini maʼnaviy muhit, maʼnaviy faoliyat va maʼnaviy anglash bosqichlaridan iborat andozalar asosida tashkil etishda ushbu mezonlar talablariga rioya qilish belgilangan maqsadni samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda oʻqituvchining muloqoti asosida oʻquvchilar maʼnaviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar ham muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.X.Ibrohimov Sh.Abdullayeva Pedagogika nazariyasi "Fan va texnologiya" nashri Toshkent 2008
2. Xodjayev Pedagogika umumiy nazariyasi va asoslari Toshkent 2017
3. <https://azkurs.org/pe-dagogik-muloqot.html>
4. Abdullaeva Sh. Pedagogika Fan nashriyoti Toshkent 2004
5. Asqarova Oʻ. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar (Bakalavrning barcha pedagogik yoʻnalishi uchun oʻquv-uslubiy qoʻllanma). Istiqol nashri Toshkent 2005

Tojiboyeva Muhlis

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda talabalarning roli

Ilmiy rahbar: Tulishova Gulzina Ravshanovna

Annotatsiya. XXI asrda yoshlar balog'atga yetishar ekan, ular yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashishlari kerak, bu ko'pincha oldingi ajdodlarnikidan farq qiladigan ko'nikmalarni talab qiladi. Bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishi, jamiyatlarning tobora xalqaro va ko'p madaniyatli bo'lib borishi va axborot texnologiyalariga ko'proq tayanishidir. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy fan mazmuni va texnik ko'nikmalarning bir qismi XXI asrda ayniqsa muhim bo'lganligini ta'kidlaydigan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Kalit so'zlar. XXI asr, innovatsiya, Uchinchi Renessans, globallashtirish, axborot texnologiyalar, kompyuterlashtirish, intervallashtirish, nanotexnologiyalar, Innovatsiya markazi, talabalar ilmiy kengashi, axborot-kommunikatsiya, XXI asr texnologiyalari

XXI century, innovation, Third Renaissance, globalization, information technologies, computerization, intervalization, nanotechnologies, Innovation Center, student scientific council, information and communication, technologies of the 21st century

XXI век, инновации, Третий Ренессанс, глобализация, информационные технологии, компьютеризация, интервализация, нанотехнологии, Инновационный центр, студенческий научный совет, информация и связь, технологии XXI века

Mamlakatimizda biz yoshlarning har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bugun ulg'ayayotgan yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, puxta bilim olishlari uchun olib borilayotgan amaliy sa'y-harakatlarni ba'zi davlatlarda yashayotgan bolalar hattoki tasavvur ham qilisholmaydi. Ayrim mamlakatlarda maktabda o'qish bolalarning katta orzusi hisoblanadi. Ko'pincha bolalar bilim olish uchun maktabga g'ayrioddiy yo'llardan borib kelishga to'g'ri keladi. Kelajak avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga yanada kengroq jalb etish zamonaviy taraqqiyotining muhim tendensiyalaridan biridir. Shu bois yoshlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi ayni haqiqat. O'zining yangi tarixiy taraqqiyoti davrida yuqori bosqichiga intilayotgan O'zbekiston zaminida IX-XII asrlarda Birinchi Renessans, XIV-XV asrlarda Ikkinchi Renessans, ya'ni umumbashariy sivilizatsiyasiga o'zining beqiyos hissalarini qo'shgan ulug' ajdodlarimizning davomchisi sifatida Uchinchi Renessans-yoshlar nigohidadir.

Bugungi fan-texnika rivojlangan bir davrda ham ilm qilish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish bo‘lib qolmoqda. Binobarin raqobat kuchaygan, ilmiy yangiliklarga talablar oshgan, globallashuv davrida mamlakatimizda ilmiy-innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni nufuzli, milliy va xalqaro olimpiadalar, musobaqalar, tanlovlarda salmoqli natijalar qo‘lga kiritishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada yoshlarni an’anaviy fikrlashdan kreativ-tahlil qilishga o‘rgatish, ilm-fan va innovatsiyalarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, zamon talablariga moslashtirish hamda yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim asosiy yo‘nalishi shartlaridandir.

XXI asrda yoshlar balog‘atga yetishar ekan, ular yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashishlari kerak, bu ko‘pincha oldingi ajdodlarnikidan farq qiladigan ko‘nikmalarni talab qiladi. Bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zgarishi, jamiyatlarning tobora xalqaro va ko‘p madaniyatli bo‘lib borishi va axborot texnologiyalariga ko‘proq tayanishidir. Shu nuqtayi nazardan, an’anaviy fan mazmuni va texnik ko‘nikmalarning bir qismi XXI asrda ayniqsa muhim bo‘lganligini ta’kidlaydigan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Mustaqillikdan so‘ng respublikamizda axborot texnologiyalariga katta e‘tibor berildi. Jahonning ko‘plab mamlakatlari zamonaviy kompyuterlarga va ularni yoshlarga bevosita o‘rgatish boshlanadi. Yangi axborot texnologiyalari rivojlanishiga ko‘plab mamlakatlar katta e‘tibor qaratdi va har xil festival, musobaqa, tanlovlar tashkil qilindi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham bunday ishlarga befarq qaramadi. Bunga misol, 2000-yil mart oyida vatanimizda birinchi marta Internet festivali bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda axborot texnologiyalarining rivojlanishi rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Eng katta yutuq bu O‘zbekistonda milliy kompyuter tarmoqlarining shakllanishidir va u orqali axborot almashinishi mumkin. Mamlakatimizda O‘rta Osiyoda birinchilardan bo‘lib, elektron-hisoblash mashinasi ishga tushirilgan. 1956-yilda O‘zFA matematika institut qoshida hisoblash texnikasi bo‘limi ochildi. Bu O‘rta Osiyo respublikalari ichida birinchi bunday bolim ochilishi edi. O‘zbekistonimiz mustaqil bo‘lgandan so‘ng ham axborot texnologiyalariga katta e‘tibor berildi va bu bo‘lim, birlashmalar yanada rivojlantirildi. 2001-yil “Kibernetika” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasida yangi axborot texnologiyalari markazi barpo etildi. Mustaqil O‘zbekistonimizda kompyuterlashtirishni rivojlantirish, zamonaviy kompyuterlarni qo‘llash va ularni samarali, sifatli ishlatish, kompyuter bozorini kengaytirish shu va boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar o‘tkazildi va yanada yangi yo‘nalishlari rejalashtirilmoqda. Respublikamiz Birinchi Rrezidenti I.A.Karimov:“Bilimdon va ma’naviy yetuk bo‘lgan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallagan, hamda boshqara oladigan malakali mutaxassislarni

tarbiyalab yetishtirish, bunday islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda kadrlar potensialiga, ularning kasb jihatidan tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi"- deb ta'kidlagan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida 2010- yil 27-yanvardagi PQ-1274-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish, bolalar va o'smirlarning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ilm-fan, texnologiya yutuqlari va yangiliklari bilan tanishtirib borish, iqtisodiyot tarmoqlaridagi yuqori texnologiyalar, konstruktorlik ishlanmalari va ilmiy-amaliy izlanishlarning natijalari, ularni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari to'g'risidagi ma'lumotlarni murabbiylar va ustozlar, mutaxassislar, ayniqsa yosh avlod vakillari o'rtasida ommabop tarzda targ'ib qilish, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning belgilangan ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda yoshlarning ishtirokini faollashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi, unga ko'ra "XXI asr Texnologiyalari" jurnali ta'sis etildi. XXI asrga kelib texnologiyalar shu qadar rivojlanadiki, go'yo kashf qilinmagan yangilik, yaratilmagan ixtiro qolmadi. Ammo texnologiyalarning "nano" ko'rinishlari bu xulosaning xato ekanini isbotladi. Bugun nanotexnologiyalarning o'zida ham ixtirolar qilinyapti. O'zbek yoshlardan Alisher Tojiyev SMS yuborishning yangi usulini o'ylab topgani, Azizbek Mirzayevning kimyo sohasida izlanishlari, Ravshan Nazarovning yangi antivirus tizimini yaratgani bunga misol bo'la oladi. V.S.Kornilovning fikricha, raqamli boshqarish tizimlari: "Talabalar dunyoqarashining kengayishiga yordam beradi: ular turli bilim sohalarida ishlab chiqilgan ilmiy uslublar, yondashuvlar va usullarning o'zaro kirib borishi va o'zaro boyitishini tushunishga erishadilar". Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaganda o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy, amaliy asoslarini, hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalaridandir. Respublikamizda ham bu borada iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699 sonli qarori qabul qilingan bo'lib, qarorda "Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng

joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish" asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Ta'lim jarayonida o'qitishning yangi texnologiyalarini belgilaydigan metodik, pedagogik nashrlar bilan tanishish, darsda o'qitishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalana olish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim faolligini shakllantirishda ijodiy izlanishning samarali usullarini o'rgatish hozirgi zamon talabi. XXI asr-axborot texnologiyalari asri. Zamonaviy jamiyatda uning ahamiyati katta. Shuning uchun hozirda ta'limni axborotlashtirish va fanlarni ilmiy-texnologik asoslarda o'qitish maqsadlari belgilanmoqda. Qobiliyatni o'quvchi tomonidan mavzu bo'yicha olgan bilimlar to'plami sifatida qabul qilmaslik kerak. O'zgaruvchan muhitda o'rganish natijasida olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olishni anglatuvchi yangi sifatdir. Axborot kompetensiyasini shakllantirishning asosiy maqsadi o'quvchilarida, o'z ishlarida kompyuter texnologiyalaridan erkin va samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirishdir. Haqiqatdan ham, uzoqni ko'zlagan har qanday rejaning asosini sifatli ta'lim tashkil etadi. Ko'hna Xitoy mutafakkiri Konfutsiy: "Agar rejangiz bir yillik bo'lsa, sholi eking, o'n yillik bo'lsa, daraxt eking, yuz yillik bolsa-bolalaringizga ta'lim bering", - deya bejiz ta'kidlamagan. Kelajakda kutilgan "hosil"ni yig'ish uchun O'zbekistonimizda hozirdan keng imkoniyatlar yaratilyapti, yoshlarni ilm-u ma'rifatga rag'batlantirish, ilm egalarini qadrlashga qaratilgan tizim shakllantirilyapti. Yoshlarni ilm-fan bilan qamrab olishning yana bir muhim strategik jarayon amalga oshirilmoqda. 2020-yil 29-oktabr kuni PF-6097 sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi prezident farmoniga ko'ra:

– yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida;

– ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o'rtacha yoshini 2025-yilga qadar 45 ga, 2030-yilgacha esa 39 ga yetkazish.

2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish ko'zda tutilgan. Talaba-yoshlar o'rtasida XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda taklif va tavsiyalar:

1. Talaba-yoshlarning axborot texnologiyalari va kompyuter savodxonligini yanada oshirish, ularni innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida yoshlarni innovatsiyalarga yo'naltiradigan, ilg'or g'oyalari va startup loyihalarini qo'llab-quvvatlaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan maxsus jihozlangan Innovatsiya markazini tashkil etish;

2. Yoshlarni ilm-fan bilan yanada kengroq qamrab olish, ilmga oid bo‘lgan masalalarni yoshlar o‘z qarashlari, mustaqil fikrlash va noan‘anaviy ravishda kreativ tahlil qila oladigan bo‘lajak yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash maydonini yaratish, ya’ni Talabalar ilmiy kengashini tashkil etish;

3. Nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlarda tahsil olayotgan talabalarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha olayotgan nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash uchun har haftaning bir kunida amaliy-tajriba mexanizmini yaratish

4. Ta’lim jarayonida o‘quvchi-talabalarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirishning ta’sirchan mexanizmini ishlab chiqish va milliy ta’lim tizimiga joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning iqtisodiy va ma’naviy jihatdan yuksalishi vatanimizda yashayotgan har bir fuqarolarning vatanga bo‘lgan chuqur hurmati bilan ham belgilanadi. Demak, bu yurt uchun har bir farzand jon kuydirmog‘i, kelajagi uchun oz bo‘lsa-da naf tegadigan inson bo‘lib yashamog‘i lozim. Ha, shu maskan bizniki, barchamizniki! Zaminimizning yagonaligi va betakrorligini asrash uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmog‘imiz darkor. Bu biz yosh avlod uchun ham farz, ham qarzdir! Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning ushbu so‘zlari bilan yakunlamoqchiman: “Dunyoda hech qachon eskirmaydigan yo‘qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo‘lsa, farzandiga bergan bilim va hunardir”.

Adabiyotlar:

1. www.ziyounet.uz
2. www.lex.uz/ru/docs
3. Shuxrat Sattorov, “Biz g‘alaba qozonamiz”, “Bilim va intellektual salohiyat” nashriyoti 2018
4. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-may kuni ilm-fan va oliy ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan <https://kun.uz/uz/news/2019/05/28>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-aprel 2020-yildagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699 sonli qarori
6. PF-6097 sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi prezident farmoni. <https://lex.uz/docs/-5073447>
7. “XXI Asr Texnologiyalari” jurnali

8. "Hurriyat" gazetasi

Raimjonova Muslima

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Jaholatga qarshi ma'rifat

Annotatsiya: Ushbu maqolada jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, uning hayotimizdagi nechog'liq katta ta'siri borligi haqida aytib o'taman. Shuningdek, maqolada yoshlarimiz qalbida vatanga bo'lgan muhabbat, buyuk tariximizga, milliy urf-odatlarimizga hurmat singari fazilatlarni shakllantirish orqali jaholatga qarshi kurashish immunitetini kuchaytirish borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jaholat, ma'naviyat, immunitet, urf-odat, insonparvarlik, texnologik taraqqiyot, manipulyatsiya.

Kirish: Insoniyat qadimdan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib keladi. Jaholat izohli lug'atimizda "Ilm, ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik, nodonlik, zulmat" deya talqin etiladi. Kishilarning ma'naviy dunyosini boyitmasdan, ularda axloqiy onglilikni milliy va umuminsoniy axloqiy fazilatlarni rivoj toptirmasdan turib O'zbekistonning kelajagini ta'minlash mumkin emas. Zaminimizda yadroviy qurollar ko'payayotgan bir vaqtda, zo'ravonlik ham kechayotgan bir pallada jaholatga yo'l qo'yishimiz aslo mumkin emas. Jaholat va ma'rifat insoniyat tarixidan hamisha qarama-qarshi tushunchalar sifatida namoyon bo'lib kelgan. Jaholat – bu insonning bilimsizlik va xurofot botqog'iga botishi, haqiqatni anglashdan yiroqlashish holatidir. Bu tushuncha insoniyat tarixida ko'p bora yomon oqibatlarga olib kelgan. Jaholat- nafaqat ilm-fan va ma'rifatni rad etish, balki insonni ruhiy va aqliy turg'unlikka olib keladigan g'aflatdir. Ma'rifat insonning ilmfan, madaniyat va bilim orqali ongini yoritish, rivojlanish sari yo'nalishi. Shuningdek, ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuchqudratidir. Bugungi kunda taraqqiyotga erishish, Ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va adolatli jamiyat qurishda ma'rifatning o'rni beqiyosdir. Jaholatning sabablari ko'p va xilma-xildir. Eng asosiy sabab esa bilimsizlikdir. Odamlar bilimdan uzoqlashganda, noto'g'ri tushunchalar, xurofot va asossiz e'tiqodlar tezda jamiyatga kirib keladi. Bunday vaziyatda insonlar turli zararli g'oyalarga ergashib, ko'pincha o'zlarining hayotlarini yanada og'irlashtiradi. Masalan, xurofotlar sabab insonlar sog'lom fikrlash o'rniga turli sirlari kuchlar, folbinlar yoki mo'jizalarga ishonishni afzal ko'radilar. Jaholat jamiyatda Ijtimoiy turg'unlik va adolatsizlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bilim yetishmasligi tufayli insonlar o'z haqlarini bilmaydilar yoki erisha

olmaydilar. Shu tariqa jamiyatda zulm va kamsitilishlarga imkoniyat yaratiladi. Jaholatning eng yomon ko‘rinishlaridan biri-bu ekstremistik g‘oyalarning tarqalishidir. Bu holatda insonlar nafaqat o‘z hayotlariga balki butun jamiyatga zarar keltiruvchi xatti-harakatlar qiladilar. Jaholatdan qutilishning eng samarali yo‘li-bu ma‘rifatdir. Ilm-fan va ta‘lim orqali insonlar o‘z aql-idrokini kengaytiradi, dunyoni teranroq anglay boshlaydi. Ma‘rifatda insonni fikrlashga, tahlil qilishga, yangiliklarga ochiq bo‘lishga o‘rgatadi. Bu esa jamiyatning rivojlanishi, texnologik taraqqiyoti, adolatli va ilmiy jamiyat barpo etish uchun zamin yaratadi. Buyuk mutafakkirlar tarix davomida jaholatga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ular ilm-fan, falsafa adabiyot va ma‘rifat orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashgan. Ibn Sino, al-Farobiy, Alisher Navoiy bu borada eng mashhur va ta‘sirli shaxslardir. Ularning asarlari va faoliyati nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham bilim va ma‘rifat manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Ibn Sino tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, jamiyatni turli zararli xurofotlardan va noto‘g‘ri tibbiy usullardan xalos etishga urindi. U insonni Ilmiy asosida davolash va kasallikning sabablarini ilm-fan orqali izohlashga katta e‘tibor bergan. U jaholatga qarshi kurashda Ilmiy izlanish va mantiqiy fikrlashning ustunligini ko‘rsatgan. Farobiy falsafa, musiqa, mantiq va siyosat va axloqiy bilimlar orqali jamiyatni ongli va bilimli hayotga yetaklashga intilgan. U jaholatning sabablarini bilimsizlik va noto‘g‘ri tushunchalarda deb bilib, tanqidiy fikrlash va ilm-fanni yoyish orqali bu muammolarga qarshi kurashgan. U jamiyatni taraqqiyotga yetaklashda jaholatdan xalos bo‘lish uchun ilm-fanga suyanish kerakligini ko‘rsatgan. Navoiy o‘z davrida jaholatga qarshi kurashda madaniyat va adabiyotning kuchini ko‘rsatdi. Bu mutafakkirlar bilimsizlik va xurofotga qarshi kurashda eng samarali qurol sifatida falsafa, ilm va ma‘rifatni tanlaganlar va butun insoniyatni taraqqiyot sari yetaklaganlar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” - deb ta‘kidlaganlar. Bugungi kunda ma‘rifat va jaholatga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalari va internet hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya davrida zamonaviy texnologiyalar xususan, internet va media tarmoqlari orqali insonlar bilimga tezkor va keng ko‘lamda kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ommaviy axborot vositalari, jumladan televizor, radio, gazeta va jurnallar kabi vositalar jamiyatdagi eng kuchli ma‘rifat vositalaridan biridir. OAV orqali jamoatchilikda yangiliklar, ilmiy izlanishlar va madaniyat haqida ma‘lumot yetkaziladi. Axborotning ommaviy tarqalishi ma‘rifat va bilimning keng yoyilishiga yordam beradi.

Masalan, ta'limga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, hujjatli filmlar yoki ilmiy dasturlar orqali insonlar o'z bilimlarini oshirishlari mumkin. Medialarning va internetning zamonaviy jamiyatdagi roli ma'rifatni yoyish va jaholatga qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. OAV orqali ilm-fan, madaniyat va ta'limga oid ma'lumotlar keng jamoatchilikka yetkazilmoqda. Internet esa har bir inson uchun bilim olishning ochiq platformasiga aylangan. Ammo bular bilan birga, noto'g'ri axborotlar va manipulyatsiyalar tarqalish xavfi ham yuqori. Shu bois tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va axborot madaniyatini shakllantirish ma'rifatli jamiyatni yaratishda asosiy omillardan biridir. Ma'rifat insoniyat taraqqiyoti uchun kuchli manba hisoblanadi. U insonning jaholat va xurofotdan ozod qiladi, bilim va tafakkurni yoyadi. Bilimli jamiyat har doim texnologik va ijtimoiy rivojlanishning poydevorida turadi. Ma'rifatning eng kuchli ta'sirlaridan biri-u odamlarni jamiyatda o'z o'rnini topishga, huquq va majburiyatlarini anglashga yordam beradi. Bilimli inson o'z hayotini ongli ravishda boshqarishga, huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga qodir bo'ladi. Shuning uchun ma'rifat shaxsiy erkinlik, tenglik va adolatni targ'ib qiluvchi kuchdir. Tanqidiy fikrlash bu ma'rifatning ajralmas qismi bo'lib, insonning har qanday axborotga tahliliy yondashish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash insonni noto'g'ri qarashlar va yolg'on axborotlardan himoya qiladi, unga haqiqatni izlab topish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy muammolarni hal qilishda va shaxsiy hayotdagi qarorlarni to'g'ri qabul qilishda muhim omil hisoblanadi. Bilimsizlik va xurofotlarga asoslangan qarashlar o'rniga, insonlar ilmiy va mantiqiy asoslangan faktlarga tayanib qarorlar qabul qilishadi. Masalan, ilm-fanga asoslangan qarashlar va tahliliy yondashuvlar tibbiyotda, texnologiyada va ijtimoiy hayotda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi orqali jamiyatdagi demokratiya, inson huquqlari va erkinlikning mustahkamlanishiga hissa qo'shiladi. Erkin fikr yuritish insonning o'z fikrini huquq va qobiliyatidir. Bu huquq nafaqat shaxsiy o'zgarishlarga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Erkin fikr yuritish orqali jamiyatdagi muammolar ochiq muhokama qilinadi, innovatsiyalar paydo bo'ladi va insonlar o'z huquqlarini himoya qilishga o'rganadilar. Ma'rifatning kuchi bilim va tanqidiy fikrlash orqali insonlarni jaholatdan ozod qiladi. Tanqidiy fikrlash insonni noto'g'ri ma'lumotlar vazararli g'oyalardan himoya qilsa, erkin fikr yuritish unga o'z imkoniyatlarini rivojlantirish va haqiqatni izlashga yo'l ochadi. Shu bilan birga, bu ikki jarayon jamiyatning taraqqiyotiga, adolatli ma'rifatli jamiyat shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, tarixda ko'plab diniy va etnik nizolar, inson huquqlarining buzilishi, ayollarning kamsitilishi kabi holatlar jaholat tufayli yuzaga kelgan. Bu holatning barchasi bilim va ma'rifatning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan. Jamiyatning rivojlanishi uchun jaholatdan ozod bo'lish shart. Ma'rifatli jamiyat taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ma'rifat insonlarni

yangilik yaratishga,ilmiy izlanishlar va texnologik kashfiyotlarga ilhomlantiradi.Taraqqiyot nafaqat iqtisodiy sohada,balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o‘z aksini topadi.Bilimli jamiyatda texnologik rivojlanish,ilmiy kashfiyotlar va innovatsiyalar mahsulotlar jamiyatni global miqyosda taraqqiyotga yetaklaydi.Tinchlik ma’rifatli jamiyatda eng muhim qadriyat hisoblanadi.Bilimli insonlar bilan hurmat va hamjihatlikda yashashga intiladilar.Ma’rifatli jamiyatda kelishmovchiliklar va muammolar ochiq muloqot va murosaga asoslangan holda hal etiladi.Jaholat,adolat va toqatsizlikka o‘rin yo‘q bo‘lgan jamiyatda tinchlik va barqarorlik mustahkamlanadi.Tinchlik va adolat ma’rifatli jamiyatda hurmat qilinadigan asosiy qadriyatlar hisoblanadi.Shu sababli,ma’rifat jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va global tinchlikning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi.Biz yangilanish,tafakkur va fikr erkinligi,erkin ijod qilish,o‘z qobiliyat va iqtidorimizni ro‘yobga chiqarishga har qachongidan-da ko‘proq imkoniyat yaratilgan bir davrda yashayapmiz.Afsuski,bunday erkinlikni hamma ham to‘g‘ri qabul qilavermaydi,o‘z faoliyatini ezgu ishlarga safarbar etavermaydi.Tabiiyki,bu jarayonda insoniyatning azaliy dushmani nafs ofati bashariyat yo‘liga har qachongidan-da ko‘proq g‘ov bo‘ladi.Ana shunday murakkab bir sharoitda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek,“Jaholatga qarshi – ma’rifat” quroli sifatida xizmat qiluvchi,ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma’naviy meros o‘ziga xos najot qal’asi,himoya qo‘rg‘oni vazifasini o‘taydi.Ilmsiz aslo taraqqiyotga erisholmaydi,jaholat esa hech qachon insonni saodatmand etmaydi.Har qanday kasallikning oldini olish uchun,avvalo,kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinishi zarur.Shuning uchun yoshlarimizda Ona Vatanimizga bo‘lgan muhabbat,ota-bobolarimiz kabi o‘z tariximizga,dinimizga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish,ular ongida va qalbida mafkuraviy,ma’naviy immunitetni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) Karimov.I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”T:2008-yil
- 2) MirziyMirziSh.M “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T-O‘zbekiston 2007-yil

Kengasheva Bonu

Jizzax Davlat Pedagogika unversiteti o‘zbek tili va adabiyot fakulteti talabasi.

Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish

Annotatsiya: Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) – O‘rta Osiyo tarixida muhim shaxs bo‘lib,nafaqat buyuk hukmdor,balki mashhur astronom,matematik va

olimdir. Ushbu tadqiqot Mirzo Ulug‘bekning hayoti, hukmdorlik faoliyati va ilmiy-ma‘rifiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Temuriylar, Samarqand, ilm-fan, madrasalar, yulduzlar, ilmiy meros, kashfiyotlar.

Аннотация: Мирзо Улугбек (1394-1449) - важная личность в истории Средней Азии, не только великий правитель, но и известный астроном, математик и учёный. Данное исследование посвящено изучению жизни, правления и научно-просветительского наследия Мирзо Улугбека.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Тимуриды, Самарканд, наука, медресе, звезды, научное наследие, открытия.

Abstract: Mirzo Ulug'bek (1394-1449) is an important person in the history of Central Asia, not only a great ruler, but also a famous astronomer, mathematician and scientist. This study is devoted to the study of Mirzo Ulugbek's life, rulership and scientific and educational heritage.

Key words: Mirzo Ulugbek, Timurids, Samarkand, science, madrasas, stars, scientific heritage, discoveries, stars.

Kirish.

Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o‘rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo‘yicha O‘rta Osiyo, xususan, o‘zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Bu davrda musulmon mamlakatlarining yuzlab buyuk mutafakkirlari astronomiya, matematika va falsafa fanlari bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Ular ichida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Abu Mahmud Hamid al-Xo‘jandiy, Nasiruddin at-Tusiy, Mahmud al-Chag‘miniy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug‘bek kabi mashur siymolar o‘z ijodlari, ilmiy meroslari bilan Markaziy Osiyo xalqlarininggina emas, balki dunyo xalqlarining boyligiga aylanib, bugun jahonning barcha ellari orasida hurmat bilan tilga olinadilar. 2023-yil 22-dekabr. Respublika Ma‘naviy va ma‘rifiy markazning kengaytirilgan majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqida “Ma‘naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” degan fikri, shuningdek 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 73-maqсадida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” ko‘rsatib o‘tilgan.

II-Renessans davrining buyuk namoyondalaridan bo'lgan Mirzo Ulug'bek, o'z davrining buyuk davlat arbobi, o'z Vatani va xalqini ma'naviyati, madaniyati, ma'rifatini yuksak cho'qqilarga ko'targan Sharqning eng buyuk astronomi hisoblanadi. Mirzo Ulug'bek Amir Temurning kenja o'g'li Shohruxmirzoni to'ng'ich o'g'li, Amir Temurning nabirasi edi. Mirzo Ulug'bek 1394-yil 22-mart sanasida Eronning Sultoniya shahrida, bobosi Amir Temurning harbiy yurish paytida tug'ilgan. Uning asl ismi Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragoniy edi. Uning yoshligida Ulug'bek deb atalib Mirzo Ulug'bek bo'lib qoladi. Mirzo Ulug'bek 1411-yil 17 yoshida Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanadi. Otasi Shohrux Eron va Turonni yagona xoqoni hisoblanar edi. Mirzo Ulug'bek yoshligida bolalik yillarida buvisi Saroymalik xonim tarbiyasida bo'lgan. Bu xonim nabirasiga o'qish, yozishni o'rgatib, tarixiy mavzuda hikoyalar aytib bergan. Keyinchalik Shohmalik otabegilik qilgan, unga harbiy va siyosiy tarbiya bergan. Ulug'bek ziyrak, fanga qiziquvchan bo'lgan. Uning shogirdlari yozishicha arab tilini mukammal bilgan, Qur'oni Karimni aksariyat qismini yod bilgan. Ko'pgina tabiiy fanlar, matematika, geometriya, trigonometriya astronomiya fanlaridan chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan.

Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berganini ko'rsatadi. Qur'oni karimning aksariyat qismlarini yoddan bilgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat-ush shuaro" sida shunday yozgan; "Olim, odil, g'olib va himmatli podshoh Ulug'bek Ko'ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida fozillar martabasi cho'qqiga ko'tarilgan. Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shuki, islomiyat zamonida, balki Iskandar Zulqarnayn davridan to shu damgacha Ulug'bek Ko'ragondek olim va podshoh saltanat taxtida o'tirmagan. U otasi Shohruh bahodir hukmronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil mustaqil idora etdi. "Ulug'bek Buxoroda(1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda(1432-33) madrasalar va Marvda hayriya muassalarini barpo qildirgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan birgalikda dunyoviy fanlar ham o'qitildi, ko'proq aniq fanlarga e'tibor qaratildi. Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini O'rta Osiyo sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog'onsiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi-Samarqand ilmiy maktabini o'sha davr akademiyasini barpo etganligi bo'ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin

Jamshid Koshiy edi.Ulug‘bek Samarqand yaqinidagi Ko‘xak(Cho‘ponota) tepaligida rasadxona barpo ettirdi.

Rasadxona 1424-1429- yillarda qurilgan.“Boburnoma” dagi ma’lumotlarga ko‘ra rasadxonaning balandligi 30,4 m dan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Rasadxona o‘rta asrlarda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo‘lgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblari bo‘lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m li qo‘shaloq yoydan iborat kvadrant yoki (sekstantga yaqin qurilma hisoblanadi. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan.Asbob aylanasi bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga to‘g‘ri keladi. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyligi ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik pretsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan. Rasadxonada kichik o‘lchamli asboblari armillyar sfera, 2, 4 va 7 halqadan iborat o'lchov asboblari, triangula, quyosh va yulduz soatlari, asturlab va boshqalar bo'lgan. Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan. Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari “Ziji Ko'ragoniy” rasadxonada yaratilgan.Uning qurilishi va keying ilmiy faoliyati Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan qator mashhur olimlar G‘iyosiddin Koshiy,Qozizoda Rumiy,Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog‘liq. Ulug‘bekdan oldin ham keyin ham Zijlar yozilgan. Lekin uning “Zij”i juda mukammal,ilmiyligi va aniqligi bilan butun jahon fani rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

“Ziji Ko‘ragoniy” 403 bet, 4 ta kitobdan iborat bo‘lgan. Unda astronomiyani nazariy qismi, trigonometriya, sferik uchburchaklar, kuzatish natijalari bilan tahlillari keltirilgan va 1018 ta yulduzni aniq koordinatalari keltirilgan. Xo‘sh, bu qanday ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ulug‘bek “Zij”i o‘rta asrlarda eng mukammal astronomik asar bo‘lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o‘ziga jalb etdi. 1449-yil Ulug‘bekni fojiali halokatidan keyin Samarqand olimlari asta sekin yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketdi. Ular o‘zlari bilan borgan yerlariga Samarqand olimlarining yutuqlarini va “Zij” ning nusxalarini ham yetkazdilar. Ali Qushchi 1473yilda Istanbulga boradi va “Zij” ni Turkiya, Istanbul kutubxonasida saqlaydi. “Zij” Turkiya orqali Ovro‘po ma’lumotlarlariga tarqaladi.Ma’lumotlarga ko‘ra “Zij” ning 100 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. Ulug‘bek “Zij”i Hindiston olimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Samarqand olimlarining ilmiy an’analarini Hindistonga Bobur olib borgan degan ma’lumotlar bor. G‘arbiy Ovro‘po Temur va uning farzandlarini ayniqsa Ulug‘bekni XV asrdan bilardilar. 1638-yil Istanbulga ungliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602-1652) keladi. Istanbuldan “Zij” ni izlab topadi va Angliyaga olib ketadi. 1448-

1452 yillar “Zij” dan 98 ta yulduz va geografik jadvalni lotincha nashr qilishadi. Yana bir ingliz olimi va sharqshunos Toms Hayd (1636-1703) “Zij” dan turg’un yulduzlar jadvalini 1665-yilda forscha va lotincha nashr etadi.

Yan Geveli o‘zining “Astronomiya darakchisi” kitobida “Zij” ni ko‘p qismini beradi. Yan Geveli yulduz turkumlariga gravyuralar chizgan. Yulduz turkumlari nomlariga mos rasmlarda tasvirlagan astronom, matematik va rassom bo‘lgan.[4,5] 3-rasmda polyak astronomi Yan Gaveliy gravyurasi(asari)da URONIYA-Osmon Ma’budasi (o‘rtada o‘ng qo‘lida Quyoshni ko‘tarib turibdi) o‘ng tomonida Ulug‘bek o‘tiribdi. Bu asarda eng buyuk astronomlar tasvirlangan Ptolemey, Tixo Brage, Ulug‘bek, Javani Richcholi, Velgelm IV va Yan Geveliy. Ko‘rinib turibdiki Ulug‘bekni o‘rni balandligi. U xatto Ptolemeydan ham yuqoriroqda tasvirlangan. Rasmda har bir astronomni orqa tomonida devorda yozuvlar ko‘rsatilgan. Ulug‘bekni to‘g‘risida “O‘z ishimni munosib avlodlarimga qoldirdim” -deb yozib qo‘yilgan. Bu rasmlar 1685 yillarda ishlangan. Bu paytlarda deyarli XV asr xukmronlik qilib kelgan Ptolemeyning geosentrik ta’limoti o‘rnini N.Kopernikni geliosentrik ta’limoti egallagan edi. Bu asarda Yan Gaveliy buyuk astronomlarni ularning qilgan ishlari yuzasidan solishtirgan. Hulosa qilib aytish mumkin-ki Ulug‘bekni ishlari o‘sha davrda Ovro‘pada eng qadrlı bo‘lgandeyish mumkin.

O‘zbekistonliklar, yoshlarimiz Yangi O‘zbekistonda III Renessans boshlanayotgan davrda bunday tarixiy, ma’naviy qadriyatlarimizdan faxrlansak, o‘rgansak va targ‘ibot qilsak arziydi!

Foydalanilgan adabiyotlar va havolalar

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mirzo-ulugbek-merosi.html>
2. Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosining fandagi va yangi O‘zbekiston ma’naviyatidagi o‘rni. Qahhorov Siddiq Qahhorovich Avezmurotov Ollayor
3. Mirzo Ulug‘Bekning Jahon Ilm-Faniga Qo‘shgan Hissasi .Avg‘onova Mag‘fuza Orifovna

Ummatova Sevinch

Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Badiiy mahoratning ko‘zgusi: Talqin va tahlil nazariyasi

Ilmiy rahbar: Soberova Mohira Soliyevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarni talqin qilish va tahlil qilishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Talqin va tahlil jarayonining o‘ziga xos yondashuvlari, badiiy asarning mazmuni va shakli o‘rtasidagi aloqalar, adabiyotshunoslikning turli metodlari hamda badiiy tafakkurning ahamiyati yoritiladi. Ushbu maqola badiiy asarlarni chuqurroq anglashni istagan adabiyot ixlosmandlari, talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Badiiy mahorat, talqin, tahlil, adabiy nazariya, janr, uslub, adabiy qahramon, san’at asari, ijodiy jarayon, badiiy tafakkur, tahliliy yondashuv.

Adabiyot insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u odamlarning hayotiy tajribasi, ruhiy kechinmalari va orzu-umidlarini badiiy shaklda aks ettiradi. Badiiy asarlarni talqin va tahlil qilish jarayoni esa ushbu san’atning mohiyatini chuqur anglash va uning go‘zalligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada badiiy talqin va tahlilning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi.

Badiiy talqin adabiy asarning ichki mazmunini ochish, undagi g‘oya va ramzlarning yashirin ma’nosini tushunishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quvchi yoki tanqidchi yozuvchining niyatini, asar yaratishdagi maqsadini anglashga intiladi. Talqin ikki asosiy yondashuv orqali amalga oshiriladi:

1. Subyektiv talqin

O‘quvchining o‘z shaxsiy his-tuyg‘ulari va dunyoqarashlari asosida asarni tushunishiga asoslangan. Bu yondashuv badiiy asarning har bir o‘quvchi tomonidan turlicha qabul qilinishini ta’kidlaydi. Misol uchun, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asarini har bir o‘quvchi turli xil qirralaridan anglaydi.

2. Obyektiv talqin

Asar yaratilgan davr, yozuvchining hayoti va jamiyatsdagi muhitni hisobga olgan holda uning mazmunini tushuntirishga qaratilgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini yorituvchi obyektiv talqinga muhtoj.

Talqin jarayonida adabiy asarlarning ramziy qatlamlarini, qahramonlarning ichki kechinmalarini va voqealar rivojidadagi sabab-oqibat munosabatlarini ochish muhim hisoblanadi.

Badiiy tahlil asarning shakli, uslubi, badiiy vositalari va g‘oyaviy yo‘nalishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda yozuvchining o‘ziga

xos badiiy usullari va texnikalari chuqur o‘rganiladi. Tahlil qilishda quyidagi asosiy metodlardan foydalaniladi:

1. Biografik metod

Yozuvchining hayoti, shaxsiy kechinmalari va tarixiy voqealar asar mazmuniga qanday ta’sir qilganini o‘rganish. Masalan, L. Tolstoyning “Anna Karenina” romani Tolstoyning o‘z hayotiy tajribalarini aks ettiradi.

2. Psixologik metod

Qahramonlarning ruhiy holati va ichki dunyosini o‘rganishga qaratilgan. Fyodor Dostoyevskiy asarlaridagi qahramonlar misolida psixologik tahlilning ahamiyatini ko‘rish mumkin.

3. Sotsiologik metod

Asar ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Bu metod orqali yozuvchi jamiyatdagi muammolarni qanday aks ettirgani tahlil qilinadi.

4. Strukturaviy metod

Asarning shakli va mazmuni alohida yoki birgalikda tahlil qilinadi. Roland Bart va boshqa zamonaviy strukturalistlar bu metodni keng qo‘llagan.

5. Komparativ metod

Turli adabiy asarlarni solishtirib tahlil qilish. Bu metod orqali yozuvchilarning uslublaridagi farqlar va umumiy jihatlar aniqlanadi.

Badiiy talqin va tahlil o‘quvchini yozuvchining fikr olamiga olib kirib, asar ichki mazmunining go‘zalligini anglashga yordam beradi. Talqin orqali asar kontekstida yashirin g‘oyalar va ramzlar ochiladi. Tahlil esa asar shakliy jihatlarini aniqlab, yozuvchining ijodiy usullarini baholash imkonini beradi. Masalan:

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asarida talqin orqali insoniy fazilatlarning yuksak darajada ulug‘langanini ko‘rish mumkin.

Tahlil esa ushbu asarda qo‘llanilgan badiiy vositalarning betakrorligini namoyish etadi.

Adabiyot nafaqat ma’naviy qadriyatlarni tarannum etadi, balki o‘quvchining tafakkurini, tasavvurini va his-tuyg‘ularini boyitadi. Shu sababli, badiiy talqin va tahlil badiiy mahoratning eng muhim qirralarini ochib berishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytсам, badiiy asarlarni talqin va tahlil qilish jarayoni nafaqat yozuvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida muloqotni ta‘minlaydi, balki asar mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu jarayon orqali o‘quvchi adabiy asarlarning estetik go‘zalligini, yozuvchi mahoratini va badiiy tafakkurning yuksakligini his etadi. Talqin va tahlilning nazariy va amaliy ahamiyati adabiyotning inson hayotidagi o‘rnini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar. Toshkent: Sharq, 2020.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: Fan, 2018.
3. Bakhtin, M. Estetika slovesnogo tvorchestva. Moskva: Iskusstvo, 1979.
4. Blok, A. O poezii. Moskva: Nauka, 1988.
5. Eliot, T. S. Selected Essays. London: Faber & Faber, 1932.
6. Karimov, S. Adabiyot nazariyasiga kirish. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
7. Mukarramov, A. Badiiy asarni tahlil qilish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
8. Nabokov, V. Lectures on Literature. New York: Harcourt, 1980.
9. Sa'dulla, S. Adabiy jarayon va nazariya. Toshkent: Akademnashr, 2022.
10. Tolstoy, L. Chto takoe iskusstvo?. Moskva: Prosveshchenie, 1992.

MUNDARIJA:

SO‘ZBOSHI	3
KIRISH.....	6
Farrux Amirov	11
Zilola Begimqulova.....	19
Nasiba Boshmanova.....	28
Diyora Hatamova	29
Dilnura Egamberdiyeva.....	31
Vazira Temirova.....	31
Hilola Abdug‘afforova	32
Yulduz Nadirova.....	33
Sevinch Jo‘raboyeva	35
Sevinch Tursunova	36
Bahora Xoliqova	36
Diyora Nuriddinova.....	37
Aliqulova Shoxista	42
Xaitboyeva O‘g‘iloy.....	43
Ortiqova Gulsora	49
Lochin Xakimov.....	51
Baxtiyorova Sevinch	53
Berdiqulova Shahzoda.....	55
Eshmurzayeva Barno.....	59
Abdiyeva Barno.....	61
Nizamidinova Jayrona.....	65
Sayfiddinova Saida.....	68

FONUS

Soatova Ruxsora.....	70
Usmonova Shoirra	74
Xo‘rozova Yulduz.....	79
Yangiboyeva Madina.....	82
Keldiyorova Dinora.....	86
Ergasheva Aziza	89
Asadullayeva Marjona.....	92
To‘raqulova Jasmina	95
Ravshanova Nozima.....	100
Ismoilova Munojot	108
To‘raqulova Sabina.....	110
Tojiboyeva Muhlisa.....	115
Raimjonova Muslima	120
Ummatova Sevinch	127